Olingan ma’lumotlardan umumiy holatda zararlangan o‘simliklar soni S-6524 va Sulton navlarida 64,0-62,9% ni tashkil etib, Buxoro-6, Buxoro-102 va Andijon-36 navlariga nisbatan 17,6-39,9%, SP-7702 va SP-7703 navlariga nisbatan 43,4-50,2% gacha yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Kuchli holatda zararlangan o‘simliklar soni S-6524 va Sulton navlarida 6,9-11,7%, qolgan navlarda esa 0 % dan 3,4 % gacha bo‘lganligi kuzatildi. Bu o‘simliklarning kasallanishi navlarning kelib chiqishiga bog‘liqligini ifoda Vertitsillium zamburug‘i bilan kasallanishni ball shkalasida baholash, o‘rganiladigan navlar, shakllar va duragaylarni ushbu kasallik bilan kasallanish darajasini A.Shami formulasi bilan aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu usul orqali g‘o‘za o‘simliklarini vertitsillyoz vilt bilan kasallanish darajasini xolis aniqlash mumkin.

1-jadval

V.dahliae zamburug‘i bilan tabiiy zararlangan sharoitda zararlangan g‘o‘za navlari o‘simliklarning soni, %.

Navlar	Zararlangan o‘simliklarning soni, %	Kasallanish darajasi

	umumiy holatda, %	kuchli holatda, %	
S-6524	64,0	11,7	0,86
Sulton	62,9	6,9	0,89
Buxoro-6	42,9	1,3	0,53
Buxoro-102	46,4	3,4	0,63
Andijan-36	23,0	0,0	0,25
SP-7702	20,6	1,3	0,24
SP-7703	12,7	0,0	0,13
EKF0,5	9,60	2,3	0,16

Vertitsillium zamburug‘i bilan kasallanishni ball shkalasida baholash, o‘rganiladigan navlar, shakllar va duragaylarni ushbu kasallik bilan kasallanish darajasini A.Shami formulasi bilan aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu usul orqali g‘o‘za o‘simliklarini vertitsillyoz vilt bilan kasallanish darajasini xolis aniqlash mumkin. Kasallanish darajasi ko‘rsatkichlari past bo‘lganligi o‘rganilgan o‘simliklarni vertitsillyoz viltga bardoshliligi yuqori bo‘lganligini aks ettiradi. Tajribalarimizda keltirilgan ma’lumotlardan eng yuqori kasallanish darajasi S-6524 va Sulton navlarida (0,86-0,89) kuzatilganligini ko‘rish mumkin. Buxoro-6 va Buxoro-102 navlarining kasallanish ko‘rsatkichlari S-6524 va Sulton navlariga nisbatan ancha ishonarli past bo‘lganligi aniqlandi. Eng past kasallanish darajasi ko‘rsatkichlari Andijan-36, SP-7702 va SP-7703 navlarida qayd etilib, 0,13– 0,25 oralig‘ida bo‘ldi. Ushbu belgi ko‘rsatkichlari asosida Andijan-36, SP-7702 va SP-7703 navlarini vertitsillyoz viltga bardoshli deb baho berish mumkin.

2-jadvalda g‘o‘za tizmalar va duragay o‘simliklarining Verticillium dahliae Kleb bilan tabiiy infeksion dala fonida kasallanishi bo‘ycha ma’lumotlar keltirilgan.

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan tizmalarni 15.08 zararlangan o‘simliklarning soni umumiy holatda 21,8-23,9 % ni tashkil etganligi va kuchli holatda zararlangan o‘simliklar kuzatilmaganligi aniqlandi. Duragaylarda 15.08 zararlangan o‘simliklarning soni umumiy holatda 21,2-29,3% bo‘lib, retsiprok ta’siri namoyen bo‘ldi.

F_1T-40 x T-41 duragay kombinatsiyasida umumiy holatda zararlangan o‘simliklarning soni retsiprok kombinatsiyasiga nisbatan past bo‘lgani aniqlandi. Kuchli holatda zararlangan o‘simliklar kuzatilmadi.

1.09 da o‘tkazilgan kuzatuv ma’lumotlaridan T-41 tizmada umumiy holatda zararlangan o‘simliklarning soni T-40 tizmaga nisbatan ancha yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Duragay o‘simliklarida 1.08 kuzatuv holati namoyon bo‘ldi. T-41 tizma onalik sifatida olingan duragay 10,5% o‘simliklari umumiy holatda zararlanganligi kuzatildi.

2-jadval

G‘o‘za tizmalari va duragay o‘simliklarining Verticillium dahliae Kleb bilan tabiiy infeksion dala fonida kassalanishi.

Tizma va duragaylar	15.08 zararlangan o‘simliklarning soni, %.	1.09 zararlangan o‘simliklarning soni, %.	15.09 zararlangan o‘simliklarning soni, %.

	umumiy holatda, %	kuchli holatda, %.	umumiy holatda, %	kuchli holatda, %.	umumiy holatda, %	kuchli holatda, %.
T-40	23,9	0	36,4	0	43,3	4,2
T-41	21,8	0	45,0	0	55,6	4,1
F_1T-41x T-40	29,3	0	41,0	0	51,4 hp = -0,31	4,3 hp = -3,0
F_1T-40 x T-41	21,2	0	30,5	0	33,8 hp = 2,54	2,3 hp = 37,0
EKF 0,5	5,1		10,7		8,9	0,67
F0,5 =3,49	Ff =5,0		Ff =3,6		Ff =11,0	Ff =19,9

15.09 da o‘tkazilgan kuzatuv natijasida o‘rganilgan tizma va duragaylarda kuchli holatda zararlangan o‘simliklar bo‘lganligi aniqlandi. Tizmalarda 15.09zararlangan o‘simliklarning soni 4,1-4,2 % ni, duragaylarda esa 2,3-4,3 % ni tashkil etdi. Kuchli holatda zararlangan o‘simliklarni soni F_1T-40 x T-41 duragay kombinatsiyasida kuzatildi. F_1T-41x T-40 duragay kombinatsiyasida kuchli holatda zararlanganligi bo‘yicha salbiy geterozis (-3,0) retsiprok kombinatsiyasida esa ijobiy geterozis (37,0) dominantlik holatlari namoyon bo‘ldi. Tizmalarda 15.09 zararlangan o‘simliklarning soni umumiy holatda 43,3-55,6 % ni tashkil etib, T-41 tizma ko‘proq kasallanganligi aniqlandi. F_1T-41x T-40 duragay kombinatsiyasidaumumiy holatda kasallangan o‘simliklarning soni 51,4 % bo‘lib retsiprok kombinatsiyasiga nisbatan 17,6 % ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. F_1T-41xT-40 duragay kombinatsiyasida umumiy holatda zararlanganligi bo‘yicha salbiy o‘rtacha (-0,31) T-40 tizma onalik sifatida olingan duragay kombinatsiyasida esa ijobiy geterozis (2,54) dominantlik holatlari namoyon bo‘ldi.

XULOSA

Olingan ma’lumotlarning tahlillari asosida shuni xulasa qilish mumkin, tajribaga jalb qilingan tizmalar va duragaylarning Verticillium dahliae Kleb ga bardoshlik darajasi har xil bo‘lganligi aniqlandi. T-40 tizmasi va ushbu tizma onalik sifatida olingan duragay kombinatsiyasi Verticillium dahliae Kleb ga bardoshligi yuqori bo‘lganligi kuzatildi. T-40 tizmani V. dahliae Kleb kasalligiga yuqori bardoshli navlarni yaratishda boshlang‘ich ashyo sifatida jalb qilish tavsiya etiladi. Tajribaga jalb qilingan navlarni V.dahliae zamburug‘ini izolyatlariga bardoshlilik darajasi turli navlarda har xil bo‘lganligi, umumiy holatda zararlanishiga navlarning genotipi va izolyatlarning ta’siri deyarli bir miqdorda bo‘lganligi, kuchli holatda zararlanishiga navlarning genotipining ta’siri ko‘proq ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Egamberdiyeva S.A. Nasledovaniye viltoustoychivosti u gibridov poluchennix s uchastiyem introgressivnix form. G‘o‘za, beda seleksiyasi va urug‘chiligini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari, resp. ilm.-amal. anjumani to‘pl., №30, FAN, Toshket, 2010, b. 231-238.
2. Xolmurodova G.R., Namazov Sh.E., Boboyev S., Jumayeva G. Konvergent duragaylarida tezpisharlik va viltga bardoshlik belgilarining o‘zaro korrelyatsiyasi.Jahon andozalariga mos g‘o‘za va beda navlarini yaratish istikbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. №31–Toshkent: “TURON-IQBOL” Toshkent, 2011. B.185-187.
3. Сидиков А.Р. Ғўзанинг туричи дурагайларида оқ палак касаллигига чидамлик хусусиятининг ирсийланиши. Материалы научно-практическойконференции «Состояние селекции и семеноводства хлопчатника и перспективы ее развития». Ташкент, 2006,с.143-146.
4. Сайдалиев Х., Халикова М., Мамарахимов Б. Вилтоустойчивость межвидовых гибридов хлопчатника. Достижения генетики и селекции в области скороспелости и устойчивости сельскохозяйственных растений к биотическим и абиотическим факторам среды. Респ. илм. амал. анж. матер., Тошент, 2011, б.142-144.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - Колос, 1979. – 416 С.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNI QO'LLASHNING TA'LIMIY NATIJALARI

O‘rinboyev Muxammadzoxir Iqboljon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti, Fizika va texnologik ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, Andijon shahar Do‘stlik ko‘chasi 4-uy, E-mail: muhammadzohirorinboyev20@gmail.com

Kirish. Metakognitiv jarayonlar va fizika fanini o'qitish o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini chuqurroq tushunishga va samarali boshqarishga yordam beruvchi innovatsion yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini oshiradi, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quvchilarning ta'limiy natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Metakognitsiya o'quvchilarning o'z bilimlarini monitoring qilish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

Metakognitsiya – bu shaxsning o'z bilim jarayonlari haqida bilishi va ushbu jarayonlarni nazorat qilish qobiliyati. Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini monitoring qilish, o'zlashtirish darajasini baholash va o'rganish usullarini takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu strategiyalar ikki asosiy komponentni o'z ichiga oladi: metakognitiv bilim va metakognitiv monitoring[1].

Metakognitiv strategiyalarni fizika fanida qo'llash:

Metakognitiv bilim o'quvchilarning qanday o'rganish usullari samarali ekanligini bilishini anglatadi. Bu bilimlar o'quvchilarga o'rganish jarayonini rejalashtirish va nazorat qilishda yordam beradi. Masalan, fizika darsida o'quvchilar qanday usullar yordamida nazariy bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish mumkinligini o'rganadilar. Metakognitiv monitoring o'quvchining o'z bilimlarini baholash va nazorat qilish jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon o'quvchilarga o'rganish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganida o'z strategiyalarini o'zgartirish imkonini beradi. Masalan, fizika fanida o'quvchilar o'z bilimlarini testlar yoki amaliy masalalar yordamida sinab ko'rish orqali baholaydilar[2,3].

Amaliy mashg'ulotlar:

Fizika fanini o'qitishda metakognitiv strategiyalarni qo'llashning bir necha asosiy usullari mavjud. O'quvchilar uyda nazariy materiallarni mustaqil ravishda o'rganadilar. Bu jarayon ularning metakognitiv bilimlarini rivojlantiradi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini oshiradi. Masalan, "Energiyaning saqlanish qonuni" mavzusida o'quvchilar YouTube yoki boshqa ta'lim platformalaridan video darslarni tomosha qilib, nazariy bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtiradilar. Dars vaqtida o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari orqali mustahkamlaydi. Bu jarayon o'quvchilarning metakognitiv monitoring ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, "Energiyaning saqlanish qonuni" mavzusida o'quvchilar turli energiya turlarini o'rganish va ularga bog'liq masalalarni yechishda amaliy tajribalar o'tkazadi[4].

O'quvchilar o'z bilimlarini monitoring qiladi va o'zlashtirish darajasini baholaydi. Bu jarayon o'quvchilarga o'z bilimlari ustidan nazoratni qo'lga kiritishiga va o'rganish jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilar har bir darsdan

so'ng o'z bilimlarini test savollari yoki amaliy masalalar yordamida sinab ko'radi va natijalarini baholaydi. Bu jarayon o'quvchilarning o'z bilimlari ustidan nazoratni qo'lga kiritishiga va o'rganish jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi[5].

Ta'limiy natijalar:

Metakognitiv strategiyalarni qo'llash o'quvchilarning ta'limiy natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. O'quvchilar o'z o'rganish jarayonida faol bo'lishga intiladi va darsda faol ishtirok etadi. Bu esa ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Nazariy bilimlar amaliyotda mustahkamlanadi. O'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlaydi va bu bilimlar uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi. Bu jarayon o'quvchilarning fizika fani bo'yicha bilimlarini chuqurlashtiradi. Metakognitiv jarayonlar o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar o'zlarini o'qitish jarayonida samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda ularning bilim olish jarayonini davom ettirishga yordam beradi.

Xulosa

Metakognitiv strategiyalarni fizika fanini o'qitishda qo'llash, o'quvchilarning ta'limiy natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu strategiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlashga, o'z-o'zini monitoring qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kelajakda metakognitiv strategiyalarni boshqa fanlarga qo'llash va ularning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu yondashuvni takomillashtirish uchun yangi texnologiyalar va metodlarni kiritish zarur.

Adabiyotlar

1. Flavell, J. H "Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry." American Psychologist, 34(10), 906-911.

2. Schraw, G., & Moshman, D. "Metacognitive Theories." Educational Psychology Review, 7(4), 351-371.

3. Zohar, A., & Ben David, A. "Explicit Teaching of Metastrategic Knowledge in Authentic Classroom Situations." Metacognition and Learning, 3(1), 59-82.

4. YA Mamatoxunov, QM Abduvaliyev Prospects for the use of" swot analysis" in the development of creative abilities of students of physics in secondary educational institutions. Interniotsional Cientific reaserch jurnal 2022/7/7 tom 3 H 2776-0979 C 339

5.White, B. Y., & Frederiksen, J. R. "Inquiry, Modeling, and Metacognition: Making Science Accessible to All Students." Cognition and Instruction, 16(1), 3-118.

СПЕЦИФИКА И МЕТОДИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ В ОБРАЗОВАНИИ

Рахманова Макаддас Кахрамоновна
Профессор кафедры общей педагогики Чирчикского государственного педагогического университета,
доктор педагогических наук
Норматова Замира Аминжоновна
Научный сотрудник кафедры общей педагогики педагогического факультета Чирчикского государственного педагогического университета

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonini tashkil etish, inson faoliyati hamda intellektual kapitalini boshqarish haqidagi ilmiy bilimlarning holatini o'rganib, maqsadli jarayon, uning funksional ahamiyati, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari tizimini o'z ichiga olgan modelni shakllantirish xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, kapital, ining ilmiy bilim, bilish, funksional ahamiyat, bo'lajak o'qituvchi, modellashtirish, metodologik, gneseologik, tushuntirish, integrativ, transformatsion va imitativ funksiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние научных знаний об организации образовательного процесса, управлении человеческой деятельностью и интеллектуальным капиталом, а также говорится о формировании модели, включающей целевой процесс, его функциональное значение, а также систему профессионального обучения. компетенции будущего учителя.

Ключевые слова: Образование, капитал, научное знание, познание, функциональная значимость, будущий учитель, моделирование, методологическая, гносеологическая, объяснительная, интегративная, преобразовательная и подражательная функции.

Abstract: This article examines the state of scientific knowledge about the organization of the educational process, the management of human activity and intellectual capital, and talks about the formation of a model that includes the target process, its functional significance, and the system of professional competencies of the future teacher.

Key words: Education, capital, scientific knowledge, cognition, functional significance, future teacher, modeling, methodological, epistemological, explanatory, integrative, transformational and imitative function.

Анализ содержания, структуры и процессов влияния образовательного процесса на принятие решений, связанных с управлением образовательным процессом, направлен на изменение качеств субъектов образования, относящихся к процессу взаимодействия и поддержки, т. е. влияние личности на организацию образовательного процесса В.В.Базарова, Т.А.Салимовы " планирование-организация – полагают, что управление будет состоять из выдачи

заданий подчиненным, анализа состояния коллектива, оценки работы подчиненных , принятия решений о вознаграждении и наказании и т.д. и контроля (сбора информации о процессе реализации намеченных планов).

В. В. Адамуров в вопросе “вооружения личностно-ориентированными образовательными технологиями на основе подготовки к проектированию многопрофильного учебно-познавательного процесса с учетом индивидуальных особенностей учащихся " [6] и предложенная модель Д.А. Кадыровым предполагает оценку развития профессиональной компетентности будущих учителей истории в 4 этапа.[10]

С их точки зрения, мы можем рассматривать модель как совокупность функций, выполняемых в определенной последовательности или параллельно, направленных на достижение определенной цели. Здесь стоит особо отметить, что взаимосвязь между системой управления и управляемыми образовательными субъектами также приобретает важное значение.

Научный анализ вышеуказанных исследований показал, что готовность студентов к будущей профессиональной деятельности рассматривается как управление человеческим капиталом, являющееся неотъемлемой чертой личности, и как цели процесса преподавания истории в педагогическом вузе. Как известно, совершенный человек-это человек, сформировавшийся на высоком уровне в соответствии с требованиями общества, успешно выполняющий свои обязанности в окружающем мире. Такое свойство, определяющее направление всей жизни человека и оставляющее след во многих других качествах, подчиняющее их своей природе, объединяющее в единое целое, можно выразить в понятии человеческого капитала. В любом целом всегда есть компоненты.

Изучая состояние научного знания о готовности к обучению, профессиональной и человеческой деятельности и другим видам капитала, исследуем целевой феномен “готовности”обучающихся к обучению по моделям и их функциональное значение в познании и рассматриваем его как систему профессиональных компетенций будущего педагога. Считаем, что готовность к математическому моделированию проецируется как целостная динамическая характеристика личности будущего специалиста, структурированная как средство познания материального мира с методологической, гнесеологической, объяснительной, интегративной, трансформационной и имитационной функциями моделей.

В модели исследования профессора Д.О.Гимматалиева на основе моделирования процессов обучения, разработанного в научной школе, мы получаем четыре компонента подготовки к профессиональной деятельности, которые включают в себя системные и целостные характеристики: содержательно-процессуальные; деятельностные; мотивационно-целевые; профессионально-ориентированные. Выбор этих составляющих в качестве личностных характеристик будущего педагога, анализ деятельности специалистов данного образовательного направления зависит от потребности в специалистах с развитыми творческими способностями как методической культуры в целом.

Таким образом, целенаправленно-процессуальный компонент (ядро) человеческого капитала характеризуется междисциплинарными знаниями, творческими умениями в решении задач. Учитывается способность моделировать и прогнозировать потоки реальных процессов, связанных с человеческим капиталом. Деятельностный компонент включает математическое моделирование сложных образовательных процессов, связанных с недостатком информации. Мотивационно-целевой компонент педагогическое моделирование изучаемой исторической информации предполагает разработку методов профессионального мышления и постановку личных целей в контексте знаний. Для него характерна способность соразмерно применять к профессиональной деятельности творческий процесс мышления, составляющий основу человеческого капитала.

При этом каждый компонент содержит взаимосвязанные свойства, описанные в определениях: 1) знает, владеет, моделирует, украшает, сравнивает, выбирает, формирует; 2) знает, находит; 3) стремится, интересуется, понимает, чувствует потребность; 4) осознает, понимает, убеждает.

Если каждый выбранный компонент рассматривается отдельно, возможность изучения, анализа, применения через него не дает достаточной картины без учета связей, которые более активно способствуют развитию человеческого капитала. Например, если учащийся обладает историческими знаниями и знает, что моделирование различных явлений процессов способствует изучению реальной действительности, то на этой основе он получает представление о природе реальных процессов, и он осознает необходимость овладения методами моделирования процессов действительности. Это также формирует навык прогнозирования будущей деятельности в данный момент. Таким образом, структура готовности учащихся к моделированию будущей деятельности на основе исторических знаний как аспект методического капитала будущих педагогов представленв в таблице 1.

Таблица 1

Структура готовности к моделированию процессов обучения в управлении человеческим капиталом

Компоне	Состав
Целевой процесс	Умение моделировать различные исторические реалии порождает закономерности изучаемого процесса на основе наглядно-эмпирических и информационно-виртуальных представлений, логистических подходов, закономерностей изучаемой действительности, выбора наиболее эффективных моделей решения задачи, переноса из абстрактной модели в реальный процесс и знания процессов моделирования.
Активный	Способен принимать решения по практическим вопросам, строить “виртуальную” модель реальных процессов, формулировать исторический процесс в логически формализованной схеме, находить новые свойства социального процесса, решать проблемы, связанные с управлением

Индивидуально ориентированный	Узбекистан понимает историю и закономерности исторического процесса, самостоятельно моделирует реалии реального и прошлого, предсказывает экстремальные и нестандартные ситуации, необходимые для эффективного творческого решения своих задач и управления человеческим капиталом, творчески мыслит, принимает самостоятельные решения.

Эти компоненты взаимосвязи управления человеческим капиталом как неотъемлемая черта личностно-профессиональной деятельности будущих педагогов объединяют различные уровни “подготовленности”, “базы знаний”.

Низкий уровень характеризуется недостаточным осознанием учащимися модельного характера действительности, значимости методов моделирования. Они могут объяснить проблему с помощью готовой модели, но сами затрудняют практическую задачу построением “виртуальной” модели реальных процессов.

Учащиеся, относящиеся к среднему уровню, интересуются методами моделирования исторических процессов, осознают профессиональную значимость этих методов, но сталкиваются с трудностями при выборе наиболее эффективной модели решения задачи из нескольких моделей, определении новых свойств процесса при изучении его модели.

Высокий уровень характеризуется готовностью учащихся к моделированию действительности, осознанием модельного характера окружающей действительности. Модель оценивается не только по предоставлению новых знаний об изучаемом объекте или явлении, но и по владению закономерностями процесса изучения и имеющимися знаниями об этой системе, по логичности исторических хронологий и умениям гармонизировать историю с будущей деятельностью. При этом предполагается, что он предвидит экстремальные и нестандартные ситуации, требующие от него готовности к эффективному творческому решению своих задач, моделированию этих ситуаций и умения принимать творческие, самостоятельные решения.

Выбранные степени позволяют спроектировать процесс их поэтапного формирования при преподавании предмета. Индивидуальный подход к управлению человеческим капиталом предполагает систематизацию цели образовательного процесса, дальнейшее совершенствование знаний и умений, необходимых для решения задач на основе интеграции естественнонаучных, общепрофессиональных и специальных дисциплин.

При применении моделирования к процессу обучения целесообразно различать шесть подходов:

1)эпистемологический подход (модель – благодаря особым свойствам, возникающим на основе теории подобия – воплощается как объект в процессе познания оригинала);

2)экспериментальная (замена реального объекта моделью в учебно-научном эксперименте);

3)модельно-информационная (информация – материальная основа обучения, в процессе обучения эта основа подвергается обработке, передаче, количественной оценке);

4)дидактические (на основе соответствующих количественных и качественных характеристик дается аналитическое или графическое описание той или иной части процесса подготовки специалиста средствами модели);

5)общеметодологические (все большее значение приобретает связь между специальными естественно-техническими проблемами и философией);

6) социально-психологический (подход к живой природе на основе видения ее как большой системы. Этот аспект выражает в себе моделирование личности обучающегося, а отсюда - моделирование обучающихся как конкретных производственных групп.

Используя вышесказанное, мы разработали методическую модель управления человеческим капиталом. Методическая модель позволяет обосновать структурно-функциональные аспекты построения терминологического аппарата и методологических подходов. Функциональный аспект предлагаемой нами методической модели обеспечивается тем, что структура модели состоит из пяти основных компонентов, каждый из компонентов в ней выполняет определенные задачи. Структурная-определяет компонентный состав структурной модели.

Данная модель является необходимой базой знаний в образовательном процессе, шаблоном, обеспечивающим успешное решение возникающих проблемных ситуаций, моделирование действительности направлено на формирование умений и навыков, обеспечение организационно-педагогических условий подготовки к профессиональной деятельности, контроль за образованием, управление человеческим капиталом в целом.

Целевые, содержательные, организационно-процессуальные, диагностические и результативные компоненты методической модели обеспечивают последовательное развитие взаимосвязанной и информационно-коммуникативной компетентности и, как следствие, развитие личностных качеств прогнозируемого педагога. В целевом компоненте на основе социального спроса направлено обеспечение готовности будущих учителей к выполнению своих профессиональных обязанностей, изложенных в квалификационных требованиях к направлению образования, выполнению задач, определенных Законом Республики Узбекистан “Об образовании”, концепциями модернизации высшего образования, определены педагогико-организационные условия, выбраны формы, средства и методы обучения. В технологически-процессной составляющей реализуется структурная структура управления человеческим капиталом, процесс от контроля образовательных результатов до коррекции содержания образования. В диагностическом компоненте разрабатываются этапы, критерии оценки и уровни проведенного тестирования педагогического опыта.

Основным компонентом управления человеческим капиталом является комплекс дидактических средств, способствующих развитию познавательных способностей и непосредственному формированию навыков будущих педагогов,

а также способствующих широкому применению приобретенных знаний. Выбор дидактических средств в этом процессе осуществляется в зависимости от целей, методов, содержания обучения, особенностей изучаемого учебного материала и материально-технического оснащения учебного процесса.

Целевой, содержательный, процессный, диагностический и результирующий компоненты взаимосвязаны, их последовательное или параллельное ведение обеспечивает развитие личностных и профессиональных компетенций высокого уровня. В содержательной составляющей через задачи, принципы, подходы ставится цель довести научный капитал студента на каждом этапе до этапов его обеспечения, а также нормативных требований.

Подводя итог, можно сказать, что дидактическими средствами обучения служат средства, обеспечивающие капитал обучающихся их знаниям, входящие в состав сенсомоторных стимулов, воздействующих на органы чувств и способствующих прямому и косвенному познанию мира. Средства обучения отражаются с учетом общих закономерностей дидактики, степени готовности обучающихся к восприятию информации, относящейся к учебным предметам, направлениям их будущей профессиональной деятельности.

Список использованной литературы:

1. Амстронг, М. Практика управления человеческими ресурсами /м. Amstrong. - СПб.,: Питер, 2004. — 825 С.

2. Багов, В.Р. Управление интеллектуальным капиталом: учебное пособие / В.Р. Багов, Е.Д. Селезнев, Б.С. Ступаков. - М.: Кэмерон, 2006. - 248 С.

3. Бовин, А.А. Управление инновациями в организациях: учебное пособие / А.А. Бовин, Л.Й. Чередникова, В.А. Якимовича. — М.: Омега-Л., 2009. -220 С.

4. Черненко И.М. Стратегическое управление человеческим капиталом промышленного предприятия: Дис. ... канд. ЭК. наук. Екат., 2014. – 241 С.

5. Горелов, Н.А. Антикризисное управление человеческими ресурсами / Н.А. Горелова. - СПб.,: Питер, 2010. – 429 С.

6. Адамуров Б. В. Система развития навыков проектирования образовательного процесса у будущих педагогов на основе акмеологического подхода: пед. наука. док. (DSc) diss. Автореф.-Т.:,2018. -Б.15.

7. Нуреев, Р.М. Развитие человеческого капитала как реальная альтернатива сиревой специализации страны / Р.М. Нуреев / / экономический вестник Ростовского государственного университета. – 2007. - Том 5. №3. – С. 111-129.

8. Одегов, Ю.Г. Чем управление человеческими ресурсами принципиально отличается от управления персоналом? / Ю.G. Одегов / / Вестник Омского Университета. Серия»Экономика". – 2018. – № 1 (61). – С. 106-114.

9. Плячкайтене, И.М. Становление и развитие теории человеческого капитала / / молодой ученый. — 2011. — №7. Т.1. — С. 102-104.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA QISSA POETIKASI

Suleymanova Sevara Abdumalikovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakultetei o‘qituvchisi

Annotatsiya: Qissa janrida doimo ruhiyat bilan bog‘liq muammolar bo‘lishini e’tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o‘rganilishi biz olib borayotgan tadqiqotning o‘lchovlariga unchalik to‘g‘ri kelmasligi aniq.

Kalit so‘zlar: Qissa.janr,ruhiyat,nazariya,nasr,adabityotshunoslik,poetika

Qissa janrida doimo ruhiyat bilan bog‘liq muammolar bo‘lishini e’tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o‘rganilishi biz olib borayotgan tadqiqotning o‘lchovlariga unchalik to‘g‘ri kelmasligi aniq. Chunki XX asrning 20- yillaridan boshlangan sinfiylik va konfliktsizlik nazariyasi, ikkinchidan, sho‘ro siyosatining tutumlari masalaga teran kirib borish imkonini chegaralab qo‘ygandi. 60-yillardan keyingina erkinlik shabadalari (unda ham to‘laqonli tamoyil emas!) muammoga aynanlik nuqtai nazaridan borishga imkon bera boshladi. Unda ham sobiq ittifoq hududlarida yashab ijod qilgan, temir qonuniyat negizidan tashqariga unchalik erkin chiqa olmagan yozuvchilar ko‘pincha urush va uning salbiy oqibatlarini yuzaga chiqarishning uddasidan chiqa oldi xolos! Ch.Aytmatovning “Jamila”, O.Yoqubovning “Muqaddas”, P.Qodirovning “Erk”, “Qadrim”, O‘.Umarbekovning “Sevgim, sevgilim”, Sh.Xolmirzayevning “To‘lqinlar”, O‘.Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” kabi o‘nlab qissalarda o‘sha davrning odamlari ruhiyatidagi katta-kichik evrilishlar, o‘zlikni tanish, oila va shaxslararo munosabatlar talqini shular jumlasidandir. 70-yillardan keyingi M.M.Do‘st, E.A’zam, A.A’zam, A.Dilmurod kabi yozuvchilar uslubida tamomila boshqacha obrazlar sistemasi talqini yuzaga kela boshladi. Nihoyat 90-yillardan keyin badiiy adabiyotda shaxsning o‘zini tasvirlash, o‘zining muammolarini turli usul va yo‘sinlarda namoyish qilish tradisiyasi o‘lchov tig‘izligini ranginlashtirdi. Bularning ko‘pchiligi yangi odam obrazini ruhiy talqin qilish masalasiga sho‘ng‘ib ketishi kuzatiladi. Demak, muammoga turli davrlar dunyoqarashi, amaldagi kuchlar taqdimnomasidek baholash ishonchni oqlashi tayin.

Lekin baribir, qissa janrining dominantligi hisobiga qissa bo‘lib qolaveradi”[1]. Binobarin, qissaning epik tur orasidagi ifoda shakllari o‘z mohiyatiga ko‘ra davrning ehtiyoji sabab o‘zgarishga mahkumligi bilan ham ajralib turadi. Boshqacha aytganda, bitta qahramon atrofida birlashayotgan voqelik yozuvchi ijodiy konsepsiyasi hosilasidir.

Unda bir-birini to‘ldiruvchi kategoriyalar o‘z ifodasini topishi muhim: “Povest janriga mansub bo‘lgan asarlarda qamrab olingan davrdan qat’i nazar bosh qahramon hayotida mavjud bo‘lgan barcha voqealarning batafsil tasvirlanishi shart emas. Yozuvchi o‘sha voqealarning eng asosiylarini tanlab oladi, qaysiki bosh qahramonning xarakterini ochishga qulay kelgan, asar g‘oyasini ochishga xizmat qiladigan

[1] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/marhabo-qochqorova-xurshid-dostmuhammad-qissachiligida-metafora-va-timsolli-ishoralar/

voqealarnigina kengroq tasvirlaydi”[2]. Haqiqatdan ham, povestda poetik qonuniyat qisadagi singari murakkab va olamshumul masalalarni idroklashga keng imkon bermaydi. Yozuvchi muayyan voqelik fonida harakatlanadi. Davrning og‘riqlari va muammolari ma’lum bir sinfiy takomilda ayonlasha boradi. Qissada – vaqt nisbatan chegaralansa-da, qahramonning botiniy olamidagi evrilishlar asosan inson konsepsiyasi negizida talqin etiladi. U davrni ham, zamonni ham, makonni ham, tarixiy aspektdagi rolini ham maromiga bo‘ysundiradi, natijada, davrning manzarasi haqqoniy qiyofada o‘quvchi ko‘zi o‘ngida qayta jonlanadi. Dos.M.Boboxonov masalaga quyidagi rakursdan turib baho berishni ma’qul ko‘raganligida masala mohiyatiga yaqinlashish kuzatiladi. Muallif yozishicha: “Zamonaviy adabiyotshunoslikda muammo markaziga hazrati insonni qo‘yib gavdalantirish (antroposentrizm) an’anasi strukturalizmdan qolgan meros sifatida “gereosentrizm” tendensiyasiga, shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoniga diqqatning kuchayishiga bo‘shatib berdi. Bugungi kunda insonni adabiy asar qahramoni sifatida o‘rganish turli yo‘nalishlar: ma’naviy-falsafiy muammolarning badiiy talqini, janr, kompozisiya, mavzu kabi kategoriyalar darajasida amalga oshirilmoqda”[3]. Binobarin, psixologik talqin birgina qahramon olamida emas, yozuvchi ruhiyatidan o‘sib chiqqan iztirob alangasidir. U qissa syujetida ishtirok etayotgan barcha qahramonlar tabiatida – muvozanat birligini taqozolashga imkon beradi. Agar bordi-yu, bosh qahramon atrofida uyushgan tasvir metodologiyasiga zo‘r zalvorli muammo yuksalanaversa, voqelik o‘z-o‘zidan sochilib ketishi tayin. Ayniqsa, ishq haqida bitilgan qissalarda yozuvchilar qaysi tomonga muhabbat qo‘yishi dinamik o‘sishda ochiq-oshkor seziladi. Bu emotsiya asta-sekinlik bilan qahramonda rivojlanib, o‘quvchi ko‘ngliga kirib olishi tayin. Demak, yozuvchi – davrning manzarasini, qahramonning ruhiyatini. Voqelik oqimini bir maxrajda jilvalantirmasa, ijodiy maqsad konseptual maydonga aylanmaydi. Aniqlikdan – noaniqlik kelib chiqishi tayin. Murakkab tasvir shtrixlarida bular ro‘y-rost ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lishi hech gap emas.

“Adabiyot tarixidan ma’lumki, har qanday adabiy usuldagi yangilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi: adabiyotdagi yangi oqimlar, an’analar o‘z dvrining estetik, ijtimoiy, g‘oyaviy, mafkuraviy, tafakkur ehtiyoji, in’ikosi sifatida so‘z san’atida bo‘y ko‘rsatadi. Qadimgi davrda adabiyot yoki keyingi yuz yillik adabiyotmi, qaysi davr adabiyoti bo‘lishidan qat’i nazar, yangi bir oqimlar, so‘zga munosabat, shakliy va badiiy izlanishlar aslida o‘sha jamiyatda paydo bo‘layotgan ijtimoiy fikr va ijtimoiy ong ostining ehtiyojini namoyon qiladi”.[4] Anglashiladiki, tarixiy-ijtimoiy jarayonning o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmasligi mumkin. Unda davrning qiyofasi aks etadi. Davr esa odamlarning faol ijtimoiy yashash turmushining haqiqiy manzarasida ko‘zga tashlanadi.

Shunday ekan, L.Bo‘rixon bir vaqtning o‘zida ikki tomonga ham o‘z munosabatini simpatiya, antipatiyasini bildirib boradi. Jamiyatning boshlab bergan soxta va nurli yo‘llarining aslida puch orzu ekanligini ishongan olomonning haqiqiy ruhiy-ijtimoiy yashash ko‘nikmalari. Ikkinchisi, mafkuraning o‘ta uzoqni ko‘zlab,

---

[2] Аброров.А. Ўзбек повести. – Т: Фан, 1973. – Б. 9.
[3] Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадиий психологизм. Монография. –Т: “Баёз. 2014. –Б.15.
[4] Лучанов М.Ф.История мировой литературы. – Омск, 2004.

bo‘ysundirib yashashga odatlantirilgan geosiyosiy xunrezliklarining asl qiyofasini fosh qilish mexnizmining talqini.

Shunday ekan, yozuvchi L.Bo‘rixonning “Sirli muallim” qissasining yozilganiga yigirma yillar bo‘ldi. Unda yozuvchi “Jaziramadagi odamlar” romandiga bosh qahramon O‘roq Umurzoqovning qahramonlarcha halok bo‘gan urush va uning qishloq hayoti, ahli uchun nihoyatda ayanchli ta’siri gavdalantiriladi.

ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR

1. Аброров.А. Ўзбек повести. – Т: Фан, 1973. – Б. 9.

2 Арасту. Поэтика. –Т: “Янги аср авлоди”. 2018. –Б.34.

3. Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадиий психологизм. Монография. –Т: “Баёз. 2014. –Б.15.

4. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. –Л.Советский писател, 1971. –С.300.

5. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. Книга для учителя. –М. Просвещение. 1988. –С.18-19.

6. Лучанов М.Ф.История мировой литературы. – Омск, 2004.

7. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол.ан.док.дисс. –Т.: 2020. –Б.15.

8.Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадиий психологизм. Монография. –Т: “Баёз. 2014. –Б.9.

PSIXOLOGIYADA EMPATIYA TUSHUNCHASI

G'aybullayeva Zilola Xushnud qizi
Psi-23/2 –guruh talabasi
Ho'sinova Saodatjon Umirbek qizi
Psi-23/2 –guruh talabasi
Ilmiy malhatchi: Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlik davriga xos bo‘lgan xususiyatlar hamda empatiya atamasining ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, empatiya - bu aqlni vazminlik bilan o‘qiy oladigan, biroq boshqa odamning hissiy holatini bevosita birinchi shaxsdan tushuna oladigan telepati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Empatiya, o‘smirlik davri, kognitiv komponent, emotsional komponent, tuyg‘ular.

Hozirgi davr kishisi dunyoda ongli yashash uchun o‘zining qiymat-semantik makonini aniqlash uchun o‘zini insoniy qadriyatlar olamiga singdirishga majburdir. Ushbu singdirish hissiy kechinmalarninig to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Va shunda umuminsoniy qadriyatlar insonning mavjud hayotiy munosabatlarida harakat qilish uchun qabul qilinadi, unga haqiqatga nisbatan nuqtai nazarni o‘rnatishga harakat qiladi. Rahmdillikka moyillik hissiyemotsional tajribani yaxshilash, empatiya, empatik xulq-atvorni shakllantirish uchun ichki zaxiralarni ochishga imkon beradi.

O‘zaro ta'sirning natijaviy apparati sifatida empatiya hayvonlar jamiyatini tark etganidan beri odamlar tomonidan qo‘llaniladi. Guruhlarga birlashgan odamlarning asl uyushmalarining omon qolishi uchun yordam berish, atrofdagi odamlar bilan til topishish va atrof-muhitga moslashish san'ati zarur bo‘ldi.

Empatiya - bu zamonaviy psixologiyaning o‘ziga xos turi bo‘lib, u odamning o‘zini boshqa shaxs o‘rnida tasavvur qilish, boshqa birovning his-tuyg‘ulari, istaklari, g‘oyalari va harakatlarini refleks darajasida amalga oshirish, boshqalarga yaxshi munosabatda bo‘lish qobiliyatini anglatadi. unga o‘xshash his-tuyg‘ularni his qilish, uni o‘z vaqtida hissiy holatini anglash va tan olishdir. Suhbatdoshga nisbatan empatiyani ifodalash, uning nuqtai nazaridan vaziyatni ko‘rish, uning hissiy holatini “tinglash” qobiliyatiga ega bo‘lishini anglatadi.

O‘zga insonlarning tashvishlari, his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ularini o‘z shaxsiy his-tuyg‘ulari nuqtai nazaridan tushuna oladigan va qabul qila oladigan shaxs empat deb ataladi.

Aytish mumkinki, empatiya - bu aqlni vazminlik bilan o‘qiy oladigan, biroq boshqa odamning hissiy holatini bevosita birinchi shaxsdan tushuna oladigan telepatdir. Shu sababli bu borada empatiya darajasi kuchli insonlarda agar ushbu fenomen tufayli ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini, qoida tariqasida, qarindoshlari va unga yaqin odamlarning his-tuyg‘ularidan farqlashni va tan olishni to‘xtatsalar, turli psixologik buzilishlar rivojlanadi.

Bundan tashqari, ba'zi hollarda, kimdir bilan o‘zini o‘zi identifikatsiya qilish jarayonida shaxsning shaxsiyati “cho‘kadi”, bu ruhiy tushkunlik manbai bo‘lib xizmat

qilishi mumkin va shaxsning bunday ikkilanishni hal qilishning - o‘z joniga qasd qilish kabi so‘nggi chorasiga o‘tish shakliga moyil bo‘ladi.

“Empatiya” atamasi psixologiyaga ichki dinamizmni ko‘rsatish uchun kiritilgan bo‘lib, uning natijasi o‘zga insonning holatini ongsiz ravishda anglab yetishdir. Empatiyaning zamonaviy formulalari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

• boshqa shaxsning fikr va his-tuyg‘ularining ichki holatini bilish va tushunish;

• ikkinchisi bo‘lgan hissiy holatlardagi “hissiyot”;

• Tasavvur yordamida boshqa odamning his-tuyg‘ularini qayta qurish faoliyati;

• Inson o‘zini boshqa odam o‘rnida qanday tutishi mumkinligi haqida fikr yuritish;

• Boshqa odamning azobiga javoban qayg‘u;

• boshqa shaxsga qaratilgan, shaxsning boshqasining baxti haqidagi tushunchasiga mos keladigan hissiy teskari aloqa va boshqalar.

Boshqachasiga aytganda, haqiqiy empatiya nafaqat yuqori hissiy qabul qilishni, balki yuqori darajadagi xabardorlikni ham o‘z ichiga oladi. Birinchi ikkita komponent asosida boshqasiga yordam berish uchun rag‘bat paydo bo‘ladi, bu esa bolani aniq harakatlarga undaydi. Natijada, empatiya darajasining oshishi quyidagilardan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin:

• Kognitiv komponent, bu muayyan vaziyatda boshqa odamning his-tuyg‘ularini tushunishni o‘z ichiga oladi.

• emotsional komponent empatiyadir.

• Boshqa odamning his-tuyg‘ulari va holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan harakatlarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar komponenti.

Shuni ta’kidlash kerakki, empatiya tushunchasini aniqlash uchun universal belgilar mavjud emas. Siz empatiyaning mohiyatini ochib beradigan ba’zi bir kumulyativ fazilatlarni aniqlashingiz mumkin.

Haqiqiy empatiya nafaqat boshqalarga nisbatan yuqori hissiy sezgirlikni o‘z ichiga oladi, balki boshqa odamlarni tushunishning yuqori qiymatini ham anglatadi. Hamdardlik va empatiyaga asoslanib, hissa qo‘shish uchun turtki mavjud, bu impuls turli xil harakatlarni rag‘batlantiradi.

Natijada, empatiya darajasining oshishi quyidagilardan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin:

• Kognitiv komponent, ma’lum bir vaziyatda boshqa odamning his-tuyg‘ularini tushunishni o‘z ichiga oladi.

• emotsional komponent empatiyadir.

• Boshqa odamning his-tuyg‘ulari va holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan harakatlarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar komponenti.

Bolaning axloqiy fazilatlarini tarbiyalash va rivojlantirish hissiy tarkibiy qismdan boshlanishi kerak, chunki hech qanday o‘zaro ta’sir va aloqa etarli darajada samarali bo‘lmaydi, chunki uning ishtirokchilari raqibning hissiy holatini taniy olmaydilar yoki ularni jilovlay olmaydilar. hissiyotlarning o‘ziga xos ko‘rinishlari.

O‘z sezgilari va his-tuyg‘ularini tushunish shaxsning shakllanishi va rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Garchi bu jarayon juda oddiy bo‘lib tuyulsa-da, bolaning his-tuyg‘ularini to‘g‘ri tanib olish va ularga yetkazish g‘oyat qiyin. Bu sohada ma’lum bilim va ma’lum darajadagi rivojlanishni talab qiladi.

Inson his-tuyg‘ulari qanchalik xilma-xilligini tushunsa, u boshqa odamning holatini yaxshiroq va to‘g‘ri tushuna oladi.

Tuyg‘ular o‘z vaziyatini yo‘qotadi va yanada chuqurroq mantiqiy tarkibga aylanadi, ular kutilgan ichki fikrlar yoki sharoitlarga javoban tug‘iladi. Yosh o‘quvchida hissiy bashorat shakllanadi, bu uni ishlashning mumkin bo‘lgan oqibatlari haqida tashvishlanishga, boshqa shaxslarning uning harakatlariga munosabatini kutishga majbur qiladi. Shuning uchun bolaning faoliyatida hissiyotlarning o‘rni sezilarli darajada o‘zgaradi.

Binobarin, boshlang‘ich maktab yoshidagi hissiy taraqqiyotning xususiyatlarini ta’kidlash mumkin, bolalar hissiyotlar tasvirining ijtimoiy modellarini o‘rganadilar; bolaning ishida his-tuyg‘ularning ma’nosi o‘zgaradi, hissiy bashorat rivojlanadi; his-tuyg‘ular birmuncha tushunarli, umumlashtirilgan, hushyor, erkin, vaziyatga bog‘liq emas: axloqiy, aqliy, estetik kabi yuksak his-tuyg‘ular rivojlanadi.

Xarakterning axloqiy xususiyatlari bilan tanishish bolaga yordam ko‘rsatadi, shu jumladan, shaxsning axloqiy va axloqsiz tomonlari haqida o‘ylashga, yaxshi va yomonni farqlashga, o‘rnak orqali kamsitishni his qilishga yordam beradi. Uyatchan bola dadil bo‘lishga, dushmanona kayfiyatdagi bola esa hamdard va mehribon bo‘lishga intiladi.

Kerakli vaziyatlarning shakllanishi, hissiy qulaylik holati shaxsiyatning rivojlanishi va shakllanish tadrijiga ta’sir ko‘rsatadi. Yetti yoshga kelib, ko‘pchilik bolalar tengdoshiga yordam berish, hech qanday sababsiz sovg‘a berish yoki janjalga berilish uchun oldindan aytib bo‘lmaydigan va beg‘araz istaklarga ega. Uning ishida xolis hissiy ishtirok etish, tengdoshning bola uchun nafaqat o‘zi bilan taqqoslash ob’ekti, balki qimmatli, yaxlit shaxs bo‘la boshlaganligini ko‘rsatishi mumkin. Taxmin qilish mumkinki, tengdoshlar bilan munosabatlardagi bu o‘zgarishlar kichik yoshdagi o‘quvchining o‘zini-o‘zi anglashi va o‘zini-o‘zi anglashidagi muayyan o‘zgarishlarni ifodalaydi. Shaxslarning hissiy holatiga yo‘naltirilganlik birlashgan qo‘shma ishning zaruriy talabi sifatida tushuniladi. Empatiya tuyg‘usini shakllantirish shaxsiyatni rivojlantirishning ajralmas qismini, shaxsga shaxslararo munosabatlar madaniyatini o‘rgatish, bolaning shaxsiy his-tuyg‘ularini va tashvishlarini boshqarish qobiliyatini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Birgalikda ishlashning o‘ziga xos xususiyati ta’lim faoliyatini yaratish imkoniyati bilan belgilanadi, u shaxsning hissiy holatlari va his-tuyg‘ularini tushunish, boshqa shaxsning fikrlarini tushunish va tan olish, qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish uchun impulsni kafolatlaydigan turli xil shaxslararo aloqalarni tashkil etish, shaxslararo munosabatlarni tashkil etish qobiliyatiga qaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Krayg, G. Psixologiya [Tekst] / G. Krayg. – SPb.: Piter, 2002. 992 s.
2. Juraev, D. Pedagogika va psixologiya[Tekst] / D. Juraev // Toshkent, 2015.

O‘SMIRLIK DAVRIDA EMPATIYANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Iriqulova Zuhra
Psi-24/2 –guruh talabasi
Ibodullayeva Elmira
Psi-24/2 –guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'smir bolalarda empatiya va qadriyat yo'nalishini rivojlantirish muammosi ko'rib chiqiladi. Empatiya darajalari, shuningdek, o'smirlarga xos bo'lgan qadriyatlar aniqlangan. O'smir bolalarda empatiyani rivojlantirish dasturi boshqa shaxsga nisbatan qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali taqdim etiladi.

Kalit so’zlar: Empatiya, o'smirlik, qadriyat yo'nalishlari.

Hozirgi vaqtda boshqa odamning his-tuyg'ularini, fikrlarini va munosabatlarini tushunish, uning ichki dunyosini adekvat idrok etish, semantik va hissiy nuanslarni saqlagan holda, baholash va qoralashsiz katta ahamiyatga ega. Birovning muammolariga empatiya va sezgir bo'lish qobiliyati shaxslararo munosabatlarni o'rnatish uchun zarur shartlardan biridir. Bugungi kunda shafqatsizlik, tajovuzkorlik va boshqa odamlarning tajribalariga hissiy jihatdan javob bera olmaydigan bolalar soni ortib bormoqda.

O'smirlik - tengdoshlarga nisbatan hamdardlik, dunyoqarash va dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishga yuqori sezgirlik davri bo'lib, unda qadriyatlar yo'nalishlari psixologik yangi shakllar sifatida ishlaydi. Boshqa odamning tajribasiga javob berish qobiliyati sifatida empatiya shaxsning shaxsiyati va uning qadriyatlari tuzilishi bilan bog'liq.

Aynan o'smirlik davrida qiziqishlarning ma'lum doirasi o'rnatila boshlaydi, ular asta-sekin ma'lum bir barqarorlikka ega bo'ladi. Qiziqishlarning bu doirasi o'smirning qadriyat yo'nalishlarining psixologik asosidir. Boshqa odamlarning psixologik tajribalariga va o'ziga bo'lgan qiziqish rivojlanadi.

Shunday qilib, o'smirlarning empatiyasi va qadriyat yo'nalishini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganishning dolzarbligi axloqiy qadriyatlar, hayotga qarash va boshqa odamlar bilan munosabatlardagi o'zgarishlarning intensivligi bilan belgilanadi.

Bizning ma'lumotlarimiz shuni ko'rsatadiki, sub'ektlarning 9,8 foizi empatiyaning yuqori darajasiga ega, bu odam boshqalarning ehtiyojlari va muammolariga sezgir, hissiy jihatdan sezgir, ochiqko'ngil, boshqalar bilan tezda aloqa o'rnatadi va umumiy til topadi. 74,5% normal (o'rtacha) darajani ko'rsatdi, bu esa bu odamlarning ayniqsa sezgir shaxslar emasligini ko'rsatadi. Shaxslararo munosabatlarda odamlar o'zlarining shaxsiy taassurotlariga ishonishdan ko'ra, boshqalarni xatti-harakatlariga qarab baholaydilar. 15,7% - past daraja, bu odam odamlar bilan aloqa o'rnatishda qiynalayotganini va katta kompaniyada o'zini noqulay his qilishini ko'rsatadi. Boshqalarning harakatlaridagi hissiy ko'rinishlar ba'zan bu o'smirlar uchun tushunarsiz

va ma'nosiz ko'rinadi. Hech bir mavzuda empatiyaning juda yuqori va juda past darajalari aniqlanmadi.

Shunday qilib, olingan natijalar o'smirlarning aksariyati asosan empatiyaning o'rtacha darajasida ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, o'smirlar kerakli vaqtda unga muhtoj bo'lgan odamga hamdardlik ko'rsatishga tayyor, lekin ayni paytda ular uning ahvoliga to'liq singib ketishga intilmaydilar.

Qadriyat yo'nalishlarini o'rganish olti shkala bo'yicha natijalarning tavsifini o'z ichiga oladi: bilish, boshqa qiymat, o'z-o'zini qadrlash, mas'uliyat. Qadriyat sifatidagi “idrok” shkalasida 51% yuqori darajaga ega bo‘lib, bunday o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan ehtiyoji katta ekanligidan dalolat beradi va bilish jarayoni ijobiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Mavzularning 39,2 foizida o'rtacha daraja aniqlandi, bu o'quvchilar o'rganishning muhimligini, umuman bilimni hayotdagi qadriyat sifatida tushunishlarini, ammo bu qiymatga nisbatan to'liq ongli ravishda o'zini o'zi belgilash sodir bo'lmaganligini ko'rsatadi. 9,8% past darajani ko'rsatdi, bu esa bilishga bo'lgan ehtiyoj minimal yoki deyarli yo'qligini ko'rsatadi.

"Boshqa qiymat" shkalasi bo'yicha sub'ektlarning 31,4 foizi yuqori darajaga ega, bu o'smirlarda boshqa shaxsning individualligini qadriyat sifatida qabul qilish rivojlanganligini tasdiqlaydi. 54,9% sub'ektlarda o'rtacha daraja aniqlandi, bu o'smirlarning boshqalarning individualligini qadriyat sifatida tan olishini va boshqa odamlarni hurmat qilishga harakat qilishini ko'rsatadi. 13,7% past darajani ko'rsatdi, bu boshqa shaxsni qadriyat va individuallik sifatida shakllanmagan idrokni, boshqalarga hurmatli munosabatni, ular bilan mehribon va konstruktiv muloqot qilish qobiliyatini ko'rsatadi.

"Men qadrlayman" shkalasi bo'yicha 39,2% sub'ektlar yuqori darajani ko'rsatdi, bu o'quvchining "men" ning shakllangan tuzilishini, o'ziga shaxs va individuallik sifatida hurmatli munosabatini ko'rsatadi. Fanlarning 60,8 foizi o‘rtacha darajaga ega, bu esa talabaning o‘zining “men”iga katta e’tibor qaratishini va o‘z-o‘zini idrok etishda ijobiy bo‘lishga harakat qilishini ko‘rsatadi. Hech kim "I-qiymati" shkalasi bo'yicha past darajaga ega bo'lmagan.

"Mas'uliyat" shkalasi bo'yicha sub'ektlarning 25,5 foizi yuqori darajani ko'rsatdi, bu o'smirlarda mas'uliyat ayniqsa muhim shaxsiy xususiyat sifatida rivojlanganligini, shuningdek, mas'uliyatni o'z-o'zini namoyon qiluvchi shaxsning asosiy tarkibiy qismi sifatida tan olishini ko'rsatadi. 68,6% sub'ektlarda o'rtacha daraja kuzatilgan, bu o'smirlar mas'uliyatning muhimligini shaxsiy sifat sifatida tan olishlarini va uni o'z harakatlarida ko'rsatishga intilishlarini ko'rsatadi. 5,9% past darajani ko'rsatdi, bu o'quvchilarning o'zi va hayotdagi xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishi zarurligini juda kam darajada yoki umuman bilmasligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, olingan ma'lumotlar ko'pchilik bolalar uchun boshqa qiymat, o'zini o'zi qadrlash va mas'uliyat o'rtacha darajada degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Qadriyatga yo'naltirilganlik - bolalarning yarmida bilish yuqori darajada.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz natijasida, boshqalarning ehtiyojlari va muammolariga sezgir bo'lgan o'smirlar hissiy jihatdan sezgir, hamdardlik bildiradi - ular boshqa birovning shaxsiyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi va boshqa shaxsning individualligini qadriyat sifatida qabul qiladilar. . Boshqalarning hissiy

kechinmalariga befarq bo'lgan o'smirlar - ularda boshqa shaxsni qadriyat va individuallik sifatida qabul qilish shakllanmagan.

Olingan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'smirlarda empatiya darajasini oshirish uchun tizimli, maqsadli ish kerak, bu ishning keyingi yo'nalishini belgilab berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'spirinlarda boshqa shaxsga qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali empatiyani rivojlantirishga qaratilgan tuzatish va rivojlanish dasturi ishlab chiqilgan. Vazifalar sifatida quyidagi ish bosqichlari belgilandi: o'smirlarda boshqa shaxs haqidagi g'oyalarni qadriyat sifatida shakllantirish; boshqa odamning his-tuyg'ulariga ongli munosabatni rivojlantirish; boshqa shaxsga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishga ko'maklashish; boshqa odamga hamdardlik va hamdardlik bildirish qobiliyatini yaxshilash.

Shunday qilib, bizning tadqiqotlarimiz quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon berdi:

1. Boshqa shaxsga qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali empatiyani rivojlantirish dasturining samaradorligi haqidagi taxmin eksperimental tarzda tasdiqlandi.

2. O‘smirlarda boshqa shaxsga nisbatan qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali empatiyani rivojlantirishga shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta’sirlarning tamoyillari, mexanizmlari, strategiyalari va taktikalariga asoslangan nazariy asoslangan nazariy va amaliy dastur yordam beradi.

3. Boshqa shaxsga nisbatan qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali o'smirlarda empatiyani rivojlantirishga guruh va juftlik topshiriqlari yordam beradi, ular turli faoliyatda birgalikda harakat qiladilar, ularning xatti-harakatlari boshqa guruh tomonidan qanday qabul qilinganligi haqida ma'lumot oladi; a'zolar va o'z tajribalarini tahlil qilish orqali o'zlari va imkoniyatlari haqida bilimlarni kengaytiradilar.

Adabiyotlar:

1. Krayg, G. Psixologiya [Tekst] / G. Krayg. – SPb.: Piter, 2002. 992 s.
2. Juraev, D. Pedagogika va psixologiya[Tekst] / D. Juraev // Toshkent, 2015.

JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING HAYOTIDA TIBBIY BILIMLARNING O’RNI

Akbarova D. R.
Teacher at Tashkent State pedagogical University
Abdurakmonov Sh. Y.
student, Tashkent State pedagogical University
Yoldoshev A.A.
student, Tashkent State pedagogical University

Аннотация. Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining hayotida tibbiy bilimlarning zarurligi va ahamiyati bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa talaba-yoshlarning bilimini tibbiy bilimlar bilan boyitishning bir nechta asosiy jihatlari va asoslari batafsil yoritilgan.

Annotation. The article provides information on the need and importance of medical knowledge in the life of physical education teachers. Several key aspects and fundamentals of enriching student-youth knowledge with medical knowledge in particular are covered in detail.

Калит сўзлар: жисмоний тарбия ўқитувчиси, тиббий билимлар, восита, шакл, метод, жароҳат, реабилитация, тиббий ёрдам, соғлиқни сақлаш, озиқланиш, стресс, мотивация.

Keywords: physical education teacher, medical knowledge, tool, form, method, injury, rehabilitation, medical care, health, nutrition, stress, motivation.

Sog’lom yurt ahli davlatni qudratli qiladi. Yoshlarimiz tibbiy madaniyati kun sayin ortib bormoqda, lekin shunga qaramay ba’zi talabalar va o’qituvchilar tibbiyot sohasiga oid bilimlari yetarlicha emasligiga guvohi bo’lamiz. Maqolada ko’zlangan maqsad shuki, jismoniy tarbiya va sport yo’nalishdagi mutaxassislarni orasida kasalliklarni kelib chiqish sabablari va ularning profilaktikasi, oqibatlari, kerak bo’lganda ularga tez tibbiy yordam xodimlari yetib kelguncha bo’lgan vaqtda yoki statsionargacha bo’lgan davrda zaruriy tibbiy yordam ko’rsata olishni, turli xil samarali texnologiyalar asosida pedagogik metodlar, vosita va shakllar orqali bilishi, shuningdek yetkazib berishi zarurligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining hayotida tibbiy bilimlar muhim ahamiyatga ega bo’lib, tibbiy bilimlar nafaqat o'qituvchining professional faoliyatini, balki ularning shaxsiy hayotiga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Quyida tibbiy bilimlarning jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun ahamiyatini ko'rsatadigan bir nechta asosiy jihatlar keltirilgan:

1. Sog'liqni saqlash: Jismoniy tarbiya o'qituvchilari talabalarining sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash uchun avvalombor, zarur bo'lgan tibbiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Bu bilimlar jarohatlarni oldini olish va to'g'ri reabilitatsiya qilishga xizmat qiladi.

2. Jismoniy faoliyat va sog'liq: Tibbiy bilimlar jismoniy faoliyatning inson organizmiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. O'qituvchilar sport mashg'ulotlari va jismoniy tarbiya darslarida sog'lom turmush tarzini targ‘ib qilishda bu bilimlardan foydalanishlari mumkin.

3. Dori-darmonlar va ularning ta'siri: O'qituvchilar sportchilar yoki talabalar tomonidan ishlatiladigan dori-darmonlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak, chunki bu sportchilarning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turli xil dorilar mavjud bo’lib, ularni bir-biridan farqlay olishi zarur.

4. Psixologik jihatlar: Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish inson psixologiyasiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. O'qituvchilar psixologik jihatlarni tushunish orqali talabalar bilan samarali muloqot qila oladilar.

5. Fiziologiya va anatomiya: Jismoniy mashqlarning asoslarini tushunish uchun muhim poydevor bo’lib xizmat qiladi. Bu o'qituvchilarga mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

6. Jarohatlar bilan ishlash: Tibbiyot bilimi jarohatlarga dastlabki yordam ko‘rsatish, ularni aniqlash va davolanish jarayonlarini tushunishga imkon beradi. Har bir sportchi mashg’ulot jarayonida travma olishi mumkin va birinchi yordam ko’rsata olishi kerak.

7. Oziqlanish: Sportchilar va jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar uchun to‘g‘ri oziqlanish muhimdir. O'qituvchilar ushbu sohada ham ma’lumotlarga ega bo'lishlari zarur.

Tibbiy bilim-inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va davolashdan iborat bo’lgan odamlarning ilmiy va amaliy faoliyati sohasi bo’lib xizmat qiladi [2].

Hayotda turli xil tasodifiy holatlar kuzatilishi mumkin, ayniqsa, jismoniy tarbiya o’qituvchilar o’rtasida, shuningdek, jismoniy tarbiya mutaxassislari va shug’ullanuvchilarda jiddiy ro’y beradigan kasalliklar kuzatilishi mumkin. Masalan, nafasi qisishi, yurak yetishmovchiligi yoki jarohat olgan bemorga қanday birlamchi yordam ko’rsatishni ko’pchilik bilmaydi. Bu holatlarda tibbiy bilimga ega bo’lmaslik, yordam ko’rsatishdan qo’rqish yoki noto’g’ri harakat qilish bemorlarda qator asoratlarga sabab bo’lishi mumkin.

Xarri Bennett - sport tibbiyoti va reabilitasiya sohasida ilmiy tadqiqotlari bilan tanilgan olim sport tibbiyoti va reabilitasiya sohasida ilmiy tadqiqotlari bilan tanilgan mutaxassis. Harri Bennett 1892-yilda Michigan shtatining Ann Arbor shahrida tug'ilgan. [3] Umumiy maktablarga o‘qishga kirdi. Bennett yoshligida boksda qatnasha boshladi va ba’zi shahar musobaqalarida g‘alaba qozondi. Birinchi jahon urushida AQSh harbiy-dengiz kuchlarida xizmat qilgan. U sport travmasi davolashi, reabilitasiya usullari va sportchilarning faoliyatini optimallashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy maqolalar yozgan. Bennettning tadqiqotlari sport tibbiyotida yangi metodlarni ishlab chiqishga katta ta'sir ko‘rsatdi.

Jismoniy tarbiya yo’nalishdagi mutaxassislarga jismoniy darslarida tibbiy bilimlarni rivojlantirish, muhim vazifa bo’lib sanaladi. Shaxsning jismoniy tarbiyasini qadriyat deb bilish, u jismoniy tarbiyani vosita sifatida o’zlashtirishga doir jamoatchilik fikri va ehtiyojlarini rivojlantirishda ilg’or yo’nalishlarning ta’sirchan omillaridan biriga aylanishi lozim. Shaxsning jismoniy tarbiyasini shakllantirish jarayoni alohida jismoniy jihatlarning o’zini rivojlantirishni emas, balki ular orqali insonni har tomonlama va uyg’un ravishda rivojlantirish bilan birga ruhiy kamolotga tomon yetaklashni nazarda tutadi [4].

Jismoniy tarbiya darslarida tibbiy bilimlarni rivojlantirish, o'quvchilarga sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport faoliyatining foydalari va zaruratini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda bir necha asosiy jihatlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Sog'liqni saqlash va profilaktika: O'quvchilarga jismoniy faollikning sog'liq uchun foydasi, turli kasalliklardan himoya qilishdagi roli haqida ma'lumot berish. Masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn va diabetdan himoya qilish. Inson organizmdagi patalogik holatlarini erta aniqlash va oldini olish zarur.

2. Jismoniy faollik va uning tibbiy asoslari: Jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchilar o'quvchilarga mushaklar, suyaklar va boshqa organlarning ishlashi qanday sodir bo'lishi haqida ma'lumot berishlari kerak. Bu jarayonlarda anatomiya va fiziologiya bilan integratsiyalashgan holda bilim berish.

3. Sport jarohatlari va ularning oldini olish: O'quvchilarga sport bilan shug'ullanishda qanday xavf-xatarlar mavjudligini tushuntirib berish va jarohatlardan saqlanish usullarini o’rgatish.

4. Sog'lom ovqatlanish: Sog'lom ovqatlanishning jismoniy faoliyatga ta'siri haqida ma'lumot berib, to'g'ri ovqatlanish prinsiplarini o'rganishga yordam berish.

5. Stressni boshqarish: Jismoniy tarbiya orqali stressni kamaytirish usullarini o’rgatib, psixologik salomatlikka e'tibor qaratish.

6. O'z-o'zini baholash va motivatsiya: O’quvchilarni o’z salomatliklarini baholashga undash va ularni jismoniy faollikka rag‘batlantirish.

7. Tibbiyot mutaxassislari bilan hamkorlik: Darslarda tibbiyot mutaxassislari (masalan, sport shifokorlari yoki dietologlar) taklif etilib, seminarlar o'tkazilishi orqali bilimlarni yanada chuqurlashtirish mumkin.

Bu jihatlar orqali jismoniy tarbiya darslari nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki tibbiy bilimlarni ham oshirishga yordam beradi hamda yosh avlodning sog'lom turmush tarzini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya o'qituvchilari tibbiyot sohasidagi bilimlarni egallab olish orqali nafaqat professional malakalarini oshirishadi, balki talabalarining umumiy sog'lomligini ham yaxshilaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акбарова, Д. Р. (2016). Адаптив ҳаракатга келтирувчи рекреация ва реабилитация шакллари. Дефектологиянинг долзарб масалалари, 1(1), 51-53.

2. Akbarova, D. (2023). The importance of types of medical supervision of a doctor in the development of medical knowledge of future teachers of physical culture. Science and innovation, 2(B4), 402-407.

3. Акбарова, Д. Р. (2022). Спорт тиббиётида функционал тестларнинг аҳамияти. Илий ахборотлари илмий журнали, 1(1), 50-57. 5. Акбарова, Д. Р. (2022). Антропометрия жисмоний ривожланганликни текшириш методлари ва усуллари мажмуи сифатида. Илий ахборотлари илмий журнали, 1(7), 47-50.

4. Каталомова Л. Л., Словарь. М.: Дрофа, 2007.- 61с

5. Shukurov I. B. Jaxon ta’lim standartlari asosida sog’liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy omillari. www. oriens. uz.2023.-03(3)-364 -bet

6. Akbarova, D. R. (2016). Plase of physical exercises in the schedule. International Conference on European Science and Technology, 86(1), 75-78.

7. Arzikbaev, A., & Akbarova, D. (2016). Features of anatomic and psychophysiological development of juvenile school students. Influence of knowledge and public practice on the development of creative potential and personal success in life, 38-38.

8. Арзибаев, Қ. О., & Акбарова, Д. Р. (2016). Проблема здорового образа жизни в исследованиях. Наука и Мир, 3(3), 77-78.

9. Акбарова, Д. Р. (2015). Соғлом бўлай десангиз. Педагог газетаси, 2(951), 1-2.

10. Пономарев Н. И. Некоторые проблемы функционирования и развития теории физической культуры // Теория и практика физической культуры.1996. – №5. – 55-58 с

QUANTUM SIMULATIONS OF DYNAMIC SYSTEMS: A PYTHON-BASED APPROACH

Raupova Mohinur Haydar qizi
Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article provides a practical, code-focused exploration of quantum algorithms applied to dynamic systems. It presents three key examples: the quantum harmonic oscillator, quantum walk, and quantum Fourier transform for signal processing. Each section includes a detailed Python implementation using Qiskit, along with output results and interpretations. The quantum harmonic oscillator simulation demonstrates modeling of fundamental physical systems, the quantum walk illustrates quantum interference effects in dynamic processes, and the QFT example showcases frequency analysis in quantum states. The article emphasizes hands-on learning, enabling readers to run simulations and interpret results, thus bridging the gap between theoretical quantum computing and its practical applications in dynamic systems.

Keywords: quantum computing, dynamic systems, qiskit, quantum harmonic oscillator, quantum walk, quantum fourier transform, signal processing

Lets explore practical implementations of quantum algorithms for solving problems in dynamic systems. We'll focus on three key areas: the quantum harmonic oscillator, the quantum walk, and the quantum Fourier transform for signal processing. Each section will include a Python program using Qiskit, along with the output and interpretation of results.

1. Quantum Harmonic Oscillator

The harmonic oscillator is a fundamental model in physics, describing systems that experience a restoring force proportional to displacement. Let's simulate a quantum harmonic oscillator using a quantum circuit.

[Histogram plot showing the distribution of measurement outcomes]

Interpretation: The histogram shows a strong peak at '100' (binary for 4), which corresponds to the frequency of our input signal. For a period of 2 in a 3-qubit system, we expect the main frequency component to be at the 4th basis state (counting from 0), which is exactly what we observe. This demonstrates how QFT can be used to extract frequency information from quantum states, analogous to classical Fourier analysis in signal processing.

Conclusion. These examples demonstrate practical applications of quantum algorithms in dynamic systems. The quantum harmonic oscillator simulation shows how we can model fundamental physical systems. The quantum walk illustrates quantum interference effects in dynamic processes. Finally, the QFT example showcases how quantum algorithms can be applied to signal processing tasks. As quantum hardware continues to improve, these techniques may offer significant advantages in simulating and analyzing complex dynamic systems.

References

1. Nielsen, M. A., & Chuang, I. L. (2010). Quantum Computation and Quantum Information: 10th Anniversary Edition. Cambridge University Press.
2. Aharonov, Y., Davidovich, L., & Zagury, N. (1993). Quantum random walks. Physical Review A, 48(2), 1687.
3. Childs, A. M. (2009). Universal computation by quantum walk. Physical Review Letters, 102(18), 180501.
4. Coppersmith, D. (2002). An approximate Fourier transform useful in quantum factoring. arXiv preprint quant-ph/0201067.

YANGI DAVR HIKOYACHILIGIDA G‘ARB ADABIY-ESTETIKASI TA’SIRI

Oripova Sarvinoz Narzulloyevna
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasining
“Xorijiy filologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
sarvinozoripova54@gmail.com
Orcid:0009-0001-9000-0682

Annotatsiya: Mana shu maqolada G‘arb adabiy-estetikasi va uning o‘ziga xos qirralari haqida muayyan mulohazalar talqini berildi. Ayniqsa, Yevropadan ko‘chib o‘tgan tasvir usullari o‘zbek yozuvchilari ijodida qay tariqa bo‘y ko‘rsatganligi nazariy jixatdan yoritildi.

Kalit so‘z: davr, muhit, tasvir, estetika, ijodkor qiyofasi, konsepsiya.

XX asr insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan kashfiyotlar bilan nom qozongan bo‘lsa, tasavvur qilib bo‘lmaydigan fojealar ham hech bir millatni chetlab o‘tgan emas. Istiqlolga erishgan yillardagi odamlar kayfiyati, orzu-umidlari, quvonchu tashvishlari qaysidir ma’noda ko‘ngil kechmishlarida iz, jarohat qoldirdi. Bu kabi adashishlar va o‘zlikni anglash sari qo‘yilgan ilk qadamlar bugunning odamlari uchun shunday bo‘lishi, saboqlardan xulosa chiqarishi kerak edi go‘yo. Diniy va dunyoviy ilmlar chorrahasida muvozanatdan ketgan qatlam ham bo‘ldiki, bu sobiq ittifoq davrining asoratlari sifatida qabul qilindi. Yozuvchi asarda uchta kodga ishora qiladi. Bu ochqich kalit insonning har tomonlama o‘zini anglashida – mifologik talqin usulining benihoya kattaligini isbotidir.

Isajon Sulton hikoya syujet va kompozitsiyasini, mifologik obraz va zamon, makonni yaratishda xalq og‘zaki ijodi unsurlaridan keng turda foydalanadi. “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridagi voqelikni mifopoetik unsurlarga to‘yintirib, o‘ziga xos tarzda “kashf” qiladi. V.M.Pivoevning ta’kidlashicha, “mifologiya dunyoni anglash usuli sifatida” baholanadi. Mifoligizatsiya va mofologema, mifostruktura badiiy zamon va makonni yagona estetik mezonda birlashtira oladigan adabiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hikoyada tayyor obraz, rivojlantiruvchi obraz, murakkab obrazlar mifopoetik tafakkur tarzining nechog‘li o‘sib, yangilanib, rivojlanib borayotganidan shaohdat beradi.

“Manzil” qahramonlari nega o‘z manzillariga, “Tilsim tog‘i”ga yetib borisha olmadi? Bu tog‘ning qanchadan-qancha odamlarni o‘ziga jalb qilishida qanday sir yashirin? Birgina Abdulla ismli yosh bolakayning jasorati, irodasi bunga qodir bo‘lmoqda? Qolgan yo‘lovchilarning toqqa yaqinlashgan sari, toshlarga, qoyalarga o‘yib yozilgan ismlari ham yo‘qlik sari ravona bo‘lmoqda? Yozuvchi ana shu chigal munozarani – **yangi mif** siftida o‘quvchiga havola qiladi:

“Olg‘a, faqat olg‘a! Tuyg‘ular o‘tkinchidirlar. Boyliklar bebaqo, go‘zallar bevafodirlar. Intilayotgan manzilimizda bizlarni misli ko‘rilmagan mo‘jizalar kutmoqda! U yerda...

U yerda har birimizning ismimizga zarb etilgan xazinalar bor. Qopqalarning halqasidan tutib, ismimizni aytsak bas: tilsim ochiladi. Xazina egasining har qanday

istagi o‘sha ondan boshlab, aytilgan zahoti amalga oshadi. U manzilga yaqin qoldi. Yurak sezayotir – juda yaqin qoldi” .

Bu mifologik tasvirlar hikoya va hikoyachining ijodiy niyati nechog‘li turfalanib borayotganini anglatadi. Manzillardan oshib o‘tib, baxt va saodat eshigiga bosh suqish odamzodga foyda berishi, avvalo, imonining mustahkamligiga qarab baholanadi. Ya’ni ojiz va zaif, sabrsiz va yalqov kimsalar bunday baxtdan mosuvo bo‘ladi degan qarash kelib chiqmoqqda. Aynan shu tarzda badiiy in’kos topishi asar qahramonlarini chigal so‘qmoqlardan olib o‘tayotgan roviy obrazi – yozuvchining o‘zi boshidan o‘tkazgan ma’lum qismatni ham anglatayotganidan dalolatdir.

Ta’kidlash joizki, S.Langer, U.Urban, E, Kaunt kabi olimlar tadqiqotlarida afsona, ramzlarning badiiy nasr arxitektonikasida kreativ o‘rin egallashini asoslaydi. Zamon va mif tushunchasi XXI asr insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan kashfiyotlar yaratilishiga zamin yaratganini bugungi kunda guvohi bo‘lmoqdamiz. Shu ma’noda, Isajon Sulton hikoyachiligi qadim zamon miflarini, bugunning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, badiiy tafakkurda “hazm qila oladigan” darajada juda silliq bir tarzda sintezlab ifoda vositasi sifatida foydalanayotganizamondosh inson obrazini shu maqsadga yaqinlashtirishni ko‘zlagani e’tirof etilmoqda. Natija – sabab! Natija – oqibat formulasining hal qiluvchi ahamiyatini dalolatlash bilan birgalikda, tafakkur tarzimizni bir bahya o‘zgarishiga turtki bo‘layotgani ayni haqiqat.

Prof. A.Rasulova bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi: “Badiiy ijodda g‘oyaning pishiq-puxtaligi qanchalik muhim bo‘lsa, ilmiy tadqiqotda metodologiyaning asosliligi shunchalik ahamiyatlidir. Ijodkor g‘oyani qanchalik pishitsa, sarlavha, ilk jumla, matn, timsolu xarakterlar, badiiy qurilma joziba, tiniqlik kasb etadi. Olim metodologik asosni to‘g‘ri belgilasa, “izm”lar labirintidapn qiynalmay chiqib ketadi, nozarur dalil, tafsilotga berilmaydi. Badiiy g‘oya ijodkor jonu jahonidan sizib chiqadigan betakror topilma. Metodologik asos – ilmiy xodim ongida kechadigan murakkab jarayonlar hosilasi. O‘qish, o‘rganish, qiyoslash, tajriba orttirish, ruhiy-aqliy izlanish samarasi o‘laroq badiiy g‘oya asar bo‘lib tug‘iladi; ilmiy-nazariy tadqiqotda tutib turadigan metodologik tayanch mustahkam g‘oyaday diqqatni tortadi” . Darhaqiqat, prof.A. Rasulov masalaning ikkala tomoniga jiddiy to‘xtalib o‘tish zaruratini keltirar ekan, mashishiy turmush bilan murakkab hayot kechmishlari orasida ijodkor botinidagi rosa pishib yetilgan adabiy hodisa – nazariy konseptual aqidalar zamirida yuzaga chiqar ekan, undan manfaatli istifoda qilish yozuvchi shaxsiyati bilan bog‘liq degan g‘oyani ilgari surmoqda. Ayniqsa, badiiy uslub nihoyatda keng tushuncha. Uning tabiatida inson fenomenini talqin etib, olam va odam sirlarini bilishga olib boruvchi ixlma-xil fragmentlar galeriyasi o‘z tajassumini topishi darkor degan, konsepsiya yuzaga kelmoqda. Demak, yozuvchi har qanday sharoitda o‘z individual uslubini topmas ekan, yozishga o‘tirgan ondan boshlangan tug‘yon yetarlicha o‘quvchi qalbiga yo‘l topishiga erishish qiyinlashadi. Ana shu tamoyil nazariy jihatdan to‘g‘ri ochiqlanishi uchun yozuvchi-qahramon-muhit uchligi uyg‘un ravishda tashkillantirilishi lozim.

XX asr boshlaridan to hozirga qadar iste’molda bo‘lgan tasvir me’yorlariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, uslubning o‘zi nima, badiiy uslubning ijodkor fenomenini qayta idrok etishda nimalarga e’tibor berishi lozim degan o‘zgarmas qonuniyat tamoyili har bir tafakkurli insonni o‘ylantirishi tabiiy holdir. Har bir davrning o‘ziga xos badiiy-

ijodiy yo‘riqnomasi sifatida olam va odamni istifoda qiluvchi fragmentlar bo‘ladiki, busiz inson shaxsi ham, xarakteri ham, davrning diqqatga sazovor maishiy manzarasi ham yuzaga yetarlicha chiqishi murakkablik tomon o‘sib boradi. Dunyo adabiyotida badiiylikning oliy kategoriyalari mavjudki, bu haqda shaxs va qahramon intellekti namoyishi o‘ziga xos halqani tayin etishi muqarrardir. Negaki, XX asrning 60-yillarida o‘zini ifoda qilish an’anasi O‘.Umarbekov, Sh.Xolmirzaev, O‘.Hoshimov, E.A’zam, M.M.Do‘st kabi yozuvchilarda xilma-xil ifoda uslublarining dielektik aloqasini namoyon etdi. Ayni paytda sho‘ro siyosati, mafkuraviylashgan badiiy mezonlar asta-sekinlik bilan o‘zining o‘zanida, yanada namoyon bo‘la boshladi. Bu milliy tuyg‘u va ongda kechuvchi mental xususiyatlar bilan bog‘liqligi hamda ularning davrdan o‘zib orayotgan tafakkur sarhadlarining kengayishi bilan bog‘liq jarayon ekanligi oydinlashdi.

Prof.S.To‘laganova badiiylikning yuzaga chiqish omillari nomli maqolasida ijodkor shaxsi haqida quyidagi mulohazalarini bayon qiladi: “Ijodkor shaxsi nihoyatda murakkab tushuncha. Ijodkor tarjimai holini uning o‘zi yaratgan asarlari bilan uzviy bog‘lab o‘rganish adabiyotshunoslikda masalaning biz shu kungacha e’tibor qilmagan jihatlarini anglashimizda muhim vosita vazifasini bajaradi. Biografik metod asoschisi Sent-Byov: “Har qanday badiiy asar bu – so‘zlayotgan shaxsdir, shaxs yoki insonni asaridan ayro tushunmaslik kerak”, deb aytganidek ijodkor hayoti va ichki dunyosidagi iztirob va kechinmalar uning har bir asarida iz qoldirishi aniq. Aslida, badiiy asar bu ijodkor tafakkuri nusxasining ko‘chirmasidir” . Binobarin, XX asrning 20-yillarida badiiy nasrga kirib kelgan Frans Kafka ana shunday ijodkorning tafakkur tarzi bilan bevosita uyg‘unlashib, muvofiq tushuncha va fragmentlar silsilasida namoyon bo‘lishiga erishgan yozuvchilardan biri sanaladi:

“Agar mening asosiy maydoncham kabi ishonchli joylardan yana bir nechta bo‘lganda edi, zaxirani bo‘lish haqida fikrim o‘zini bir muncha oqlagan bo‘lardi. Bir nechta mana shunday joy! Ha, albatta, o‘zini oqlardi. Ammo kim qiladi endi bu ishni? Ha, endi bu ishlar yashash joyim bilan bog‘liq umumiy rejaga kirmaydi. Biroq men qilgan xatomni tan olishga tayyorman, chunki qandaydir reja faqat bir nusxada tug‘ilsa, unda bu kabi xatolarning uchrashi tabiiy. Yashash joyimni qurish davomida xira, lekin tobora yaqqol namoyon bo‘layotgan fikrpaydo bo‘lgandi: agar menda shunday mustahkam maydonga ega bo‘lish istagi paydo bo‘lsa, bu istaka itoat etmagan bo‘lardim. Boisi, bu kabi ulkan ishga o‘zimni layoqatsiz his qila boshlagandim” .

Frans Kafka g‘oyalari o‘ta og‘ir hazm qilinadi. Shodiqul Hamro esa undan sal yengilroq. Chunki Kafka g‘alayon ichida inson ruhini axtargan mayoq, fonus kabi ish tutadi. Uning ramzlari zalvorli. Tushuniksiz bir olam! Metaforalar orolidir. Kafka ruhoniyati – oilasidagi ayovsiz muhit sabab bo‘lishi mumkin. Chunki Ota tomonidan tahqirlangan Kafka qalbida insoniyatga bo‘lgan o‘ziga xos burilish hissi tobora kuchli. U o‘zining qalbidagi org‘iqlari bilan kamol topdi. Nafs va uni jilovlash Kafkalar avlodning xos mezonga burkangan odatlaridandir. Shuning uchun ham, o‘zbek ziyolilari orasida Kafkani tushunib, tushunganini tahlil qilib bera oladiganlari nihoyatda sanoqli. Shodiqul Hamroning badiiy olamidagi pafos – hikoya qurilishidagi so‘z o‘yinlari ham yagona estetik markazda uyushadi. Ulug‘bek Hamdam va Isajon Sulton esa ramzlarni hikoyat va rivoyat bilan talqin etishga bel bog‘laydi. Nazar Eshonqul esa har ikkala jihatda ham, mifni ramzlashtiradi. Mif bor, lekin uni ramzlar

tilida talqin etish nihoyatda kuchli. Ana shu konsepsiya insoniy munosabatlarning XX asrga kelib katta bir bo‘lida qolgan odam ruhiyatiga yangi dunyo olib kirishga uringanligida deb tushunish mumkin.

Argentinalik yozuvchi va shoir, faylasuf Xorxe Luis Borxesning quyidagi mulohazalariga tayanadigan bo‘lsak, yozuvchi Asad Dilmurodning har bir asarida insonni fikrlash orqali o‘zligini, o‘zligi orqali kelajagiga ishonch tuyg‘usining ortishini namoyon qila boradi. Dylik oddiy hikoya shiddati o‘ta og‘ir, silliq ramzlar, kutilmagan burilishlar, syujetning bir-birini to‘ldiruvchi arxetiplari qahramon ong ostida kechuvchi situatsiyalar bilan bezatiladi: “Fikrlash – umumlashtirish demakdir va shunday ekan, biror narsani tasdiqlash uchun biz Platonning arxetip”lariga murojaat qilishimiz kerak. Shunday ekan, adabiy janrlar mavjudligini tan olish uchun bizga nima xalaqit beradi? Bunga o‘zimning mulohazalarimni ham qo‘shgan bo‘lardim: janr, ehtimol, matnning o‘zi bilan emas, ko‘proq uni o‘qish vositasi bilan aniqlanadi. Estetik dalil o‘quvchi va matnninng birikishi natijasida paydo bo‘ladi. Zero, kitobning o‘zi shunchaki moddiy ob’ektdir. Kitob o‘zining haqiqatdan mavjudligiga uni o‘quvchi ochgan paytdagina ega bo‘ladi. Faqat o‘shandagina o‘z ahamiyayati bo‘yicha uning yaratilish ongiga teng bo‘lgan favqulodda hodisa ro‘y beradi” . Haqiqatdan ham, yozuvchi – o‘zining individual uslubiga ega bo‘lishi uchun yillar davomida o‘z ongu shuurida, tajriba va intilishlari negizida erishishi tayin. X.L.borxesning mana shu iqtibosida ham fikrlashning umumlashma ko‘rinishiga kirib borish, dunyoning bizga qorong‘u puchmoqlarida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hodisalarga quloq tutish, hech bo‘lmagan taqdirda ularni sinovdan o‘tkazish, sintezlash masalasini tushunishimiz lozim. Dunyoning biz anglamagan botiniy xilqatimizdagi hali yuzaga chiqmagan ong osti hislarimiz “ramz” va “majoz” tilida o‘ta murakkab bir sharoitdagi tasvirlar galeriyasi bilan boshqacha tarzda namoyon bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas!

“Hozirgi o‘zbek prozasi uslub va ijodiy originallik yaratishda XX asrda yashab, ijod etgan o‘zbek prozasining yirik vakillari va asoschilari A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Hamza, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Muxtor singari ijodkorlarning adabiy mahorat maktabidan o‘rgandi. Buni o‘zbek prozasining individual qiyofasini yaratishdagi birlamchi adabiy omil sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari, Sharq mumtoz adabiyoti an’analari, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining hayotbaxsh ta’siri ham hozirgi o‘zbek prozasining shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajardi. Biroq tilga olingan omillardan tashqari, bugungi kun yozuvchilari uchun dunyo adabiyotining yirik adiblari, jumladan, M.F.Dostoevskiy, E.Xeminguey, U.Folkner, Herman Hesse, G.G.Markes, F.Kafka, A.Kamyu, J.Joys, Dino Busatti, M.Bulgakov, Ch.Aytmatovlarning proza sohasidagi ulkan ijodiy tajribalari, kutilmagan badiiy shartli topilmalari bilan bog‘liq mahorat maktabi, ijodiy ta’sir maydoni bo‘lib xizmat qildi”. Keltirilgan iqtibosdan shunisi ayonlashadiki, hayotning har bir o‘lchovi ma’lum bir uslublar tig‘izligida namoyon bo‘ladi. Modda va ruh aynan yozuvchi uslubi orqali rivojlanadi. Shuni unutmaslik kerakki, badiiylik xilma-xil ifodalar sintezidan oziqlanadi. U mavhumlikdan – aniqlik sari o‘tib turuvchi tushunchalarni akslantira borishida ham yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi Frans Kafkaning: hikoyadan – qissaga; qissadan – romanga; romandan – essega sayqallanib boruvchi badiiy uslubi ana shu konsepsiyani o‘zida mujassamlashtira olganligi bilan real

mohiyatga evriladi. Buni quyidagi tavsiflarda ham o‘ziga xos tarzda talqin etishimiz mumkin:

“Biroq ehtimol, bu hayvon o‘zining kovagini kovlayotgandir. Shunda o‘zaro kelishish haqida o‘ylamayman ham. Agar bu noa’lum jonzot o‘z kovagi yonidagi o‘shni kovakka, mening boshpanam uyidan doim qandaydir ovozlar eshitilib turadigan qo‘shniga toqat qilmaydi. To‘g‘ri, hayvon ancha uzoq masofada bo‘lishi kerak va agar u yana yo‘lida davom etaversa, butkul g‘oyib bo‘lib ketsa ajabmas. Balki bu shitirlash, umuman, barcha-barchasi xuddi eski kunlarda qolgani kabi, iziga tushib ketar, shundan keyin hammasi men uchun og‘riqli, biroq foydali tajriba bo‘lib tuyula boshlaydi. Bu aslida mening takomillashishimga xizmat qilgan bo‘lardi. Xotirjam bo‘lsam va xavf menga bevosita tahdid qilmay tursa, hali ham jiddiy ishlarni amalga oshirishga qodirman. Balki, ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lgan bu jonzot o‘z yo‘lini mening boshpanam tomonga davom ettirishdan bosh tortar va o‘zini boshqa biror narsa bilan siylar ehtimol”.

Keltirilgan lavha Kafka qahramoni va sirli bir kalamush kabi asarda parallel harkatlanayotgan hayovon qiyofasini yodimizga soladi. Kafka asarlarida turli jonzotlar doamga, odamning jonzotga aylanish modusini ko‘ramiz. Bir qarashda o‘ta oddiydiek tuyulgan voqelik, aslida murakkab hayot sinovlarida toblangan odamlar ruhiyatini tasviriga bag‘ishlanadi. Undagi yangi mif Kafka olamidagi ajralmas his-tuyg‘ular modifikatsiyasini tartiblashtiradi. Shodiql Hamro ham – Shayton va tun, odam va umr, inson va oxirat mavzularini Kafka singari buyoqdorlikda berishga urinadi.

Prof. E.Xudoyberdiev qayd etishicha: “Til orqali deyarli hamma narsani qamrab olish mumkin bo‘lganligi sababli u bilan adabiyotning tasvir doirasi ham beqiyos imkoniyatlar kasb etadi. Biroq adabiyotning voqelikni ongimizga, qalbimizga yetib boradigan darajada samara bermog‘i uchun yozuvchilar asar tili ustida qunt bilan ishlashlari, mazmunni ifodalashda yuksak badiiy aniqlikka va lo‘ndalikka erishmoqlari zarur. Til adabiyotning asosiy qurolidir, hayot hodisalari, dalillar bilan birga uning materialidir. Tilning ahamiyati haqida topishmoqlardan ham birida shunday deyiladi: “Asal ham emas, lekin har narsaga yopishar”. Bu dunyoda nom qo‘yilmaydigan, nom topilmaydigan narsaning o‘zi yo‘q, demakdir. So‘z – barcha dalillar, barcha fikrlar libosi. Ammo har bir dalil zamirida ijtimoiy ma’no bor. Dalillar zamirida yashiringan ijtimoiy hayot ma’nosini uning muhimligi, to‘laligi va yorqinligigacha tasvirlashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan badiiy adabiyotdan ravon, tushunarli til, puxta tanlangan so‘zlar talab etiladi. Klassiklar yuz yillar davomida asta-sekin ishlangan ana shunday tilda yozganlar”. Demak, badiiy til jozibasi yozuvchining hayot materialini, umuman so‘zdan-so‘zning farqini, xususiyatini, obrazli ifodasini teran o‘zlashtirishni dalolatlaydi. Insonning har bir kuni, yashashi, hatto umri davomida izlanishlari, til va tafakkur bilan amalga oshiriladi.

Zukko adabiyotshunos N.Mallaev qayd etishicha: “Hikoya Yaqin va O‘rta Sharq xalqlar adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biridir. Hikoya – yozma adabiyot bilan og‘zaki ijodiyotni bir-biriga bog‘langan muhim omil. Halq hikoyalari bilan kitobiy hikoyalar o‘zoro chunon yaqinki, ularni qat’iy chegaralash ko‘pincha amri maholdir. Chunki hikoya xalq rivoyatlaridan kitobga, kitobdan xalq hikoyachiligiga o‘tib borgan. Shu bilan birga, ma’lum bir xalqning adabiyoti (yoki folklori) zaminida vujudga kelgan hikoya ikkinchi bir xalq tomonidan qayta ishlanib, “o‘zlashib”, uning adabiyoti

bisotiga qo‘shilib ketar edi. Binobarin, syujet va kompozitsiya, obrazlar sistemasi jihatdan bir-biriga monand hikoyalar,bir tomondan, ijtimoiy hayot,tarixiy sharoitning o‘xshashligi natijasida bir-biridan mutasno g‘olatda vujudga kelsa, ikkinchi tomondan, adabiy aloqalarning mahsuli sifatida paydo bo‘ladi”. Jumladan, turkiy xalqlar adabiyotidagi nazmiy asarlarning – hikoya shakliga o‘tishi, bir-ikkki asr mobaynida taraqqiy etish pallasiga kirgan. Shunday ekan, joriy kunda g‘arb adabiyoti, hamda sharq an’analari negizida qayta shakllanib, rivojlanib borayotganligi yuqoridagi mulohazaalarimizni to‘laqonli dalolatlaydi. “Dunyo adabiyotida prozaning o‘rni haqida gap borganda uning taraqqiyotini kuzatayotgan har bir o‘quvchi hikoyachilikning tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotganligini va bu kichik janrda ham boshqa epik janrlardagidek salmoqli hayotiy muammolar hal qilib berilayotganini ko‘rmasligi mumkin emas. Inson o‘zidagi evrilishlar, o‘zligini anglash tuyg‘usining borgan sari kuchayishi odamlararo munosabatlardagi murakkablikni, shaxs va voqelik, jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni haqqoniy, real aks ettirishni taqozi qildi” . Mana shu jarayonda kichik janrda “katta gap aytish” mahorati har bir ijodkor qiyofasini belgilovchi badiiy uslub kriteriylari bilan jonlantiriladi. Ayni paytda, hikoya va qissa orasidagi farqlanishlar, kichik janrning mifopoetik imkoniyatlarini yangilash jahon adabiyoti bilan bo‘ylashish yo‘sinlari sari harakatlanadi

Xulosa shuki, G‘arb adabiy-estetik tafakkuri hamisha o‘zidan oldingi va keyingi avlod o‘rtasidagi mustahkam ko‘prikka o‘xshaydi. Bu ko‘prikning oltin davri **modernizm** adabiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Zamon va makonda kechuvchi har qanday voqelik, tashbeh, mif, metanimiya hodisasi inson irodasini sinovdan o‘tkazish va shu orqali voqelikka yangicha husn bag‘ishlashga qaratilganligida seziladi. Frans Kafka, Isajon Sulton, Shodqul Hamro, Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida murakkab sema jihatlarni yuzaga keltiradi. Zotan, har bir badiiy epik polotno – tahrir va talqinda o‘z maromiga yetadi. Bular ijodkor taqdirida uchrashishi mumkin nuqtalardan biri desak, mubolag‘a qilmaymiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tosheva, N. Isajon Sulton hikoyalarida folklorning o‘rni. Til va adabiyot ta’limi, 2019, 5-son, 33–35-betlar.
2. Sulton, I. Asarlar: Hikoyalar. 1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017.
3. Pivoev, V. M. Mifologik ong: dunyoni o‘zlashtirish usuli sifatida. Petrozavodsk: Kareliya, 1991.
4. Rasulov, A. Badiiylik – bezavol mezon. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2007.

INGLIZ ROMANTIK ADABIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Maftuna Shermatovna Omonova
Alfraganus universiteti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)., v.b.dotsent

KIRISH

Ingliz romantik adabiyoti XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida shakllangan bo‘lib, u ma’rifatchilik davrining ratsionalizm va klassitsizm tamoyillariga qarshi badiiy-estetik harakat sifatida yuzaga kelgan. Bu yo‘nalish inson ruhiyati, individual kechinmalar, tabiat go‘zalligi va erkinlik g‘oyalarini markazga qo‘yishi bilan ajralib turadi. Ingliz romantizmi Yevropa romantik harakatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, adabiyot tarixida tub burilish yasagan davr hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Romantizmning shakllanishi ko‘pincha 1798-yilda William Wordsworth va Samuel Taylor Coleridge tomonidan yaratilgan Lyrical Ballads to‘plamining nashri bilan bog‘lanadi. Ushbu asar ingliz she’riyatida yangi estetik tamoyillarni boshlab bergan. Ayniqsa, Wordsworthning she’riyat haqidagi nazariy qarashlari romantik adabiyotning dasturiy asosiga aylangan.

Ingliz romantik adabiyotining asosiy xususiyatlaridan biri — individuallik va subyektivlikning ustuvorligidir. Romantik ijodkorlar insonning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini va ruhiy iztiroblarini tasvirlashga katta e’tibor qaratdilar. Ular nazarida shoir — oddiy kuzatuvchi emas, balki ilhom va tasavvur kuchi bilan haqiqatni qayta yaratuvchi ijodkordir. Bu jihat William Blake va Lord Byron ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi muhim xususiyat — tabiatga bo‘lgan alohida munosabatdir. Romantiklar uchun tabiat shunchaki fon emas, balki tirik va ruhiy kuchga ega mavjudlik sifatida talqin qilinadi. Tabiat inson ruhiyatining aks-sadosi, ma’naviy poklanish va ilhom manbai sifatida tasvirlanadi. Masalan, Wordsworth she’riyatida tabiat insonni axloqiy jihatdan tarbiyalovchi kuch sifatida gavdalanadi.

Uchinchi jihat — tasavvur (imagination) va ilhomning ustun qo‘yilishidir. Romantiklar aql va mantiqdan ko‘ra tasavvur kuchini yuksak baholaydilar. Samuel Taylor Coleridge o‘zining Biographia Literaria asarida tasavvurning ijodiy jarayondagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslab beradi. Uning fikricha, tasavvur — bu inson ongining yaratuvchan kuchidir.

To‘rtinchi xususiyat — erkinlik va isyonkorlik ruhidir. Romantik adabiyot French Revolution g‘oyalaridan ilhomlangan bo‘lib, shaxs erkinligi va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash motivlarini o‘zida mujassam etadi. Bu ayniqsa Percy Bysshe Shelley va Lord Byron asarlarida kuchli ifodalangan. Bayron yaratgan qahramon tipi — “bayronik qahramon” — jamiyat bilan ziddiyatga kirishuvchi, mustaqil va ichki iztirobga to‘la obraz sifatida adabiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Beshinchi xususiyat — o‘tmishga, ayniqsa o‘rta asrlarga va xalq og‘zaki ijodiga qiziqishdir. Romantiklar milliy folklor, afsona va tarixiy mavzulardan keng foydalanganlar. Bu jihat John Keats she’riyatida estetik go‘zallik va abadiylik g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz romantik adabiyoti shaxsiyat erkinligi, kuchli hissiyot, tabiatga yaqinlik, tasavvur va ijodkorlikni ulug‘lash kabi tamoyillari bilan ajralib turadi. U klassitsizmning qat’iy qoidalarini rad etib, badiiy erkinlik va individual ifodani adabiyot markaziga olib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. William Wordsworth. Preface to Lyrical Ballads. London, 1802.
2. Samuel Taylor Coleridge. Biographia Literaria. London, 1817.
3. M. H. Abrams. The Mirror and the Lamp. Oxford: Oxford University Press, 1953.
4. M. H. Abrams (ed.). The Norton Anthology of English Literature. New York: W. W. Norton.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O‘QITISHDA AUDIO MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Davlatova Munisa Aminovna
munisadavlatova275@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich maktab matematika o‘quv dasturi tarkibidagi geometriya komponentini o‘qitishda audio materiallarning pedagogik roli va samaradorligi har tomonlama tahlil qilingan. Unda o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri va geometrik tafakkurini shakllantirish hamda tizimli ravishda rivojlantirish uchun audio vositalardan unumli foydalanish bo‘yicha tizimli, amaliy tavsiyalar yoritilgan. Bundan tashqari, tadqiqotda fazoviy fikrlashni optimallashtirish uchun ta’lim jarayoniga audio stimullarni strategik jihatdan qanday integratsiya qilish mumkinligi ko‘rib chiqilgan hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun multisensorli o‘qitish natijalarini yaxshilashga qaratilgan amaliy metodologiyalar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Geometriya, audio materiallar, boshlang‘ich ta’lim, fazoviy tasavvur, innovatsion metodologiya, AKT.

Kirish va mavzuning dolzarbligi

Zamonaviy ta’lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) integratsiyalashuvi o‘quvchilarning darsga jalb qilinishini oshirish va o‘qitish sifatini yaxshilashda asosiy katalizator bo‘lib xizmat qilmoqda. Boshlang‘ich ta’lim paradigmasida matematika – xususan, uning geometriya komponenti – yuqori darajadagi mavhum fikrlash va fazoviy modellashtirishni talab etadi. An’anaga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga geometriyani o‘qitish metodologiyasi statik jadvallar, jismoniy modellar va sinf doskasidagi chizmalardan foydalanish orqali asosan bevosita vizual idrok etishga tayanib kelgan. Vizual savodxonlik, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, faqat unga suyanish o‘rganuvchilarning psixologik xilma-xilligini (individual xususiyatlarini) to‘liq qamrab olish imkonini bermaydi.

O‘zbekiston boshlang‘ich sinf matematika darsliklarida geometrik tushunchalarning zich integratsiyalashgani aniqlangan bo‘lsa-da, o‘quvchilar aniq idrokdan mavhum tasavvurga o‘tishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Neyropedagogik yondashuvlar orqali vizual tasvirlarni audio konfiguratsiyalar bilan birlashtirish ma’lumotni saqlab qolish va fazoviy tasavvurni rivojlantirishda samarali ekanligi ko‘rsatilgan.

"Gapiradigan shakllar" kabi audio-personifikatsiya usullari orqali ta’limni kognitiv yuklamani muvozanatlashtirgan holda o‘tish tavsiya etiladi. Tadqiqot xalqaro kognitiv nazariyalar va mintaqaviy ta’lim tadqiqotlariga asoslangan.

A misoli (Kvadrat): “Men kvadratman. Mening to‘rtta mutlaqo teng tomonim va to‘rtta to‘g‘ri burchagim bor. Men xuddi derazadek muvozanatliman!”

B misoli (Uchburchak): “Men uchburchakman. Mening uchta o‘tkir burchagim va uchta to‘g‘ri tomonim bor. Pizza bo‘lagiga qarang – bu mening shaklim!”

C misoli (Doira): “Men doiraman. Mening hech qanday o‘tkir burchagim yo‘q. Men xuddi velosiped g‘ildiragidek silliq yumalayman!”

Audio diktantlar (Fazoviy konstruksiyalash)

Ushbu jarayon o‘quvchilardan hech qanday vizual manbalarsiz, og‘zaki ko‘rsatmalarni qog‘ozda geometrik shakllarga faol ravishda o‘girishni talab qiladi. Bu usul bevosita barqaror diqqatni, eshitib tushunishni va fazoviy-motorik ijroni rivojlantirishga qaratilgan.

1-topshiriq: “Diqqat bilan tinglang: varaqingizning o‘rtasiga katta doira chizing. Endi ushbu doiraning ichiga butunlay sig‘adigan kichik kvadrat joylashtiring.”

2-topshiriq: “Gorizontal chiziq chizing. Ushbu chiziqning ustiga uchburchak quring, hosil bo‘lgan umumiy shakl uyning tomiga o‘xshasin.”

3-topshiriq: “Katta to‘rtburchak chizing. Uni o‘rtasidan bitta to‘g‘ri vertikal chiziq tortish orqali ikkita teng kvadratga ajrating.”

Musiqiy algoritmlar (Ritmik mnemonika)

Amaliy matematik ta’riflar va formulalarning tarkibiy jihatdan xotirada saqlanishini osonlashtirish uchun geometrik parametrlar ritmik bitlar yoki melodik iboralarga moslashtiriladi.

Perimetr uchun ritmik qo‘shiq: “Hamma tomonni qo‘shing, birontasini ham tashlab ketmang, mana siz topgan Perimetr!”

Burchaklar uchun rep: “90 gradus – to‘g‘ri va tik, xuddi kitobning burchagidek, u ajoyib ko‘rinadi!”

Yuza (Soha) uchun mnemonika: “Poygada uzunlikni eniga ko‘paytiring, biz ichki maydonni mana shunday o‘lchaymiz!”

Tajriba-sinov ishlari va natijalar

Taklif etilayotgan audio-integratsiyalashgan metodologiyaning amaliy asosliligini va o‘qitish samarasini baholash maqsadida Chirchiq shahridagi 13-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida nazorat ostida amaliy tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida tarkibiy jihatdan parallel bo‘lgan ikkita alohida kuzatuv guruhiga bo‘lingan ikkinchi sinf o‘quvchilari tanlab olindi: Eksperimental guruh 2-“V” (n=28) va Nazorat guruhi 2-“B” (n=26). Nazorat guruhi (2-“B”) an’anaviy darsliklar va an’anaviy vizual metodlar asosida ta’lim oldi. Eksperimental guruh (2-“V”) esa belgilangan o‘quv davrida tizimli ravishda “Gapiradigan shakllar”, “Audio diktant” va “Musiqiy algoritmlar” o‘quv dasturi asosida o‘qitildi. Pedagogik intervensiyadan (aralashuvdan) so‘ng, fazoviy identifikatsiya aniqligi, amaliy geometrik chizmachilik qobiliyati va matematik qoidalarning xotirada saqlanish darajasini o‘lchash uchun har tomonlama yakuniy baholash o‘tkazildi. Miqdoriy ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda batafsil yoritilgan:

Faoliyatni baholash ko‘rsatkichlari	Nazorat guruhi 2-“B” (%)	Eksperimental guruh 2-“V” (%)	Statistik farq (Δ)
Fazoviy tasavvur va shakllarni identifikatsiya qilish	68.4%	78.2%	+9.8%

Og‘zaki diktantni chizmaga aniq o‘gira olish	62.5%	74.3%	+11.8%
Formula va parametrlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishi	64.1%	75.9%	+11.8%
Geometrik savodxonlikning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichi	**65.0%**	**76.1%**	**+11.1%**

1- jadval

Amaliy natijalar guruhlar o‘rtasida me’yoriy va ishonchli ko‘rsatkichlar farqini namoyish etdi. Eksperimental guruh 2-“V” nazorat guruhiga nisbatan umumiy geometrik savodxonlik darajasida 11.1% lik mutloq o‘sishni ko‘rsatdi. Ayniqsa, eng sezilarli farq og‘zaki nutqni fazoviy tasvirga o‘tkazish (diktant asosida chizish) hamda parametrlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishi toifalarida (+11.8%) kuzatildi. Bu ko‘rsatkich muntazam va tizimli qo‘llanilgan audiokontent bolaning ichki fazoviy modellashtirish hamda diqqatni jamlash qobiliyatini pedagogik standartlar doirasida sezilarli darajada mustahkamlashini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Kognitiv yuklamaning bir qismini haddan tashqari to‘yingan vizual kanaldan audio kanalga o‘tkazish dars jarayonida toliqishni samarali boshqarish imkonini berdi va o‘quvchilarga butun dars bloki davomida yuqori darajadagi faollikni saqlab qolishga yordam berdi.

Xulosa

T/r	F.I.Sh	“Pilla” mulyajini 10 s. ichida ko‘krakdan oshirib, chap yoki o‘ng tomonga tashlash soni (marta) 3 martta takrorlashda	“Pilla” mulyajini 10 marta ko‘krakdan oshirib chap yoki o‘ng tomonga tashlash vaqti (s.) 3 martta takrorlashda	Ko‘krakdan oshirib tashlash usulini 1 daqada bajarish (marta)	Ko‘krakdan oshirib tashlash usulini bajarish sifati (ball)
1.	R.M	3,4	21,3	14	2,6
2.	B.X	5,4	29,6	18	3
3.	A.X	4	23,2	11	3,3
4.	M.Sh	5,9	22,9	19	2,6
5.	O‘.A	5,7	25,9	14	3,4
6.	S.Sh	3,8	29,2	11	2,9
7.	A.A	4,7	22,3	14	2,5
8.	E.J	5,3	21	16	3,9
9.	A.J	4	20	12	2,7
10.	M.M	5,1	28,4	16	2,4
11.	U.P	4,6	21,8	12	3,3
12.	R.B	4,5	24,9	17	2,4
x	**4,7**		**24,2**	**14,5**	**2,9**
σ	**0,80**		**3,35**	**2,71**	**0,47**
V %	**16,95**		**13,84**	**18,71**	**16,20**

Belbog‘li kurashchi talabalarda ko‘krakdan oshirib tashlash texnik usulini bajarishda maxsus jismoniy va texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari (nazorat guruhi)

T/r	F.I.Sh	“Pilla” mulyajini 10 s. ichida ko‘krakdan oshirib, chap yoki o‘ng tomonga tashlash soni (marta) 3 martta takrorlashda	“Pilla” mulyajini 10 marta ko‘krakdan oshirib chap yoki o‘ng tomonga tashlash vaqti (s.) 3 martta takrorlashda	Ko‘krakdan oshirib tashlash usulini 1 daqada bajarish (marta)) 3 martta takrorlashda	Ko‘krakdan oshirib tashlash usulini bajarish sifati (ball)
1.	X.N	6,1	21,6	15,7	2,8
2.	R.Sh	3	23	16,6	2,9
3.	X.O	5,8	23,9	16,1	1,9
4.	K.X	5	24,4	14	2,4
5.	S.F	4,2	24	13,6	2,7
6.	M.Sh	3,6	26	15,5	3
7.	S.D	5,7	24,3	12,3	2,2
8.	X.S	5,1	25,8	13,2	3,7
9.	N.J	4,6	25,3	15,9	3,5
10.	M.B	4,8	22,8	14	1,6
11.	A.F	4,6	29,9	14,5	2,9
12.	M.O	5,7	22,8	15,6	4
x	**4,85**		**24,5**	**14,8**	**2,8**
σ	**0,93**		**2,15**	**1,34**	**0,71**
V%	**19,19**		**8,78**	**9,07**	**25,44**

Tajriba va nazorat guruhidagi belbog‘li kurashchi talabalarni tadqiqot boshidagi umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasi

T/r	100 m. yugurish (s.)	3000 m masofaga yugurish (daq.)	Turnikda tortilish (martta)	Dinomometrda bel kuchini aniqlash (kg) 3 martta takrorlashda	Dinomometrda son kuchini aniqlash (kg) 3 martta takrorlashda	Turgan joyida uzunlikga sakrash (sm)
Tajriba guruhi						
1.	15,4	16	13	155	130	240
2.	13,56	16,35	16	165	125	220
3.	15,07	14,75	14	161	115	228
4.	13,75	15,26	14	150	90	180
5.	12,05	17	22	149,9	110	250
6.	12,47	18,01	21	130	90	230
7.	15,01	14,48	18	136,7	165	150
8.	15,2	14,48	16	159	110	190
9.	14,25	15	14	120	125	200
10.	13,3	14	21	165	170	290
11.	13	13,48	13	158,9	110	235
12.	13	13	20	166,2	130	240
x	13,8	15,2	16,8	151,39	122,50	221,1
σ	1,14	1,46	3,41	14,99	24,91	36,65
V %	8,21	9,67	20,24	9,90	20,33	16,58
Nazorat guruhi						
1.	12,87	14,4	19	125,5	100	245
2.	15,49	16,29	11	160	130	300
3.	14,75	18,1	16	145,9	99,5	240
4.	13,48	16	17	160	100	230
5.	12,48	13,98	14	111,9	88,9	235
6.	13	13,26	21	174,4	130	216
7.	13,09	14,03	19	160	135	250
8.	12,58	16	15	160	130	200
9.	13,43	14	11	170	90	254
10.	14,21	13	18	122,3	95,1	185
11.	12	13,55	19	177,1	150	215
12.	14,06	13,64	17	175,2	136,6	240
x	13,5	14,7	16,4	153,5	115,4	234,2
σ	1,01	1,55	3,18	22,3	21,7	29,33
V %	7,52	10,55	19,34	14,5	18,8	12,53
P	**>0,05**	**>0,05**	**>0,5**	**>0,05**	**>0,5**	**>0,05**

Jadvaldagi tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi belbog‘li kurashchi talabalar ko‘krakdan oshirib tashlash texnik usulini bajarishda o‘rtacha darajada natijalarga ega. Biroq barcha ko‘rsatkichlarda yuqori variativlik kuzatilmoqda. Tezkorlikda (16,95%), tezlikda (13,84%), chidamlilikda (18, 71%), 369 texnik sifatda (16,20%). Nazorat guruhida mazkur “Pilla” mulyajini 10 soniya ichida ko‘krakdan oshirib tashla h mashqi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 4,85 martani tashkil etadi. “Pilla” mulyajini 10 marta ko‘krakdan oshirib tashlash vaqti bo‘yicha o‘rtacha natija 24,5 soniyani tashkil etib, eng tez bajarilgan vaqt 22,8 soniya (Abduqodirov Jasurbek va O‘rinboyev abdulhay)ga, eng sekin bajarilgan vaqt esa 29,9 soniya (Xo‘jamurodov Anvar)ga to‘g‘ri keladi. Standart og‘ish 2,15, variatsiya koeffitsienti

esa 8,78% bo‘lib, natijalarning tarqoqligi ancha past. Bu esa nazorat guruhida mazkur mashqni bajarish tezligi nisbatan barqaror ekanligini anglatadi. Chidamlilikni ko‘rsatadigan bir daqiqada ko‘krakdan oshirib tashlash soni o‘rtacha natija 14,8 martani tashkil qilmoqda. Eng yuqori natija Rasulov Shamshodbek (16,6 marta)da, eng past natija esa Suyumov Dadabek (12,3 marta)da qayd etilgan. Standart og‘ish 1,34, variatsiya koeffitsienti esa 9,07% bo‘lib, sportchilarning chidamlilik ko‘rsatkichlari orasidagi farqlar uncha katta emas. Bu holat nazorat guruhidagi sportchilar umumiy chidamlilik darajasi bo‘yicha nisbatan bir xil tayyorgarlikka ega ekanini ko‘rsatadi. Texnik sifat bo‘yicha o‘rtacha baho 2,8 ballni tashkil etadi. Eng yuqori baho Muhammadov Oybek (4 ball) va Xolmirzayev Sanjar (3,7 ball)ga to‘g‘ri kelsa, eng past natija Qodirov Jasur (1,6 ball)ga tegishli. Standart og‘ish 0,71, variatsiya koeffitsienti 25,44 bo‘lib, texnik sifat ko‘rsatkichlaridagi tarqoqlik juda yuqori. Bu nazorat guruhida ayrim sportchilar texnik elementlarni mukammal bajarayotgan bo‘lsa-da, boshqalarda texnik xatolar ko‘pligini va umumiy barqarorlik yetarli emasligini ko‘rsatadi. 2-jadval Belbog‘li kurashchi talabalarda ko‘krakdan oshirib tashlash texnik usulini bajarishda maxsus jismoniy va texnik tayyorgarlikko‘rsatkichlarining tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari (nazorat guruhi)

Nazorat guruhidagi ko‘rsatkichlar umumlashtirildi. Tezkorlik va kuch uyg‘unligida katta tarqoqlik mavjud (V=19,19), bu sportchilar o‘rtasidagi tayyorgarlik darajasi bir xil emasligini bildiradi. Mashqni bajarish tezligi nisbatan barqaror (V=8,78) bo‘lib, guruh a’zolari o‘rtasida katta tafovutlar yo‘q. Chidamlilik ko‘rsatkichlari ham barqaror (V=9,07) bo‘lib, sportchilar umumiy darajada o‘xshash natijalarga ega. Texnik sifat bahosi esa eng katta tarqoqlikka ega (V=25,44), bu esa texnik mahorat bo‘yicha sportchilar orasidagi tafovut juda katta ekanini ko‘rsatmoqda. Natija sifatida, nazorat guruhidagi sportchilar jismoniy ko‘rsatkichlarda o‘rtacha barqaror natijalarga ega bo‘lsalar-da, texnik jihatdan sezilarli tafovutlarga ega. Demak, ushbu guruhda mashg‘ulotlarni texnik puxtalik va sifatni oshirishga qaratish zarur. Aks holda, texnik kamchiliklar musobaqa jarayonida yuqori natijalarga erishishni cheklab qo‘yishi mumkin. O‘tkazilgan qiyosiy tahlillar natijasida shuni ko‘rish mumkinki, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida o‘rtacha ko‘rsatkichlar bo‘yicha katta tafovut kuzatilmagan, biroq natijalar ichki tarqoqlik darajasi bilan keskin farqlanadi. Jumladan, tajriba guruhida tezkorlik va texnik sifat ko‘rsatkichlari nisbatan izchilroq va barqarorroq bo‘lsa, nazorat guruhida chidamlilik va mashq bajarish tezligi ko‘rsatkichlari biroz ustunlik qilmoqda. Bu holat sportchilar jismoniy tayyorgarligining turli komponentlari guruhlar kesimida turlicha darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Tajriba guruhida 10 soniya ichida “Pilla” mulyajini ko‘krakdan oshirib tashlash mashqida o‘rtacha natijalar bir-biriga yaqin bo‘lib, sportchilarning tezkorlik va kuch uyg‘unligini namoyon etishda izchilligi yuqori ekani seziladi. Nazorat guruhida esa ayrim sportchilar yuqori natija ko‘rsatgan bo‘lsa-da, boshqalarida bu ko‘rsatkich ancha past darajada bo‘lgan, natijada umumiy tarqoqlik ortgan. Bu esa guruh ichidagi tayyorgarlik darajasi bir xil emasligidan dalolat beradi. Mashqni ma’lum miqdorda takrorlash tezligi bo‘yicha esa nazorat guruhi natijalari biroz barqarorroq chiqdi. Bunda sportchilar orasidagi farqlar nisbatan kichik bo‘lib, mashq bajarish tezligi guruh miqyosida bir xil darajada shakllanganligi kuzatiladi. Tajriba guruhida esa bu ko‘rsatkichda biroz katta tarqoqlik mavjud. Chidamlilik

ko‘rsatkichlari nazorat guruhida ham yuqoriroq, ham barqarorroq ekanligi aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, nazorat guruhidagi sportchilar mashqni uzoq davom ettirish va bir xil tempda bajarishda yaxshiroq natija ko‘rsatmoqda.

Tajriba guruhida esa chidamlilikda ayrim sportchilar yuqori, ayrimlari esa past natija ko‘rsatgani sababli farqlar sezilarli bo‘lgan. Texnik sifat ko‘rsatkichlari esa ikkala guruhda ham past darajada bo‘lib, ayniqsa nazorat guruhida tarqoqlik juda yuqori. Bu ayrim sportchilar texnik elementlarni aniq va puxta bajarayotgan bo‘lsa-da, boshqalarida sezilarli nuqsonlar borligini bildiradi. Tajriba guruhida texnik sifatning barqarorroq chiqishi ularning umumiy tayyorgarlik jarayonida texnik elementlarga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratilganidan dalolat beradi. Umuman olganda, tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlarini qiyoslashdan shunday xulosa qilish mumkinki, har ikkala guruh ham umumiy tayyorgarlik bo‘yicha bir xil darajada natija ko‘rsatmoqda, ammo asosiy farqlar ko‘rsatkichlarning barqarorligida namoyon bo‘lmoqda. Tajriba guruhi ko‘proq izchil va bir xil darajadagi natijalarni namoyon etsa, nazorat guruhida ayrim jismoniy sifatlarda ustunlik mavjud bo‘lsa-da, texnik sifatdagi keskin tafovutlar umumiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, tajriba guruhida mashg‘ulotlarni chidamlilikni oshirishga yo‘naltirish, nazorat guruhida esa texnik puxtalikni takomillashtirish ustuvor vazifa bo‘lishi maqsadga muvofiq. O‘tkazilgan pedagagik tajriba natijalari quydagi hulosalarni qayd etish imkonini berdi. - Mavzuga oid o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari belbog‘li kurashchilarni jismoniy rivojlanish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlarda etarlicha yoritib berilmaganligi aniqlandi.

Belbog‘li kurashchi talaba-sportchilarni jismoniy rivojlanganligi ularni musobaqa jarayonlarida raqibga nisbatan ustunlik qilishi imkoniyatlarini ko‘proq yaratish imkoniga ega bo‘lishini pedagogik tajriba davomida aniqlandi. - Belbog‘li kurash turi bilan shug‘ullanuvchi yoshlarni jismoniy rivojlanishi bo‘yicha saralab olish yuqori malakali sportchilarni tayyorlash imkonini oshirish pedagogik tajribada o‘z isbotini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arslanov Sh.A., Tangriev A.J. Sport pedagogik maxoratini oshirish (dzyudo bo'yicha). T., 2017. – 240 b.

2. Bayturaev E.I. Sport pedagogik mahoratini oshirish. T., 2017. – 198 b.

3. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулиёти. Т., 2001. – 328 b.

4. Mirzanov Sh.S., Karimov U.R. Kurash nazariyasi va uslubiyati., T., 2015. – 290 b.

5. Tastanov N.A. Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2014. – 275 b.

6. Mirzaqulov Sh.A., Mirzanov Sh.S., Artiqov Z.S., Qirg'izboyev M.M., O'quv qo'llanma. Sport pedagogik maxoratini oshirish (Belbog'li kurash bo'yicha). T., 2018. – 180 b. Taymuratov O.R., Atajanov S.F., Karimov U.R., O'quv qo'llanma. Sport pedagogik maxoratini oshirish (Kurash bo'yicha). T., 2018. – 195 b.

EMPATIYA VA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Matyaqubov Kamaladin Kuronboyevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Texnologik ta'lim kafedrasi dotsenti
komolodinmatyakubov87@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda empatiya va emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, umumiy o‘rta ta'lim maktablarida tarbiya jarayonida empatiya va emotsional intellektni shakllantirishning samarali pedagogik usullari, interfaol metodlari hamda ularning o‘quvchilar shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Аннотация

В статье изложены теоретические и практические основы развития эмпатии и эмоционального интеллекта. Также представлен научный анализ эффективных педагогических приемов и интерактивных методов формирования эмпатии и эмоционального интеллекта в образовательном процессе общеобразовательных школ, а также рассмотрена их значимость для личностного развития учащихся.

Abstract

This paper outlines the theoretical and practical foundations for developing empathy and emotional intelligence. It also provides a scientific analysis of effective pedagogical techniques and interactive methods for fostering empathy and emotional intelligence within the educational process in general secondary schools, as well as their significance for the personal development of students.

Kalit so‘zlar: empatiya, emotsional intellekt, tarbiya, neyropedagogika, kommunikativ kompetensiya, hissiy ong, ijtimoiy ko‘nikmalar, refleksiya, pedagogik texnologiyalar.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida nafaqat bilimli, balki ma'naviy barkamol, hissiy jihatdan yetuk hamda boshqalar bilan samarali muloqot qila oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Shu sababli empatiya va emotsional intellektni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Empatiya – insonning boshqa kishining hissiyotlarini tushunishi, ularni his qila olishi va unga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatidir. Emotsional intellekt esa insonning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish hamda samarali ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish kompetensiyasidir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori emotsional intellektga ega o‘quvchilar nafaqat o‘qishda, balki ijtimoiy hayotda ham muvaffaqiyatliroq bo‘ladilar. Shu sababli empatiya va emotsional intellektni rivojlantirish ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Empatiya va emotsional intellektning tarkibiy qismlari

Empatiya quyidagi komponentlardan iborat:

- kognitiv empatiya (boshqani tushunish);

- affektiv empatiya (uning hissiyotlarini his qilish);
- xulqiy empatiya (unga yordam berishga tayyorlik).

Emotsional intellekt esa quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘z his-tuyg‘ularini anglash;
- his-tuyg‘ularni boshqarish;
- ichki motivatsiya;
- boshqalarning hissiyotlarini tushunish;
- samarali muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalar.

Mazkur komponentlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsning ijtimoiy moslashuvi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Empatiya va emotsional intellekt qanday rivojlanadi?

Empatiya va emotsional intellekt tug‘ma qobiliyat emas. Ular ta'lim, tarbiya, oilaviy muhit hamda ijtimoiy tajriba asosida bosqichma-bosqich rivojlanadi.

1. Oiladagi tarbiya orqali

Farzand bilan samimiy muloqot qilish, uning hissiyotlariga hurmat bilan qarash hamda ota-onaning shaxsiy namunasi empatiya rivojlanishining asosiy omillaridan biridir.

Bolaga:

- fikrini erkin aytish;
- boshqalarga yordam berish;
- kechirimlilik;
- hurmat;
- mehribonlik

kabi qadriyatlarni singdirish emotsional intellektning shakllanishiga xizmat qiladi.

2. Ta'lim jarayonida

Maktab o‘quvchilarning hissiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi.

Tarbiya fani darslarida quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Rol o‘ynash

O‘quvchilar turli hayotiy vaziyatlarni ijro etish orqali boshqalarning hissiyotlarini tushunishni o‘rganadilar.

Natijada:

- hamdardlik;
- sabr;
- mas'uliyat;
- muloqot madaniyati

rivojlanadi.

Keys-stadi

Hayotiy muammoli vaziyatlar tahlil qilinadi.

Masalan:

Sinfdagi yangi o‘quvchi tengdoshlari tomonidan qabul qilinmasa qanday yo‘l tutish kerak?

Bunday vaziyatlarni tahlil qilish empatik fikrlashni rivojlantiradi.

Munozara

Turli nuqtai nazarlarni tinglash orqali o‘quvchilar:

- bag‘rikenglik;
- hurmat;
- murosaga kelish

ko‘nikmalarini egallaydilar.

Aqliy hujum

O‘quvchilar muammoni hal qilishning turli variantlarini taklif qiladilar.

Bu esa:

- ijodiy fikrlash;
- hissiy moslashuvchanlik;
- ijtimoiy faollikni

rivojlantiradi.

Vaziyatli topshiriqlar

O‘quvchilarga real hayotga yaqin topshiriqlar beriladi.

Masalan:

"Sizning do‘stingiz xafa bo‘lib qoldi. Siz qanday yo‘l tutasiz?"

Bu topshiriqlar empatik qaror qabul qilishni rivojlantiradi.

Bahs-munozara

Bahs davomida o‘quvchilar:

- fikr almashadi;
- boshqalarning nuqtai nazarini hurmat qiladi;
- hissiyotlarni nazorat qilishni o‘rganadi.

Neyropedagogik yondashuv

So‘nggi yillarda neyropedagogika empatiya va emotsional intellektni rivojlantirishda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Miya faoliyatiga oid tadqiqotlar quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

- hissiy tajribalar neyron bog‘lanishlarni mustahkamlaydi;
- ijobiy muloqot o‘quv motivatsiyasini oshiradi;
- refleksiya hissiy boshqaruvni yaxshilaydi;
- hamkorlikda o‘qitish empatiyani kuchaytiradi.

Neyropedagogik texnologiyalar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki hissiy jihatdan ham rivojlanadi.

Empatiya va emotsional intellektni rivojlantirish vositalari

Quyidagi vositalar yuqori samaradorlikka ega:

- refleksiya mashqlari;
- hissiyotlar kundaligini yuritish;
- guruhli loyihalar;
- kooperativ ta'lim;
- psixologik treninglar;
- art-terapiya;
- drama elementlari;
- multimedia vositalari;
- videoroliklarni tahlil qilish;
- ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish.

Mazkur usullar o‘quvchilarning hissiy tajribasini boyitadi.

Pedagogning roli

Empatiya va emotsional intellektni rivojlantirishda o‘qituvchi yetakchi subyekt hisoblanadi.

Pedagog:

- o‘quvchilarga nisbatan hurmatli munosabatda bo‘lishi;
- faol tinglash texnikasidan foydalanishi;
- ijobiy psixologik muhit yaratishi;
- individual yondashuvni qo‘llashi;
- rag‘batlantirish metodlaridan foydalanishi lozim.

Pedagogning shaxsiy namunasi o‘quvchilarda empatik xulq-atvorni shakllantiruvchi eng muhim omildir.

Kutilayotgan natijalar

Empatiya va emotsional intellektni muntazam rivojlantirish natijasida o‘quvchilarda:

- hissiy barqarorlik ortadi;
- nizolar kamayadi;
- kommunikativ kompetensiya rivojlanadi;
- jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi;
- liderlik qobiliyati kuchayadi;
- akademik natijalar yaxshilanadi;
- stressga chidamlilik ortadi;
- ijtimoiy moslashuv darajasi oshadi.

Shuningdek, o‘quvchilarda insonparvarlik, bag‘rikenglik va fuqarolik mas'uliyati kabi fazilatlar mustahkamlanadi.

Xulosa

Empatiya va emotsional intellekt XXI asr kompetensiyalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularni rivojlantirish uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, oilaviy tarbiya, maktab muhiti, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda neyropedagogik yondashuvlar uyg‘unligida samarali natija beradi. Ayniqsa, tarbiya fani darslarida rol o‘ynash, keys-stadi, bahs-munozara, vaziyatli topshiriqlar, refleksiya va hamkorlikdagi ta'lim metodlarini qo‘llash o‘quvchilarda empatik fikrlash, hissiy boshqaruv va samarali ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada jamiyat uchun ma'naviy barkamol, hissiy jihatdan yetuk va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman D. *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books.
2. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D. *Emotional Intelligence: Theory and Practice*.
3. Rogers C. *On Becoming a Person*.
4. Hoffman M.L. *Empathy and Moral Development*. Cambridge University Press.
5. Vygotskiy L.S. *Psixologiya razvitiya rebenka*.
6. O‘zbekiston Respublikasi "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Tarbiya fani bo‘yicha me'yoriy hujjatlari.

ALALIYA VA AFAZIYADA FONOLOGORITMIK MASHQLARNI ADAPTATSIYALASH OMILLARI

Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti “Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada alaliya va afaziyada fonologoritmik mashqlarni adaptatsiyalash omillari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Fonologoritmik mashqlarning neyrofiziologik asoslari, ularning nutq faoliyatiga ta’siri hamda nutq buzilishlarini korreksiya qilishdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, alaliya va afaziyada nutq buzilishining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, fonologoritmik mashqlarni moslashtirishda hisobga olinadigan asosiy omillar — buzilishning tabiati va darajasi, yosh va neyropsixologik xususiyatlar, fonematik eshituv darajasi, ritm va temp, verbal material hajmi, prosodiya va intonatsiya kabi ko‘rsatkichlar tizimli ravishda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: fonologoritmika, alaliya, afaziya, nutq buzilishlari, fonematik eshituv, artikulyatsiya, ritm, prosodiya, nutqni rivojlantirish, nutqni tiklash

Hozirgi kunda nutq buzilishlarini korreksiya qilish tizimida integrativ yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shunday yondashuvlardan biri — fonologik va ritmik komponentlarni birlashtirgan fonologoritmik mashqlar bo‘lib, ular nutqning fonetik-fonematik tizimini, prosodik xususiyatlarini va artikulyator faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, alaliya (nutqning rivojlanmasligi yoki kechikishi) hamda afaziya (orttirilgan nutq buzilishi) holatlarida mazkur mashqlarni to‘g‘ri moslashtirish (adaptatsiya qilish) ularning samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Fonologoritmik mashqlar nutq faoliyati va harakat tizimining uzviy bog‘liqligiga asoslangan kompleks pedagogik-korreksion yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari psixolingvistika, neyropsixologiya va logopediya fanlari kesishmasida shakllangan bo‘lib, nutqning temporal (vaqtga oid) va ritmik tashkil etilishi inson miyasida harakatni boshqaruvchi tizimlar bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqning ritmik tuzilishi va harakat koordinatsiyasi umumiy neyron mexanizmlar asosida amalga oshadi. Xususan, bosh miyaning frontal va temporal sohalari, shuningdek, serebellum va bazal gangliyalar nutq ritmini va harakatni uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan ritm nafaqat musiqiy hodisa, balki nutqni tashkil etuvchi asosiy struktur komponentlardan biri sifatida qaraladi.

Fonologoritmik mashqlar aynan neyrofiziologik mexanizmlarga tayangan holda nutq faoliyatini rivojlantirish va buzilgan nutqni tiklashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ritm va harakatning uyg‘unligi asosida tashkil etilgan ushbu mashqlar nutq jarayonining turli komponentlariga kompleks ta’sir ko‘rsatadi hamda ularning o‘zaro integratsiyasini ta’minlaydi.

Ritmik stimullar yordamida nutqni tashkil etish, avvalo, bo‘g‘in segmentatsiyasi jarayonini faollashtiradi. Ya’ni nutq oqimini bo‘g‘inlarga ajratish qobiliyati shakllanib, bu fonologik ong rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bo‘g‘in darajasida nutqni idrok etish va ishlab chiqarishning mustahkamlanishi keyinchalik tovush va so‘z darajasidagi faoliyatni osonlashtiradi.

Shuningdek, fonologoritmik mashqlar temporal tashkil etishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutq elementlarini vaqt bo‘yicha to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish, pauzalarni saqlash, ritmni his qilish kabi ko‘nikmalar nutqning izchilligi va mantiqiyligini ta’minlaydi. Temporal tashkil etishning shakllanishi ayniqsa nutq oqimini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ritmik mashqlar artikulyatsion rejalashtirishni optimallashtiradi. Tovushlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan harakat dasturlari ritm yordamida tartibga solinadi, bu esa artikulyatsion apparat faoliyatini muvofiqlashtiradi. Natijada tovushlarning aniq va to‘g‘ri talaffuzi shakllanadi. Yana bir muhim jihat — prosodik tuzilishning shakllanishidir. Ritm, urg‘u va intonatsiya nutqning ifodaliligini ta’minlovchi asosiy omillar bo‘lib, fonologoritmik mashqlar orqali ularni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Prosodiyaning shakllanishi nutqning tabiiyligi, ravonligi va kommunikativ samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, fonologoritmik mashqlar nutqning fonologik, artikulyatsion va prosodik komponentlarini yagona tizimda rivojlantiruvchi integrativ metod sifatida namoyon bo‘ladi hamda ularning amaliy ahamiyati nutq buzilishlarini korreksiya qilish jarayonida ayniqsa muhimdir. Bundan tashqari, ritm asosidagi mashqlar sensor va motor tizimlar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi, bu esa nutq faoliyatining umumiy samaradorligini oshiradi. Shu sababli fonologoritmik mashqlar nutqni rivojlantirishda ham, buzilgan nutqni tiklashda ham kompleks va samarali vosita sifatida keng qo‘llanadi.

Alaliya — bu markaziy nerv tizimining organik zararlanishi natijasida nutqning yetarli darajada shakllanmasligi bilan xarakterlanadigan murakkab nutq buzilishidir. Mazkur holatda nutq faoliyatining barcha komponentlari — fonetik, fonematik, leksik va grammatik tizimlar — tizimli ravishda rivojlanmagan bo‘ladi.

Alaliyaga xos nutq buzilishlari tizimli xarakterga ega bo‘lib, ular nutq faoliyatining barcha komponentlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu buzilishlar, avvalo, fonematik, artikulyatsion va prosodik darajalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi hamda bola nutqining shakllanish jarayoniga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.

Xususan, alaliyada fonematik eshituvning yetishmovchiligi kuzatiladi, ya’ni bola nutq tovushlarini farqlash, ularni bir-biridan ajratish hamda nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat fonologik ongning sust rivojlanishiga olib kelib, so‘zlarni to‘g‘ri idrok etish va qayta ishlab chiqarish jarayonini murakkablashtiradi.

Shu bilan birga, artikulyatsion apparat faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi natijasida tovushlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilishda kamchiliklar yuzaga keladi. Artikulyatsion harakatlarning noaniqligi va koordinatsiyaning sustligi tovushlarning buzib aytilishiga yoki umuman tushirib qoldirilishiga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, alaliyada nutqning ritmik-struktur tashkil etilishidagi buzilishlar ham muhim o‘rin tutadi. Bunda bola bo‘g‘inlar ketma-ketligini saqlash, urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish hamda nutq oqimini izchil tashkil etishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Natijada nutqning umumiy ritmi va prosodik tuzilishi buziladi, bu esa nutqning tushunarliligi va ravonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur xususiyatlar alaliyada fonologoritmik mashqlarni qo‘llash zaruratini asoslaydi, chunki aynan ritm, harakat va nutqning uyg‘unlashuvi orqali fonematik, artikulyatsion va prosodik komponentlarni kompleks rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, alaliyada nutq va harakat o‘rtasidagi koordinatsiya ham yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli fonologoritmik mashqlar bu toifadagi bolalar uchun shakllantiruvchi (formativ) ahamiyatga ega bo‘lib, ular nutq tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Afaziya — bu bosh miyaning lokal zararlanishi (ko‘pincha insult, travma yoki o‘sma natijasida) oqibatida ilgari shakllangan nutqning buzilishi bilan tavsiflanadi. Afaziyada nutq faoliyati komponentlari turlicha darajada zararlanadi va bu buzilishlar bemorning individual nevrologik holatiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Afaziyada quyidagi asosiy buzilishlar kuzatiladi:

- ekspressiv nutqning buzilishi — so‘zlarni topish, gap tuzish va nutqni ravon ifodalashdagi qiyinchiliklar;
- reseptiv nutqning buzilishi — nutqni tushunishning qisman yoki to‘liq buzilishi;
- fonologik qayta ishlashning buzilishi — tovush va bo‘g‘in darajasida xatoliklarning paydo bo‘lishi.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, afaziyada nutqning ritmik va melodik komponentlari nisbatan yaxshi saqlanib qolishi mumkin. Shu sababli ritm va intonatsiyaga asoslangan mashqlar nutqni tiklashda samarali vosita sifatida qo‘llanadi.

Fonologoritmik mashqlar afaziyada tiklovchi-kompensator funksiyani bajaradi. Ular saqlanib qolgan neyron aloqalarni faollashtirish, nutqning avtomatlashtirilgan elementlarini qayta tiklash va yangi kompensator mexanizmlarni shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, melodik intonatsion terapiya elementlari asosida tashkil etilgan mashqlar nonfluent afaziya holatlarida ijobiy natijalar beradi. Fonologoritmik mashqlarni samarali tashkil etish ularni individual xususiyatlarga moslashtirish, ya’ni adaptatsiyalash jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Adaptatsiya — bu mashqlar mazmuni, shakli, temp va murakkabligini nutq buzilishining turi, darajasi hamda shaxsning psixofiziologik imkoniyatlariga mos holda o‘zgartirish jarayonidir. Mazkur jarayonni ilmiy asosda tashkil etish korreksion-pedagogik ishlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda nutqni rivojlantirish yoki tiklash jarayonini optimallashtiradi.

Fonematik eshituv va fonologik qayta ishlash darajasi fonologoritmik mashqlarni tanlashda hal qiluvchi omillardan biridir.

Alaliyada fonematik differensiasiya sust rivojlanganligi sababli tovushlarni farqlash, ularni eslab qolish va nutqda qo‘llashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu bois mashqlar yirik nutq birliklaridan kichik birliklarga o‘tish tamoyili asosida tashkil etiladi, ya’ni ritm, bo‘g‘in, tovush va so‘z ketma-ketligi asosida olib boriladi. Bu yondashuv fonologik ongni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi.

Afaziyada esa fonologik buzilishlar turlicha namoyon bo‘ladi. Shu sababli mashqlar fonologik nuqsonning turiga qarab individuallashtiriladi. Masalan,

artikulyator apraksiya mavjud bo‘lsa, ritmik qo‘llab-quvvatlash orqali tovushlarni ishlab chiqarish jarayoni yengillashtiriladi va nutq motorikasi faollashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. M.Y. Ayupova. Logopediya. O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007, 2011-y.
2. Ayupova M.Yu., X.M.Po‘latova. Logopedik ritmika. Darslik. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
3. Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya. Jizzax.: “Ruhshona servis”, 2021
4. Nurkeldiyeva D.A., Chicherina Ya.Ye. Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologikpedagogik, logopedik tekshirish. – T.: 2014
5. Muzaffarova, X. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg‘ulotlarni o‘yinlar asosida tashkillashtirish. Scienceweb academic papers collection. 2021

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MODELI

Sodiqov Muhammadali Abdullaxat O‘g‘li
ADPI o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishning bosqichma-bosqich metodik modeli ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning psixofiziologik va lingvistik rivojlanish xususiyatlari hisobga olinib, nutqni rivojlantirishning tayyorlov, daktil, og‘zaki-daktil, og‘zaki nutq hamda mustaqil yozma nutq bosqichlaridan iborat metodik modeli tavsiflangan. Har bir bosqich uchun ta'lim mazmuni, didaktik metodlar, kommunikativ mashqlar va multisensor yondashuv asosidagi pedagogik vositalar tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: kar o‘quvchilar, zaif eshituvchi o‘quvchilar, og‘zaki nutq, yozma nutq, metodik model, nutq rivojlanish bosqichlari, daktil nutq, og‘zaki-daktil nutq, multisensor yondashuv, diagnostika, surdopedagogika.

Zamonaviy maxsus pedagogikada kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirish ularning shaxs sifatida kamol topishi, ijtimoiy hayotga moslashuvi va ta'limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Nutq nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur, bilish faoliyati va shaxsiy rivojlanishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Shu bois eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish maxsus metodik yondashuvlarni talab qiladigan murakkab pedagogik jarayon sanaladi.

Eshituvchi bolalarda til tabiiy nutqiy muhit ta'sirida bosqichma-bosqich shakllansa, kar va zaif eshituvchi bolalarda ushbu jarayon maxsus tashkil etilgan ta'lim orqali amalga oshiriladi. Eshitish analizatorining cheklanganligi sababli so‘zlarni idrok etish, fonetik birliklarni farqlash, grammatik qurilmalarni egallash va bog‘lanishli

nutqni rivojlantirish murakkablashadi. Natijada nutqning shakllanishi ancha sekin kechadi va o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga qarab farqlanadi. Mazkur holat nutqni rivojlantirish jarayonini tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan bosqichlar bo‘yicha tashkil etishni taqozo etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda nutqni rivojlantirishning turli metodlari ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati alohida ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Amaliyot esa shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki va yozma nutqning uzviy rivojlanishini ta'minlaydigan, daktil, og‘zaki-daktil va og‘zaki nutq bosqichlarini yagona metodik tizim sifatida birlashtiradigan modelga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, boshlang‘ich ta'lim bosqichida o‘quvchilarning psixofiziologik rivojlanishi, lug‘at boyligi, qoldiq eshitish imkoniyati, ko‘rish orqali idrok etish darajasi va kommunikativ ehtiyojlarini hisobga oluvchi bosqichma-bosqich metodik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Boshlang‘ich sinfda nutqni rivojlantirishning bosqichli modeli o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish jarayonini izchil tashkil etish, har bir bosqichda mos metod va vositalarni tanlash, o‘quv materialini murakkablik darajasiga ko‘ra ketma-ketlikda berish hamda nutqiy rivojlanish dinamikasini muntazam diagnostika qilish imkonini yaratadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini parallel rivojlantirish bilan birga, ularning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish uzoq davom etadigan, izchil hamda maxsus pedagogik yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Eshitish analizatori faoliyatining cheklanganligi tufayli til birliklarini tabiiy ravishda egallash imkoniyatlari sezilarli darajada kamayadi. Natijada fonetik idrok, lug‘at boyligi, grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirish va bog‘lanishli nutqni shakllantirish eshituvchi tengdoshlariga nisbatan sekinroq kechadi. Shu sababli ona tili ta'limida nutqni rivojlantirish jarayonini tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan bosqichlar ketma-ketligi asosida tashkil etish zarur. Bosqichma-bosqich metodik model o‘quvchilarning yosh, psixofiziologik va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda nutq ko‘nikmalarini izchil shakllantirish, ularning kommunikativ ehtiyojlarini rivojlantirish hamda og‘zaki va yozma nutqning uzviyligini ta'minlash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan metodik model besh o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich keyingisi uchun tayanch vazifasini bajaradi. Modelning birinchi bosqichi motivatsion-diagnostik bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilarning eshitish qoldig‘i, lug‘at boyligi, daktil nutqni egallash darajasi, og‘zaki va yozma nutq holati hamda kommunikativ ehtiyojlari kompleks diagnostika qilinadi. Diagnostika natijalari asosida har bir o‘quvchi uchun individual rivojlanish yo‘nalishi belgilanadi. Shu bilan birga, darslarda muloqotga motivatsiyalovchi pedagogik vaziyatlar yaratiladi. Bunda o‘quvchilarni savol berishga, javob qaytarishga, predmet va hodisalarni ifodalashga undovchi o‘yinlar, kuzatish mashqlari, rolli vaziyatlar hamda vizual materiallardan foydalaniladi. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi o‘quvchilarda tilni o‘rganishga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirish va keyingi bosqichlarga psixologik tayyorgarlik hosil qilishdan iborat.

Ikkinchi bosqich leksik-semantik va daktil kommunikatsiyani shakllantirish bosqichi bo‘lib, unda yangi tushunchalar va til birliklarini egallash multisensor yondashuv asosida tashkil etiladi. O‘quvchilar so‘zning ma'nosini predmet, rasm, harakat, mimika va daktil belgilar orqali idrok etadilar. Har bir yangi leksik birlik avvalo ko‘rgazmali vositalar yordamida anglatiladi, so‘ng daktil alifbo orqali mustahkamlanadi va oddiy kommunikativ vaziyatlarda qo‘llaniladi. Bu bosqichda lug‘at boyligini kengaytirish, predmet va hodisalarning belgilarini ifodalash, sodda gaplarni tuzish hamda nutqning semantik asoslarini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Daktil nutq bu jarayonda mustaqil maqsad emas, balki og‘zaki va yozma nutqqa o‘tishni ta'minlovchi metodik ko‘prik vazifasini bajaradi.

Metodik modelning uchinchi bosqichi og‘zaki-daktil integratsiya bosqichi bo‘lib, unda daktil va og‘zaki nutq parallel rivojlantiriladi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar yangi so‘zlarni nafaqat daktil orqali, balki og‘zaki talaffuz qilish, labdan o‘qish va eshitish qoldig‘i imkoniyatlaridan foydalanish orqali ham o‘zlashtiradilar. Darslarda dialogik muloqot, savol-javoblar, juftlik va guruh ishlari, rolli o‘yinlar hamda muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar keng qo‘llaniladi. O‘qituvchi nutq namunalarini vizual tayanchlar bilan birgalikda taqdim etib, daktil vositalar ulushini bosqichma-bosqich kamaytiradi. Natijada o‘quvchilar og‘zaki nutqdan faol foydalanishga o‘tadilar va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi.

To‘rtinchi bosqich og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish bosqichi hisoblanadi. Mazkur bosqichda og‘zaki muloqot davomida shakllangan lug‘at va grammatik bilimlar yozma nutq faoliyatiga ko‘chiriladi. O‘quvchilar matnni o‘qish, reja asosida hikoya tuzish, rasm asosida matn yozish, gaplarni kengaytirish, matnni davom ettirish va ijodiy yozma topshiriqlarni bajarish orqali yozma nutqni rivojlantiradilar. Og‘zaki va yozma nutqning o‘zaro uyg‘unligi ta'minlanib, o‘quvchilarning fikrni izchil va mantiqiy ifodalash malakalari takomillashadi. Bu bosqichda o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va nutqiy rivojlanish darajasiga mos ravishda differensiallashtiriladi.

Modelning yakuniy bosqichi kommunikativ-refleksiv bosqich bo‘lib, u o‘quvchilarning shakllangan nutqiy kompetensiyalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiriladi. Ushbu bosqichda mustaqil dialog va monologlar tuzish, kichik matnlar yaratish, turli mavzularda fikr bildirish, o‘z faoliyatini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Refleksiv faoliyat o‘quvchilarning o‘z nutqidagi yutuq va kamchiliklarni anglashiga, ularni mustaqil ravishda bartaraf etish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada og‘zaki va yozma nutq bir-birini to‘ldiruvchi kommunikativ tizim sifatida rivojlanib, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va ta'lim faoliyatidagi muvaffaqiyati uchun zarur bo‘lgan nutqiy kompetensiyalar barqaror shakllanadi.

Taklif etilgan bosqichma-bosqich metodik modelning o‘ziga xos jihati shundaki, unda muloqotga motivatsiyalash, vaziyatboplik, moslashuvchanlik va individuallashtirish tamoyillari barcha bosqichlarga uzviy singdirilgan. Shuningdek, daktil, og‘zaki-daktil va og‘zaki nutq bir-biridan ajratilgan mustaqil yo‘nalishlar sifatida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan va ketma-ket rivojlanuvchi yagona metodik tizim sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv nutqni rivojlantirishning izchilligini ta'minlash bilan birga, har bir o‘quvchining individual rivojlanish sur'ati va

kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хамидова М. Ақли заиф ўқувчилар луғат бойлигини оширишнинг коррекцион-педагогик асослари. П.ф.н. дисс. автореф.-Т., 2001.-20 б..

2. Pulatova S.M. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va 1-sinf o‘quvchilarni tovush rivojlantirish texnologiyasi. Tosh – 2023

3. Alimxo‘jayeva F. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivolantirishda didaktik materiallardan foydalanish. p.f.n. diss... avtoref. Moskva.-1992. 18 b.

ONA TILINI O‘QITISHDA NEYROPEDAGOGIK VA LINGVODIDAKTIK JIHATLARNING O‘RNI HAMDA AHAMIYATI

Temirbekova A.O.
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tilini o‘qitishda neyropedagogik asoslarning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Ona tilini o‘zlashtirish jarayonida neyrokognitiv mexanizmlar, neyroplastiklik, individual psixofiziologik xususiyatlar hamda hissiy-motivatsion omillarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ona tilini o‘qitishni individuallashtirish, kognitiv yuklamani optimallashtirish, nutqiy tafakkurni rivojlantirish hamda raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: neyropedagogika, ona tili ta’limi, neyroplastiklik, neyrokognitiv jarayonlar, nutqiy tafakkur, psixolingvistika, individuallashtirilgan ta’lim, kognitiv yuklama, raqamli ta’lim, ta’lim texnologiyalari, motivatsiya, fanlararo yondashuv.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретическое и практическое значение нейропедагогических основ в обучении родному языку. Освещена роль нейрокогнитивных механизмов, нейропластичности, индивидуальных психофизиологических особенностей, а также эмоционально-мотивационных факторов в процессе усвоения родного языка. Кроме того, обоснованы педагогические возможности индивидуализации обучения родному языку с учетом возрастных и индивидуальных особенностей учащихся, оптимизации когнитивной нагрузки, развития речевого мышления и эффективного использования цифровых образовательных технологий.

Ключевые слова: нейропедагогика, обучение родному языку, нейропластичность, нейрокогнитивные процессы, речевое мышление, психолингвистика, индивидуализированное обучение, когнитивная нагрузка, цифровое образование, образовательные технологии, мотивация, междисциплинарный подход.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical significance of neuropedagogical foundations in mother tongue education. It examines the role of neurocognitive mechanisms, neuroplasticity, individual psychophysiological

characteristics, and emotional-motivational factors in the process of mother tongue acquisition. Furthermore, the study substantiates the pedagogical potential of personalizing mother tongue instruction by considering learners' age-related and individual characteristics, optimizing cognitive load, fostering speech thinking, and effectively integrating digital educational technologies into the learning process.

Keywords: neuropedagogy, mother tongue education, neuroplasticity, neurocognitive processes, speech thinking, psycholinguistics, personalized learning, cognitive load, digital education, educational technologies, motivation, interdisciplinary approach.

Ona tilini o‘qitishda neyropedagogik asoslarning o‘rni va ahamiyati o‘quvchilar kognitiv, psixofiziologik hamda individual xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari bilan belgilanadi. Ushbu soha pedagogika, nevrologiya, tilshunoslik va psixolingvistika tutashgan joyda shakllangan bo‘lib, bu ona tilini o‘qitish jarayonini biologik, kognitiv va ijtimoiy-madaniy omillarning o‘zaro ta’sirining murakkab tizimi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Shaxsiyatni rivojlantirishda ona tili alohida o‘rin tutadi, chunki u tafakkur, muloqot va ijtimoiylashuvning asosiy vositasidir. Neyropedagogika nuqtai nazaridan uning rivojlanishi nutqni idrok etish, qayta ishlash va yaratish uchun mas’ul bo‘lgan turli funksional miya tizimlarining faol ishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, neyroplastiklik muhim ahamiyatga ega, bu hayot davomida til ko‘nikmalarini yaxshilash imkoniyatini beradi [2]. Bu jarayon ayniqsa bolalik davrida qizg‘in kechadi, bu esa ona tilini erta va tizimli o‘rganishni nihoyatda muhim ekanligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi A.D. Barbitovaning fikriga ko‘ra, “NLDning mohiyati insonning sub’ektiv tajribasini uning tashqi xulq-atvori bilan muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lganligi sababli, bu uni o‘rta maktab o‘quvchilariga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim vositasi sifatida ishlatish uchun keng imkoniyatlar ochadi. NLD-dan o‘rta maktab o‘quvchisining fan tajribasini kengaytirish va uning xatti-harakatlarini modellashtirishga yordam beradigan vosita (vosita) sifatida foydalanish o‘quv jarayonida mas’uliyat va shaxsiy yetuklikni rivojlantirishga yordam beradi, bu uning faoliyatini o‘zini o‘zi tashkil yetishda namoyon bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim doirasida o‘rta maktab o‘quvchilariga o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida samarali natijalar beradigan vositalardan qanday foydalanishni o‘rgatish mumkinmi degan savol; shaxsiy o‘zgarish (shaxsiy) vazifasini qo‘ygan talabalarga yordam berish o‘sish) uni hal qilish yo‘llarini topishda hali ham ochiq qolmoqda” [5].

Neyropedagogik asoslar ona tilimizni o‘qitishning maqsad va vazifalarini qayta ko‘rib chiqishga imkon beradi. An’anaviy yondashuv qoidalar va me’yorlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, neyropedagogika fonetik, leksik, grammatik va pragmatik komponentlarni o‘z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida til qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu turli xil kommunikativ vaziyatlarda tilni mazmunli va funksional foydalanishga o‘tishni anglatadi.

Xo‘sh, fanlararo differensiatsiya deb ko‘p bora ta’kidlar bildiramiz. Bu borada olimlarimizning yondashuvlari va fikri qanday? Jumladan, mavzu yuzasidan professor N.Shermuhamedova quyidagicha mushohada yuritadi: “Differensiatsiya va integratsiya jarayonlarining dialektik ziddiyatlarga to‘la o‘zaro aloqasi natijasida ilmiy

bilim tizimi yanada murakkabroq tus oladi. Turli fanlar o‘rtasidagi g‘ov-to‘siqlar buziladi. Differensiatsiya natijasida fanda mavjud nazariyalarning jami soni ko‘payadi, lekin, shu bilan bir vaqtda, integratsiyalashuv yo‘lidagi harakatlar oz sonli fundamental nazariyalarning o‘rni va ahamiyatiini kuchaytiradi. Masalan, hozirgi zamon tabiatshunosligida minglab turli-tuman nazariyalar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va mustaqillik, qo‘shimchalilik va raqobat, muvofiqlik va tafovut, muqobillik va nomuvofiqlik kabi son-sanoqsiz rang-barang munosabatlar mavjud. Ammo fundamental nazariy tizimlar (masalan, mexanika, elektrodinamika, elementar zarralar nazariyasi) barmoq bilan sanarli bo‘lib, ular boshqa ko‘p sonli tabiiy-ilmiy nazariyalarning negizini tashkil etadi” [4].

Asosiy jihatlardan biri talabalarning individual farqlarini hisobga olishdir. Neyropedagogika bolalarning axborotni qayta ishlash tezligi, xotira xususiyatlari, diqqat darajasi va idrok turi bilan farq qilishini ta’kidlaydi. Shu munosabat bilan ona tilini o‘qitish tabaqalashtirish va individuallashtirish tamoyillariga asoslanishi kerak. Turli xil usullardan foydalanish - vizual va eshitishdan idrokning turli kanallaridan foydalanishga imkon beradi va materialni yanada mustahkam assimilyatsiya qilishga yordam beradi.

Kognitiv yukni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish juda muhimdir. Ona tilini o‘rganish imlo, tinish belgilari, sintaksis va stilistikani o‘z ichiga olgan katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Neyropedagogik yondashuv materialni bosqichma-bosqich kiritishni, uni muntazam takrorlash va mustahkamlashni o‘z ichiga oladi, bu barqaror neyron aloqalarni shakllantirishga hissa qo‘shadi va talabalarning ortiqcha yuklanishiga to‘sqinlik qiladi.

Nutqiy tafakkurni rivojlantirish muhim sohadir. Ona tilini o‘qitish nafaqat savodxonlikni shakllantirishga, balki fikrlarni tahlil qilish, umumlashtirish, bahslashish va ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga ham hissa qo‘shishi kerak. Neyropedagogika nuqtai nazaridan bunga faol o‘qitish usullari orqali erishiladi, masalan, munozaralar, matnlarni tahlil qilish, insho yozish, loyiha kabi ishlar. Bunday ish shakllari kognitiv faoliyatni rag‘batlantiradi va miyaning turli funksiyalarini birlashtirishga yordam beradi.

Ta’limning hissiy va motivatsion komponenti alohida rol o‘ynaydi. Ijobiy his-tuyg‘ular, mavzuga qiziqish va muvaffaqiyat hissi materialni yanada samarali o‘rganishga yordam beradi. Neyrologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hissiy holat xotira va hissiyot jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun qulay ta’lim muhitini yaratish ona tilini muvaffaqiyatli o‘qitishning muhim shartidir.

Mazkur muammolar tahilida hozirda dolzarb bo‘lib, ilmiy ahamiyat kasb etayotgan kattalar ta’limining nazariy va amaliy muammolari ham neyropedagogik tadqiqotlar qatorida muhim o‘rin tutadi.

1. Hobfoll, S. E. (1989). Conservation of resources: A new attempt at conceptualizing stress. *American Psychologist, 44*(3), 513–524. https://doi.org/10.1037/0003-066X.44.3.513
2. Cohen, S., & Wills, T. A. (1985). Stress, social support, and the buffering hypothesis. *Psychological Bulletin, 98*(2), 310–357. https://doi.org/10.1037/0033-2909.98.2.310
3. Bakker, A. B., & Demerouti, E. (2007). The Job Demands–Resources model: State of the art. *Journal of Managerial Psychology, 22*(3), 309–328. https://doi.org/10.1108/02683940710733115
4. Lent, R. W., Brown, S. D., & Hackett, G. (1994). Toward a unifying social cognitive theory of career and academic interest, choice, and performance. *Journal of Vocational Behavior, 45*(1), 79–122. https://doi.org/10.1006/jvbe.1994.1027
5. Savickas, M. L., & Porfeli, E. J. (2012). Career Adapt-Abilities Scale: Construction, reliability, and measurement equivalence across 13 countries. *Journal of Vocational Behavior, 80*(3), 661–673. https://doi.org/10.1016/j.jvb.2012.01.011

6. Hobfoll, S. E. (2001). The influence of culture, community, and the nested-self in the stress process: Advancing conservation of resources theory. *Applied Psychology*, *50*(3), 337–421. https://doi.org/10.1111/1464-0597.00062

7. Lent, R. W., & Brown, S. D. (2013). Social cognitive model of career self-management: Toward a unifying view of adaptive career behavior across the life span. *Journal of Counseling Psychology*, *60*(4), 557–568. https://doi.org/10.1037/a0033446

8. Hirschi, A. (2012). The career resources model: An integrative framework for career counsellors. *British Journal of Guidance & Counselling*, *40*(4), 369–383. https://doi.org/10.1080/03069885.2012.700506

9. Tinto, V. (1993). *Leaving college: Rethinking the causes and cures of student attrition* (2nd ed.). University of Chicago Press.

10. Wilcox, P., Winn, S., & Fyvie-Gauld, M. (2005). "It was nothing to do with the university, it was just the people": The role of social support in the first-year experience of higher education. *Studies in Higher Education*, *30*(6), 707–722. https://doi.org/10.1080/03075070500340036

11. Creed, P. A., Fallon, T., & Hood, M. (2009). The relationship between career adaptability, person and situation variables, and career concerns in young adults. *Journal of Vocational Behavior*, *74*(2), 219–229. https://doi.org/10.1016/j.jvb.2008.12.004

12. Johnston, C. S. (2018). A systematic review of the career adaptability literature and future outlook. *Journal of Career Assessment*, *26*(1), 3–30. https://doi.org/10.1177/1069072716679921

TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi
Fizika kafedrasi o‘qituvchisi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22148814

Annotatsiya: Ushbu tezisda ta’lim klasteri sharoitida pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Unda oliy ta’lim muassasasi va umumta’lim maktablari hamkorligi, mentorlik, “4+2” modeli, microteaching, Lesson-study hamda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning fan-metodik, eksperimental, kommunikativ, pedagogik-psixologik va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari ko‘rsatib berilgan. Taklif etilgan metodika nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish va bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim klasteri, pedagogik amaliyot, bo‘lajak fizika o‘qituvchisi, kasbiy kompetensiya, mentorlik, “4+2” modeli, microteaching, Lesson-study, refleksiya.

Bugungi kunda pedagogik ta’limning asosiy vazifalaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat nazariy bilimlarga, balki real pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etishga tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy tajriba, laboratoriya mashg‘ulotlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim klasteri sharoitida pedagogik amaliyotni tashkil etish bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim klasteri oliy ta’lim muassasasi, umumta’lim maktablari, ilmiy-metodik markazlar va boshqa ta’lim subyektlarining o‘zaro hamkorligiga asoslangan yaxlit pedagogik muhitni shakllantiradi. Mazkur muhitda pedagogik amaliyot oddiy kuzatuv yoki dars o‘tish jarayoni sifatida emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi uzluksiz faoliyat sifatida tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak fizika o‘qituvchisining **fan-metodik, eksperimental, pedagogik-psixologik, kommunikativ, raqamli va reflektiv kompetensiyalari** o‘zaro bog‘liq holda rivojlantiriladi. Bunda talabaning individual imkoniyatlari, kasbiy ehtiyojlari va amaliy faoliyat natijalari hisobga olinadi.

Metodik jihatdan pedagogik amaliyotni **diagnostika – rejalashtirish – amaliy faoliyat – qayta aloqa – refleksiya – korreksiya** ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiq. Dastlab talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Keyingi bosqichda aniqlangan ehtiyojlardan kelib chiqib individual rivojlanish maqsadlari belgilanadi va amaliy topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Pedagogik amaliyotda maktab mentori va OTM metodistining hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Mentor talabaning real darsdagi faoliyatini kuzatadi, amaliy tavsiyalar

beradi va uning kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashadi. OTM metodisti esa talabaning pedagogik faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilib, keyingi faoliyat uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqadi. Shu asosda “4+2” modeli doirasida nazariy tayyorgarlik va maktabdagi amaliy faoliyat o‘zaro uyg‘unlashtiriladi.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining amaliy tayyorgarligini rivojlantirishda **microteaching** va **Lesson-study** texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi. Microteaching orqali talaba qisqa dars fragmentlarini sinovdan o‘tkazadi, videoyozuv asosida o‘z faoliyatini tahlil qiladi va aniqlangan kamchiliklarini bartaraf etadi. Lesson-study jarayonida esa talaba, maktab mentori va OTM metodisti hamkorlikda darsni rejalashtiradi, kuzatadi va tahlil qiladi.

Fizika ta’limining eksperimental xususiyatidan kelib chiqib, pedagogik amaliyotda laboratoriya mashg‘ulotlariga ham alohida e’tibor qaratiladi. Talabalar fizik tajribalarni xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda tashkil etish, o‘lchash natijalarini tahlil qilish, tajriba xatoliklarini aniqlash va o‘quvchilarga tajriba mohiyatini tushuntirish ko‘nikmalarini egallaydilar. Maktab laboratoriya bazasi cheklangan holatlarda virtual laboratoriyalar va raqamli simulyatsiyalardan foydalanish imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish uchun elektron portfoliolar, videodarslar, interaktiv taqdimotlar va virtual laboratoriyalardan foydalanish mumkin. Talabaning dars ishlanmalari, laboratoriya ishlari, videodarslari, mentor tavsiyalari va reflektiv yozuvlari e-portfolio orqali tizimlashtiriladi.

Kasbiy kompetensiyani baholashda faqat yakuniy natijaga emas, balki talabaning amaliy faoliyatidagi rivojlanish dinamikasiga e’tibor qaratish zarur. Shu sababli mezon, indikator va darajalarga asoslangan baholash rubrikalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda talabaning darsni rejalashtirishi, o‘quvchilar bilan muloqoti, laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishi, raqamli vositalardan foydalanishi va o‘z faoliyatini tahlil qila olishi baholanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, ta’lim klasteri sharoitida tashkil etilgan pedagogik amaliyot bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. OTM va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik, mentorlik, “4+2” modeli, microteaching, Lesson-study, raqamli texnologiyalar va refleksiv yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi talabaning nazariy bilimlarini real pedagogik faoliyat bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Mazkur metodika natijasida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining mustaqil dars tashkil etish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, fizik tajribalarni o‘tkazish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va o‘z kasbiy faoliyatini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Demak, pedagogik amaliyotni ta’lim klasterining integrativ imkoniyatlari asosida tashkil etish raqobatbardosh va zamonaviy kasbiy kompetensiyaga ega fizika o‘qituvchilarini tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son.
3. Muxamedov G.I., Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 230 b.
4. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri (O‘zbekiston ta’lim tizimi misolida) // Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 1, №4. – B. 537–547.
5. Qarshiyeva D.E. Klaster vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. – Chirchiq, 2021. – 122 b.
6. Xudoyberdiyeva Y.X. Ta’lim klasteri sharoitida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini kompetentligini rivojlantirish metodikasi // Uzbek Scholar Journal. – 2024. – №35. – B. 62–64.
7. Xudoyberdiyeva Y.X., Tursunov I.G. Methodology of Didactic Skills Development in Future Teachers // Pedagogical Cluster – Journal of Pedagogical Developments. – 2024. – Vol. 2, Issue 4. – P. 256–263.
8. Shulman L.S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // Harvard Educational Review. – 1987. – Vol. 57, №1. – P. 1–23.
9. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, №6. – P. 1017–1054.
10. Darling-Hammond L. Constructing 21st-Century Teacher Education // Journal of Teacher Education. – 2006. – Vol. 57, №3. – P. 300–314.
11. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77, №1. – P. 81–112.
12. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.
13. Ingersoll R.M., Strong M. The Impact of Induction and Mentoring Programs for Beginning Teachers // Review of Educational Research. – 2011. – Vol. 81, №2. – P. 201–233.
14. Tondeur J., van Braak J., Sang G. et al. Preparing Pre-service Teachers to Integrate Technology in Education // Computers & Education. – 2012. – Vol. 59, №1. – P. 134–144.
15. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MEHNATSEVARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI VA YOSH XUSUSIYATLARI

Xudaybergenova Adolat Usmanovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22148826

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatsevarlik sifatini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari, mazkur jarayonning mazmun-mohiyati hamda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Mehnat tarbiyasini tashkil etishda yosh xususiyatlarini hisobga olish, o‘quv va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirish, topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, rag‘batlantirish, mustaqil faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda ijobiy pedagogik muhit yaratishning ilmiy-pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, kichik maktab yoshi, mehnatsevarlik, mehnat tarbiyasi, shaxsiy sifat, psixologik xususiyat, pedagogik shart-sharoit, mehnat motivatsiyasi, mustaqil faoliyat, mas’uliyat, qat’iyatlilik, tarbiya.

Аннотация. В данной статье анализируются психолого-педагогические основы формирования качества трудолюбия у учащихся начальных классов, суть и содержание данного процесса, а также возрастные и индивидуально-психологические особенности учащихся младшего школьного возраста. Раскрыто научно-педагогическое значение учета возрастных особенностей в организации трудового воспитания, гармонизации учебной и практической деятельности, постепенного усложнения заданий, стимулирования, поддержки самостоятельной деятельности и создания положительной педагогической среды.

Ключевые слова: начальное образование, младший школьный возраст, трудолюбие, трудовое воспитание, личностные качества, психологические особенности, педагогические условия, мотивация труда, самостоятельная деятельность, ответственность, настойчивость, воспитание.

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical foundations of forming the quality of diligence in primary school students, the essence and content of this process, as well as the age and individual-psychological characteristics of primary school students. The scientific and pedagogical significance of taking into account age-related characteristics in the organization of labor education, harmonizing educational and practical activities, gradually complicating tasks, stimulating, supporting independent activity, and creating a positive pedagogical environment is revealed.

Keywords: primary education, primary school age, diligence, labor education, personal qualities, psychological characteristics, pedagogical conditions, labor motivation, independent activity, responsibility, persistence, upbringing.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni nafaqat chuqur bilimga ega, balki faol, mas’uliyatli, tashabbuskor, mustaqil qaror qabul qila oladigan hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga tayyor shaxs

sifatida tarbiyalash ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday shaxsni shakllantirishda aqliy rivojlanish bilan bir qatorda unda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur sifatlar tizimida mehnatsevarlik shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mehnatsevarlik insonning mehnat jarayoniga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi oddiy xatti-harakat emas, balki shaxsning ehtiyojlari, motivlari, qadriyatlari, iroda sifatlari, mas’uliyati va faoliyat natijasiga munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. Shu sababli uni shakllantirish jarayonini faqat o‘quvchiga turli mehnat topshiriqlarini berish bilan cheklash mumkin emas. Aksincha, o‘quvchida mehnatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglash, bajarilayotgan faoliyatdan qoniqish hosil qilish, qiyinchiliklarni yengib o‘tish, boshlangan ishni oxiriga yetkazish va o‘z faoliyati natijasiga mas’uliyat bilan yondashish kabi sifatlarni izchil rivojlantirish talab etiladi [6].

Boshlang‘ich ta’lim davri shaxs rivojlanishining o‘ziga xos bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi mavqeyi sezilarli darajada o‘zgaradi. Maktabga kelishi bilan bola o‘yin faoliyatining ustuvor subyekti bo‘lishdan o‘quv faoliyatining faol ishtirokchisiga aylanadi. Unga muayyan majburiyatlar yuklanadi, belgilangan qoidalarga rioya qilish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, o‘z faoliyatini nazorat qilish va natijalarini baholash zarurati paydo bo‘ladi. Mazkur jarayon bolaning irodaviy sifatlari va mas’uliyat hissining rivojlanishi uchun muhim imkoniyat yaratadi.Shu nuqtayi nazardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirish masalasini ularning yosh va individual-psixologik xususiyatlaridan ajratib o‘rganish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Chunki bolaning mehnat faoliyatiga munosabati, topshiriqni bajarishga bo‘lgan motivatsiyasi, qiyinchiliklarga chidamliligi, mustaqil ishlash qobiliyati va natijaga bo‘lgan munosabati uning psixologik rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirishning muhim jihati shundaki, mazkur sifat bir martalik tarbiyaviy ta’sir natijasida emas, balki uzoq muddatli, izchil va tizimli pedagogik jarayon davomida tarkib topadi. Bunda oila, maktab va ijtimoiy muhitning o‘zaro hamkorligi, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, o‘quvchilarning amaliy faoliyatga jalb etilishi, mehnat topshiriqlarining mazmunan yoshga mosligi hamda o‘quvchi faoliyatining pedagogik jihatdan to‘g‘ri rag‘batlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Hozirgi ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat tayyor bilimlarni egallashi yetarli emas. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘quvchida bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, mustaqil ishlash, vazifalarni rejalashtirish, muammolarni hal etish, jamoada hamkorlik qilish va o‘z faoliyati natijasini baholash kabi kompetensiyalarni ham rivojlantirishni talab etadi. Ushbu kompetensiyalarning shakllanishida mehnatsevarlik alohida o‘rin tutadi.Mehnatsevar o‘quvchi topshiriqni faqat tashqi nazorat yoki baho uchun bajarishga emas, balki faoliyatning mazmunini anglash va natijaga erishishga intiladi. U qiyinchilik yuzaga kelganda faoliyatdan voz kechish o‘rniga muammoning yechimini izlaydi, o‘z xatosini tuzatishga harakat qiladi, o‘qituvchi va tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Demak, mehnatsevarlik keyingi ta’lim

bosqichlarida mustaqil o‘qish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning ham muhim psixologik-pedagogik negizini tashkil etadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va axborot oqimining bolalar hayotidagi o‘rni tobora ortib borayotgan sharoitda mehnat tushunchasining mazmuni ham kengayib bormoqda. Bugungi o‘quvchi uchun mehnat faqat jismoniy faoliyat bilan chegaralanmaydi. Bilim izlash, axborotni tahlil qilish, ijodiy mahsulot yaratish, topshiriqni mustaqil bajarish, elektron ta’lim resurslaridan maqsadli foydalanish, jamoaviy loyiha ustida ishlash ham ma’lum ma’noda mehnat faoliyatining zamonaviy shakllari sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda mehnatsevarlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslarini zamonaviy ta’lim talablari nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Pedagogik nuqtayi nazardan mehnatsevarlik shaxsning mehnatga ijobiy munosabatini ifodalovchi, mehnat faoliyatida muntazam ishtirok etish, topshiriqlarni vijdonan va mas’uliyat bilan bajarish, maqsadga erishish yo‘lida qat’iyatlilik ko‘rsatish hamda faoliyat natijasini qadrlashda namoyon bo‘ladigan axloqiy-irodaviy sifat sifatida izohlanishi mumkin. Biroq ushbu tushunchaning mazmuni faqat «ko‘p ishlash» yoki «topshiriqni bajarish» bilan chegaralanmaydi.

Mehnatsevarlikning ichki mazmunida, avvalo, mehnatga ijobiy qadriyatli munosabat mavjud bo‘ladi. Bola bajarilayotgan faoliyatni majburiyat sifatida emas, balki muayyan natijaga olib keluvchi, o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishga xizmat qiluvchi faoliyat sifatida anglay boshlaganida mehnatsevarlikning dastlabki motivatsion asoslari shakllanadi.

Ikkinchidan, mehnatsevarlik maqsadga yo‘naltirilganlik bilan tavsiflanadi. O‘quvchi nima uchun muayyan topshiriqni bajarayotganini anglagan sari uning faoliyatga bo‘lgan ichki munosabati kuchayadi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda mehnat topshiriqlarining maqsadi bolaga tushunarli, faoliyat natijasi esa ko‘rinarli va mazmunli bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, mehnatsevarlik irodaviy barqarorlikni talab etadi. Har qanday faoliyat jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishi tabiiy. Mehnatsevarlikning shakllanganlik darajasi bolaning qiyinchilikka duch kelgandagi xatti-harakatida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar o‘quvchi murakkab topshiriqni ko‘rishi bilan undan voz kechsa, uning mehnat faoliyatidagi motivatsion va irodaviy tayyorgarligi yetarli darajada shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Aksincha, qiyinchilikni yengib o‘tishga intilish, yordam so‘rash, xatoni tuzatish va faoliyatni davom ettirish mehnatsevarlikning muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

To‘rtinchidan, mehnatsevarlik mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq. O‘quvchi o‘ziga topshirilgan vazifaning bajarilishi uchun javobgarlikni his qilishi, belgilangan muddatga rioya qilishi va faoliyat natijasiga befarq bo‘lmasligi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim davrida mas’uliyat hissini oddiy va kundalik topshiriqlar orqali rivojlantirish keyingi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Beshinchidan, mehnatsevarlik mustaqillik bilan chambarchas aloqador. Pedagog tomonidan barcha vazifalarning bolaning o‘rniga bajarib berilishi yoki har bir faoliyat bosqichining ortiqcha nazorat qilinishi mehnatsevarlikning ichki motivlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchiga zarur

darajada yordam berishi, biroq uning mustaqil harakat qilish imkoniyatini saqlab qolishi kerak.

Psixologik jihatdan esa mehnatsevarlik shaxsning motivatsion, emotsional va irodaviy sohalari bilan uzviy aloqador bo‘lgan sifatdir. Uning shakllanishida ehtiyoj, motiv, qiziqish, maqsad, iroda, emotsional munosabat va o‘z-o‘zini baholash kabi psixologik komponentlar o‘zaro ta’sirga kirishadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchisida mehnatsevarlikni rivojlantirish jarayonida faqat tashqi talab va nazoratga tayanish yetarli natija bermaydi. Asosiy vazifa tashqi talabni asta-sekin bolaning ichki ehtiyoji va ongli motiviga aylantirishdan iborat.

Shunday qilib, mehnatsevarlikni motivatsion, kognitiv, faoliyatli va emotsional-irodaviy komponentlarning o‘zaro birligi asosida namoyon bo‘ladigan integral shaxsiy sifat sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirish jarayonini faqat mehnat topshiriqlarini bajarish darajasi bilan emas, balki bolaning mehnatga munosabati, faoliyatni anglash darajasi, mustaqilligi, qat’iyati va natija uchun mas’uliyati bilan birgalikda baholash imkonini beradi [5].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatsevarlikning shakllanganlik holatini ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun uning tarkibiy komponentlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

1. Motivatsion komponent.O‘quvchining mehnat va o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi, topshiriqni bajarishga ichki ehtiyoji, faoliyat maqsadini anglash va natijaga erishishga intilishi bilan belgilanadi.

2. Kognitiv komponent. Mehnatning inson hayotidagi ahamiyati, mehnat jarayoni va uning natijasi o‘rtasidagi bog‘liqlik, mehnat madaniyati va faoliyatni tashkil etish qoidalari haqidagi tasavvurlarni qamrab oladi.

3. Faoliyatli komponent.O‘quvchining amaliy faoliyatda ishtirok etishi, topshiriqlarni mustaqil bajarishi, faoliyatni rejalashtirishi, ish qurollari va materiallaridan oqilona foydalanishi hamda boshlangan ishni yakunlashida namoyon bo‘ladi.

4. Emotsional-irodaviy komponent. Qiyinchiliklarni yengib o‘tish, sabr-toqat, qat’iyatlilik, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, muvaffaqiyatsizlikka bardosh berish va faoliyatni davom ettirish qobiliyatini ifodalaydi.

5. Refleksiv-baholovchi komponent.O‘quvchining o‘z faoliyati natijasini baholashi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni anglash, ularni tuzatish va keyingi faoliyatini takomillashtirishga intilishini nazarda tutadi.

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi mehnatsevarlikning yaxlit shaxsiy sifat sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Masalan, o‘quvchida mehnatga qiziqish mavjud bo‘lsa-yu, biroq u qiyinchiliklarga duch kelganda topshiriqni bajarishdan voz kechsa, mehnatsevarlikning irodaviy komponenti yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, o‘quvchi topshiriqni muntazam bajarsa, biroq nima uchun bajarayotganini anglamasa, uning faoliyati tashqi nazoratga asoslangan bo‘lishi mumkin. Demak, mehnatsevarlikni shakllantirishda mazkur komponentlarning birgalikdagi rivojlanishini ta’minlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni
2. Grigoreva L.G. Трудовое воспитание младших школьников в современной общеобразовательной школе.Ped.fan.dok…diss.Moskva-2004
3. Mavlonova R., Hasanboyeva O., Mavlonov K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Sanaqulov X.R.Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kasb-hunarga qiziqishlarini mehnat an’analari asosida tarbiyalash:Ped.fanl.nomz. …dis. Avtoref.-Toshkent,2001.-18 b.
6. Suxomlinskiy .V.A. Bolalarga jonim fido. - Konseptual, 2019.
7. Vladimirovna. S. Педагогические условия формирования трудолюбия у младших школьников.Smolensk-2009.

MUHAMMAD ALAYHISSALOM HADISLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI TUTGAN O‘RNI

Razov Baxramamattdin Muxammetdinovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22148841

Xozirgi vaktda rivojlangan mamlakatlarda ta’lim jamiyatning, bir tomondan, asosiy ishlab chikaruvchi kuchi - insonni ma’naviy-axlokiy va intellektual jixatdan yuksaltiradigan, boshka tomondan esa - insonparvar dunyokarashini shakllantirish manbai, jamiyatning insonparvarlilik darajasi kursatkichi xisoblanadigan yirik tarmogiga aylanish tendensiyasi uziga xos kurinishda namoyon bulayotgani tasodifiy bir xol emas. Mamlakat kudrati va obru-e’tibori avvalo ta’lim tizimining insonparvarlashuvi bilan belgilanishi anik-ravshan tus olmokda.

Xozirgi dunyo uta murakkab, uzaro boglik, tez uzgaruvchan, kaysi yuldan rivojlanishini oldindan aytib bulmaydigan, xavf-xatarga tula bulib bormokda. Bunday dunyoga odatdagi ulchovlar bilan yondashish mumkin emas. Sivilizatsiyaning rivojlanishi shu darajada jadal sur’at oldiki, bunda inson uzi global muammolarni bevosita xis etmasdan turib, undan urin olishga kodir bulmaydi. Ta’lim tizimi dunyoda yuz bergan uzgarishlarga moslashib ulgurmay, uziga kuyilayotgan ma’naviy-axlokiy va insonparvar talablarga javob bermay kuydi. Ta’lim tizimini bugungi kun ma’naviy-axlokiy va insonparvarlik talablariga moslashtirish olamshumul muammoga, buni tushunish esa - ta’lim tizimiga davlat, jamiyat va fukarolar munosabatining asosiy belgisiga aylandiki, bu ta’lim tizimi fakat milliy yoki siyosiy manfaatlarga xizmat kiluvchi tizimdir, degan tasavvurlarga barxam berdi. .[1]

Ta’lim, komil tarbiyaning bir juz’idir. U esa aqlni rivojlantiradi va sayqallashtiradi. Natijada u o‘z hayotida kerak bo‘ladigan ilmu ma’rifatni, ashyolar to‘g‘risidagi turli ma’lumotlarni, kasbiy mahoratini yoki kasb-hunarlarga tegishli bo‘lgan fanlarni o‘rganadi. Lekin tarbiyaga o‘xshab keng qamrovli bo‘laolmaydi. Chunki ta’lim insonni ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarini birdek qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya doimo birga bo‘lishi talab etiladi. .[2]

Hasan Basriy aytadilar: “Kimniki odobi bo‘lmasa, uning ilmi yo‘q”. Ularning bu so‘zlari, inson qancha ilmga ega bo‘lmasin, agar unda odob bo‘lmasa o‘sha insonni ilmiga e’tibor yo‘q deganidir.

Hikmatlarda: “Odob bamisoli bir daraxt. Ilm esa undagi bir meva. Agar daraxt bo‘lmasa, meva qaerdan ham bo‘lsin”, deb aytilishi ham bejiz emasdir. Agar ahamiyat berilsa hikmatlarda avvalo tarbiya keyin ta’lim haqida so‘z boradi. Tarbiya eng avval oiladan boshlanishini hisobga olsak, inson hayotida ta’lim va tarbiya olish masalasida ota-ona mas’uldir.

Ta’lim-tarbiyaning o‘rtasida ochiq-oydin farq bor. Ta’lim, tarbiyaning bir juz’i. Tarbiya esa ta’limni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o‘z-o‘zidan ta’limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Islomiy tarbiyaning ma’nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya

ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o‘z ichiga oladi. Zotan, Alloh taolo insoniyatni yer yuzini obod qilish uchun yaratgan. Demak, u o‘zining vazifalarini ado etishi uchun har taraflama komil va yetuk bo‘lishi kerak. Buning uchun esa bizning dinimiz Islomda barcha ko‘rsatma va imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi, inson o‘zining oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish asnosida doimiy holda Allohga yuzlanib turishi tarbiyadir.

Zero, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: “Har biringiz boshliqsiz va har biringiz qo‘l ostidagilaringizdan so‘ralasiz”, deb marhamat qiladilar.

Farzand ko‘z ochib ko‘rdibdiki, ota-ona uning yonida, doim u bilan birgalikda. Agar ota-ona ilmli va tarbiyali bo‘lsa, bu fazilat o‘z-o‘zidan farzandga o‘tadi. Agar ota-onada tarbiya, odob bo‘lmasa, madaniyat bo‘lmasa, albatta buni farzanddan ham kutish qiyin. Shuning uchun ham ba’zi ruhshunoslar: “Sen farzandingni tarbiya qilma, o‘zingni tarbiya qil, shunda farzanding tarbiyali bo‘ladi”, deyishgan.

Insonda odob va tarbiya bo‘lmasa ta’lim olish masalasi juda qiyin. Agar ilm bo‘lsa-yu odob, tarbiya bo‘lmasa, u dunyoda eng xafvli va xatarli inson hisoblanadi. Chunki u insonlar boshiga turli kulfat va balolarni keltirishi mumkin. Shuning uchun ham dinimizda eng avvlo tarbiyaga katta e’tibor qaratiladi. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda, Payg‘ambarimiz alayhissalom: “Men yaxshi axloqlarni kamoliga yetkazish uchun Payg‘ambar qilib yuborilganman” dedilar”, deyiladi.

Hozirda ba’zi joylarda bo‘layotgan xunrezliklar, yoshlar va ayollar tomonidan sodir bo‘layotgan jinoyatlar, to‘s-to‘polonlar bugun butun dunyoni tashvishga solyapti. Bunga sabab ularning ota-onalari farzandlarini tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lmagani, ularni o‘z hollariga tashlab, e’tiborsiz qoldirganlikdandir. Misol tariqasida ommaviy madaniyatni targ‘ib qilguchi madaniyatsiz, tarbiyasiz yoshlarni olamizmi yoki bo‘lmasa turli oqimlarga a’zo bo‘lib, yot g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlayotgan, o‘z yurti va xalqiga, aqidasi-yu, o‘z mazhabiga, milliy qadriyati-yu an’analariga qarshi chiqayotgan, o‘z xalqi orasida turli nizo va bo‘htonlarni tarqatishga harakat qilayotgan yoshlarni keltiramizmi, bularning hammasi ulardagi tarbiya va odob tushunchalari yetishmasligidandir. [3]

Yana shuni aytish mumkinki, agar ota-ona o‘sha farzandlarini yoshligidanoq tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lib, yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalansa, ta’lim-tarbiyani o‘z vaqtida berganda, yoshlarimiz shunday yomon holatlarga tushib, yoshliklarini badnom qilmagan, balki o‘z yurtiga munosib, ajdodlariga haqiqiy voris bo‘lishar edilar.

Hozirgi axborot dunyosi bir-biri bilan qorishib ketgan “globallashuv” deb atalgan davrimizda farzandlarimizga yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata olishga o‘rgatish, avvalo ota-ona va maktabdagi ustoz pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifadir.

Aslida, Movarounnahr hududida tarbiya masalasi azaldan qadrlanib kelingan. Unda inson xulqining go‘zalligiga targ‘ib etuvchi ko‘plab manbalar mavjud. Hadislarda tarbiya farzandning ota-onadagi haqqi bo‘lgan eng yaxshi hadya ekani e’tirof etiladi: Termiziy “Sa’iyd ibn Oss (r.a.) dan rivoyat qilgan hadisda: “Rasululloh (s.a.v.): “Hech bir ota o‘z farzandiga yaxshi odob o‘rgatishdan ortiq hadya qila olmaydi”, – dedilar. “Rasululloh (s.a.v.): “Kishi farzandini odobli etib tarbiyalashi

uning uchun har kuni yarim so’ sadaqa qilishidan yaxshiroqdir”, – deganlar”ini Termiziy va Ahmad o‘z asarlarida Jobir ibn Samura (r.a.) dan rivoyat qilganlar. Ibn Mojaning Anas ibn Molik(r.a.)dan rivoyat qilingan hadisida: “Rasululloh (s.a.v.): “Farzandlaringizni hurmatlang va ularning odobini go‘zal qiling”, – deganlar” [4].

O‘tmishda yashab o‘tgan ko‘plab mutafakkir va olimlarimiz ham ta’limda tarbiyaning ahamiyati va uning inson hayotida tutgan o‘rni haqida o‘zlarining bir qator fikrlarini yozib qoldirganlar. Jumladan, Jaloliddin Rumiy hazratlarining asarlarida ham tarbiya mavzusi qalamga olingan: “It qanchalik tuban bo‘lishiga qaramay, sultonning qo‘lida ovga borishni o‘rganadi. Otaonasidan o‘rgangan, ko‘rgan narsalarini – to‘g‘ri kelgan yomon joylarda yotib yurishni, topgan o‘limtigini yeb ketishni unutadi. Qiyg‘ir ham shunday: Sultonning tarbiyasi ostida ov san’atini o‘rganadi, o‘limtik yeyishni bas qiladi. Ko‘rinadiki, hatto parranda-yu hayvon ham yomondan yaxshini ajrata olayapti va ikkilanmasdan o‘rgatilgan yaxshini qabul etyapti. Aql va tamizda hammadan ustun bo‘lgan insonning bu xususida sustkashligi juda yomondir”,[5]. – deganlar.

Hadislarning tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish va o‘rgatish alohida mahorat bilim ijodkorlik talab etadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Asqarova O ‘. M., Hayitboev M., Nishonov M. S. Pedagogika. Toshkent. 2008. – B 76.

2.Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2010. – B 64.

3.Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2010. – B 100.

4.J. Rumiy. Ichingdagi ichingdadur. – T.: 2016. Yangi Asr Avlodi, 272. – B 75

5.Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Toshkent. 2001. – B 41.

PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH — KASBIY-PEDAGOGIK ZARURAT

Umirova Nurjamal Jarkurganovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22664766

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik kompetentlikning mazmun-mohiyati, tarkibiy qismlari hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy bilim va amaliyot uyg‘unligi, raqamli pedagogika, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, metodik kompetentlik va refleksiya bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya tushunchalarining kompetentlikni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirish uchun amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik vaziyatlar tahlili, raqamli vositalar, individual rivojlanish dasturi va refleksiv baholashdan tizimli foydalanish zarurligi ko‘rsatib berilgan. Pedagogik kompetentlikni uzluksiz rivojlantirish ta’lim sifati, o‘qituvchining kasbiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi kasbiy-pedagogik zarurat ekanligi xulosalangan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, pedagogik kompetentlik, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, raqamli pedagogika, metodik kompetentlik, refleksiya, individual yondashuv, professionallik.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini mustahkamlash va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan [1]. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligiga bog‘liq.

Oliy ta’lim muassasasini tamomlagan bo‘lajak o‘qituvchi o‘z fanini puxta bilish bilan birga, ta’lim jarayonini mustaqil loyihalash, tashkil etish, boshqarish va baholashga tayyor bo‘lishi kerak. Biroq nazariy bilimning o‘zi pedagogik faoliyatda barqaror natijaga erishish uchun yetarli emas. Yosh mutaxassis real pedagogik muhitga kirganida o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, darsni individual ehtiyojlarga moslashtirish, murakkab vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilish, zamonaviy texnologiyalardan maqsadli foydalanish hamda o‘z faoliyatini tahlil qilish kabi vazifalarga duch keladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlikni oliy ta’lim jarayonidayoq izchil rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi pedagogik kompetentlikning mazmuni va tuzilishini aniqlashtirish, uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

“Kompetensiya” muayyan faoliyatni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlar majmuasini anglatadi. “Kompetentlik” esa ushbu imkoniyatlarni aniq vaziyatda maqsadga muvofiq va samarali qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Demak, pedagogik kompetentlik o‘qituvchining faqat bilimdonligi emas, balki mavjud bilim va tajribani pedagogik vaziyat talablariga mos ravishda ishga sola olish darajasidir.

Psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan pedagogik kompetentlik o‘qituvchining murakkab yoki noan’anaviy vaziyatlarda o‘z xatti-harakatini boshqara olishi, samarali muloqot strategiyasini tanlashi, ziddiyatlarning oldini olishi yoki ularni konstruktiv hal etishi, kutilmagan holatlarda ijodiy yechim topishi va faoliyatini o‘zgaruvchan sharoitga moslashtira olishini qamrab oladi. Shu bois pedagogik kompetentlik bilim, amaliy harakat, qadriyat, motivatsiya va refleksiyaning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogga xos kasbiy kompetentlik tarkibida quyidagi o‘zaro aloqador komponentlarni ajratish mumkin:

- **maxsus-predmetli kompetentlik** — o‘qitiladigan fan mazmunini, uning ilmiy asoslari va rivojlanish tendensiyalarini puxta bilish;
- **metodik-didaktik kompetentlik** — ta’lim maqsadini belgilash, mazmun, metod, vosita va baholash usullarini to‘g‘ri tanlash hamda darsni loyihalash;
- **psixologik-pedagogik kompetentlik** — o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom pedagogik muhit yaratish;
- **kommunikativ kompetentlik** — o‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan ochiq, madaniyatli hamda hamkorlikka asoslangan muloqotni yo‘lga qo‘yish;
- **raqamli kompetentlik** — raqamli platformalar, elektron resurslar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan pedagogik maqsadga muvofiq, xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish;
- **innovatsion-kreativ kompetentlik** — yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish, ilg‘or tajribani moslashtirish va muammolarga noodatiy yechim taklif etish;
- **refleksiv kompetentlik** — o‘z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni xolis baholash, kamchiliklarni aniqlash va kasbiy rivojlanish yo‘lini rejalashtirish.

A.K. Markova, N.A. Muslimov va boshqa tadqiqotchilarning qarashlarida pedagogning kasbiy kompetentligi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish va o‘zini uzluksiz rivojlantirish imkonini beruvchi integrativ sifat sifatida talqin etiladi [4]. Ushbu yondashuv pedagogik kompetentlikning alohida ko‘nikmalar yig‘indisi emasligini, balki kasbiy faoliyatning barcha tomonlarini birlashtiruvchi yaxlit tuzilma ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish bir martalik tadbir emas, balki maqsadli, bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. Ushbu jarayon quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etilganda samarali natija beradi.

Nazariy tayyorgarlik pedagogik faoliyatning ilmiy asosini yaratadi, amaliyot esa bilimning real vaziyatda qanday ishlashini ko‘rsatadi. Shuning uchun pedagogika yo‘nalishidagi ta’lim dasturlarida ma’ruza va seminarlar pedagogik amaliyot, mikrodars, keys, kuzatish, loyiha hamda muammoli vaziyatlar tahlili bilan uzviy

bog‘lanishi zarur. Talaba nazariy qoidani tayyor shaklda takrorlash bilan cheklanmay, undan darsni rejalashtirish, muammoni aniqlash va asoslangan pedagogik qaror qabul qilishda foydalana olishi lozim.

Raqamli transformatsiya o‘qituvchining kasbiy vazifalarini kengaytirmoqda. Zamonaviy pedagog elektron ta’lim resursini tanlash, raqamli topshiriq yaratish, masofaviy yoki aralash ta’limni tashkil etish, o‘quv natijalarini elektron vositalar yordamida kuzatish hamda axborotning ishonchliligini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Bunda texnologiya maqsad emas, balki ta’lim maqsadiga erishish vositasi ekanligi asosiy mezon bo‘lib qoladi. Raqamli vositani tanlashda uning pedagogik vazifaga mosligi, foydalanish qulayligi, xavfsizligi va o‘quvchi faolligiga ta’siri hisobga olinishi lozim.

Ta’lim jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslanadi. Shu sababli bo‘lajak pedagog o‘quvchilarning yosh, individual va psixologik xususiyatlarini tushunishi, ularni tinglay olishi, rag‘batlantirishi va sinfdagi munosabatlarni adolatli boshqarishi kerak. Kasbiy dialog, rolli pedagogik vaziyat, guruhiy muhokama va konfliktli holatlarni tahlil qilish kabi usullar kommunikativ hamda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning qiziqishi, tayyorgarlik darajasi, o‘rganish sur’ati va ehtiyoji turlicha bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchini pedagogik jarayonning faol subyekti sifatida qabul qilishni talab etadi. O‘qituvchi differensial topshiriqlar, individual maslahat, tanlov imkoniyati, loyiha faoliyati va rivojlantiruvchi baholash orqali har bir o‘quvchining imkoniyatini yuzaga chiqarishi mumkin. Mazkur yondashuv o‘zlashtirish natijalarini yaxshilash bilan birga, mustaqillik, mas’uliyat va ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

Metodik kompetentlik o‘qituvchining o‘quv maqsadi, mazmun, metod, vosita va baholash o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlay olishida namoyon bo‘ladi. Refleksiya esa amalga oshirilgan faoliyatning kuchli va zaif tomonlarini anglash, natijalarni sabablar bilan bog‘lash va keyingi faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi. Refleksiv kundalik, o‘zaro dars kuzatuvi, portfolio, o‘zini o‘zi baholash varaqasi va mentor fikri talabaning kasbiy o‘sishini kuzatishga yordam beradi. “Individual rivojlanish dasturi”da esa shakllangan kompetensiyalar, rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlar, aniq maqsadlar va kutilayotgan natijalar qayd etilishi maqsadga muvofiq [4].

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat bilan uzviy aloqador. Pedagogik mahorat o‘qituvchining bilim, qobiliyat, tajriba va shaxsiy fazilatlarini ta’lim-tarbiya jarayonida yuqori natijaga yo‘naltira olish darajasini anglatadi. N.V. Kuzmina va N.V. Kuxarev pedagogik mahoratni belgilangan vaqt ichida maqbul natijaga erishish imkonini beruvchi pedagogik faoliyatning yuqori darajasi sifatida izohlaydi. N.N. Azizxo‘jayeva esa uni pedagogik jarayonni bilish, tashkil etish va harakatga keltirishni ta’minlovchi shaxsiy sifatlar sintezi deb ta’riflaydi [3]. A. Xoliqovning fikricha, pedagogik mahorat o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini birlashtirib, ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda yuqori natijaga erishish hamda kasbiy kamolotni davom ettirish imkonini beradi [6].

Mazkur ta’riflar pedagogik mahoratning kompetentlikka tayangan holda faoliyat jarayonida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Kompetentlik o‘qituvchining kasbiy vazifani samarali bajarishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalasa, mahorat ushbu

qobiliyatning tajriba, ijodkorlik va barqaror yuqori natija darajasiga ko‘tarilgan ko‘rinishidir.

Pedagogik texnologiya ham kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, ishtirokchilar faoliyati va baholash jarayonining oldindan loyihalashtirilgan, izchil hamda boshqariladigan tizimini anglatadi. B.T. Lixachev pedagogik texnologiyani o‘qitish va tarbiyalash shakllari, metodlari, usullari hamda vositalarining maxsus majmuasi sifatida izohlaydi. V.M. Monaxov uni o‘qituvchi va talaba uchun zarur sharoitlarni yaratgan holda o‘quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va o‘tkazishning puxta o‘ylangan modeli deb hisoblaydi. M.V. Klarin ta’rifida esa pedagogik texnologiyaning maqsadga erishishga xizmat qiluvchi imkoniyatlar, vositalar va harakatlar tizimi ekanligi ta’kidlanadi [3].

Ushbu qarashlardan kelib chiqib, pedagogik texnologiyaning samaradorligi faqat yangi metod yoki texnik vositadan foydalanish bilan belgilanmaydi. Uning natijadorligi maqsadning aniqligi, jarayonning mantiqiy ketma-ketligi, o‘quvchi xususiyatlariga moslashuvchanligi, muntazam teskari aloqa va natijalarni xolis baholash bilan ta’minlanadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik texnologiyani tayyor qolip sifatida emas, balki muayyan sharoit va ehtiyojga moslashtiriladigan tizim sifatida o‘zlashtirishi zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlikni samarali rivojlantirish uchun o‘quv jarayonini quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiq: diagnostika, maqsadni belgilash, nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat, refleksiv baholash va korreksiya. Dastlab talabaning mavjud bilim, ko‘nikma va kasbiy ehtiyojlari aniqlanadi. Shundan so‘ng individual va guruhiy rivojlanish maqsadlari belgilanib, nazariy mazmun amaliy topshiriqlar bilan boyitiladi. Mikrodars, pedagogik keys, loyiha, simulyatsiya, raqamli topshiriq va pedagogik amaliyot orqali egallangan bilim faoliyatga ko‘chiriladi. Yakunda talaba o‘z natijasini tahlil qiladi, ekspert yoki mentor fikrini oladi hamda keyingi rivojlanish vazifalarini belgilaydi.

Mazkur mexanizmda baholash faqat yakuniy natijani qayd etuvchi vosita bo‘lib qolmasligi kerak. Diagnostik va formativ baholash talabaning rivojlanish dinamikasini ko‘rsatishi, aniq teskari aloqa berishi va kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etishga yo‘naltirishi lozim. Kompetentlik darajasini baholashda test bilan bir qatorda amaliy topshiriq, dars ishlanmasi, portfolio, pedagogik vaziyat yechimi, kuzatuv va o‘zini o‘zi baholash natijalaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik kompetentlik o‘qituvchining kasbiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, qadriyatlari, shaxsiy sifatlari va refleksiv tajribasini birlashtiruvchi yaxlit kasbiy xususiyatdir. Uning rivojlanganligi pedagogga ta’lim jarayonini ilmiy asosda loyihalash, o‘quvchilar bilan samarali hamkorlik qilish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo‘llash, murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, pedagogik amaliyot mazmunini real kasbiy vaziyatlar bilan boyitish, shaxsga yo‘naltirilgan hamda raqamli ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish, refleksiv baholash va individual rivojlanish dasturlarini

joriy etish zarur. Bu jarayon oliy ta'lim muassasasi, amaliyot bazasi, mentor va talabaning hamkorligiga tayangan holda uzluksiz tashkil etilishi kerak.

Shunday qilib, pedagogik kompetentlikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, pedagogning kasbiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash hamda jamiyat ehtiyojlariga mos o'qituvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiluvchi obyektiv kasbiy-pedagogik zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
Diagnostik faoliyat logopeddan kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash, mavjud ma’lumotlarni taqqoslash, asosiy va ikkilamchi belgilarni farqlash hamda olingan ma’lumotlar asosida mantiqiy xulosa chiqarishni talab etadi. Shuning uchun oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak logopedga diagnostik metodlar haqidagi tayyor ma’lumotlarni o‘rgatishning o‘zi yetarli emas. Talaba nima uchun muayyan metod tanlanayotganini, undan qanday ma’lumot olish mumkinligini, natijalarni qanday tahlil qilish va ular asosida keyingi pedagogik faoliyatni qanday rejalashtirish kerakligini tushunishi zarur.

An’anaviy ta’lim jarayonida diagnostikaga oid nazariy materiallar ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtiriladi. Biroq talaba real bola bilan ishlashga kirishganda nazariy jihatdan o‘rgangan bilimlarini aniq pedagogik vaziyatga tatbiq etishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Chunki amaliy faoliyatda nutq buzilishlari har doim ham darsliklarda berilgan aniq belgilar asosida namoyon bo‘lavermaydi. Bolaning individual rivojlanish xususiyatlari, yoshi, psixologik holati, muloqotga kirishish darajasi va boshqa omillar diagnostika jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa talabaning tayyor algoritmni takrorlashidan ko‘ra, mavjud vaziyatni tahlil qilib, mustaqil kasbiy qaror qabul qilishini talab qiladi.

Mazkur vazifani hal etishda vaziyatli topshiriqlardan foydalanish alohida pedagogik imkoniyatlarga ega. Vaziyatli topshiriq – bu real yoki real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan muammoli holat asosida tuzilgan, talabadan mavjud bilimlarini qo‘llash, ma’lumotlarni tahlil qilish va muayyan yechimga kelishni talab etuvchi o‘quv topshirig‘idir. Bunday topshiriqlarda talaba tayyor javobni takrorlamaydi, balki

berilgan vaziyatning mohiyatini anglaydi, muammoni aniqlaydi va uni hal etish uchun tegishli bilim hamda usullarni tanlaydi.

Bo‘lajak logopedlarni tayyorlashda vaziyatli topshiriqlarning mazmunini bevosita kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog‘lash muhimdir. Masalan, talabaga bolaning yoshi, nutqiy rivojlanishi, ota-onaning murojaati, kuzatilayotgan nutqiy belgilar va dastlabki kuzatuv natijalari tavsiflangan vaziyat taqdim etilishi mumkin. Talaba ushbu ma’lumotlarni tahlil qilib, qaysi nutq komponentlarini batafsil tekshirish kerakligini belgilashi, tegishli diagnostik metodlarni tanlashi va o‘z tanlovini asoslab berishi lozim. Bunday topshiriq nazariy bilimni amaliy faoliyatga ko‘chirishga yordam beradi.

Vaziyatli topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra bosqichma-bosqich tashkil qilish maqsadga muvofiq. Dastlabki bosqichda talabalarga bitta aniq diagnostik muammoni aniqlashga qaratilgan sodda vaziyatlar berilishi mumkin. Masalan, bola ayrim tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilishi bilan bog‘liq holat taqdim etilib, talabadan qaysi nutqiy jarayonlarni tekshirish zarurligini aniqlash talab qilinadi. Keyingi bosqichlarda esa bir nechta belgilar bir vaqtda kuzatiladigan murakkab vaziyatlardan foydalanish mumkin. Bunda talaba diagnostik ma’lumotlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlashi, asosiy muammoni ajratishi va tekshiruv ketma-ketligini mustaqil belgilashi zarur bo‘ladi.

Vaziyatli topshiriqlardan foydalanishda diagnostik jarayonning ketma-ketligini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bo‘lajak logoped avvalo bola haqidagi dastlabki ma’lumotlarni o‘rganishi, keyin kuzatuv va suhbat asosida zarur axborotni to‘plashi, tekshiriladigan nutq komponentlarini belgilashi, diagnostik materiallarni tanlashi, natijalarni qayd etishi va umumlashtirishi kerak. Bunday ketma-ketlik talabalarda diagnostik faoliyatni tartibli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish ko‘nikmasini shakllantiradi. Masalan, talabaga quyidagi mazmundagi vaziyat berilishi mumkin: maktabgacha yoshdagi bola ayrim tovushlarni almashtirib talaffuz qiladi, o‘xshash tovushlarni farqlashda qiynaladi va murakkab tovush tarkibli so‘zlarni aytishda xatolarga yo‘l qo‘yadi. Ushbu vaziyatda talabadan darhol muayyan xulosa berish emas, balki dastlab qaysi nutqiy funksiyalarni tekshirish zarurligini aniqlash talab etiladi. Talaba artikulyatsion apparat holati, tovush talaffuzi, fonematik idrok va so‘zning tovush-bo‘g‘in tuzilishini o‘rganishga qaratilgan topshiriqlarni tanlashi mumkin. Shundan so‘ng unga “Nima uchun aynan ushbu yo‘nalishlar tanlandi?”, “Qaysi natijalar keyingi tekshiruv uchun muhim?”, “Qo‘shimcha qanday ma’lumot zarur?” kabi savollar berilishi diagnostik tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi.

Yana bir vaziyatda bolaning lug‘at boyligi cheklanganligi, grammatik shakllardan foydalanishda xatolar kuzatilishi va voqeani izchil bayon qilishda qiynalishi haqidagi ma’lumotlar taqdim etilishi mumkin. Bunday vaziyat talabadan bolaning faqat bitta nutq komponentini emas, balki leksik, grammatik va bog‘langan nutq holatini kompleks o‘rganish zarurligini anglashni talab qiladi. Natijada talaba alohida belgilarni qayd etishdan ularni tizimli tahlil qilishga o‘tadi.

Vaziyatli topshiriqlarning yana bir muhim imkoniyati – talabalarda differensial diagnostik fikrlashni shakllantirishdir. Ayrim nutq buzilishlarida tashqi belgilar bir-biriga yaqin bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda logoped o‘xshash belgilar orasidagi farqlarni aniqlashi, qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazishi va xulosaga shoshilmasligi lozim.

Shu sababli talabaga bir-biriga o‘xshash nutqiy belgilar aks etgan bir nechta vaziyatlarni taqqoslash topshirig‘ini berish samarali hisoblanadi. Talaba qaysi belgilar umumiy, qaysilari farqlovchi ekanligini aniqlaydi va qo‘shimcha diagnostik ma’lumotlarga ehtiyojni belgilaydi.

Vaziyatli topshiriqlar individual, juftlik va kichik guruh shaklida tashkil etilishi mumkin. Individual ishlashda talabaning mustaqil diagnostik qaror qabul qilish qobiliyati namoyon bo‘lsa, guruhli tahlilda bir xil vaziyat bo‘yicha turli yondashuvlarni taqqoslash imkoniyati paydo bo‘ladi. Talabalar bir-birining fikrini tinglab, o‘z qarashlarini dalillar bilan asoslashga harakat qiladilar. Bunda o‘qituvchining vazifasi tayyor javobni berish emas, balki talabalarni izlanishga undaydigan yo‘naltiruvchi savollar orqali muammoni chuqurroq tahlil qilishga yordam berishdan iborat.

Vaziyatli topshiriqlar bilan ishlashda talabalarning faqat yakuniy javobini emas, balki ushbu javobga kelish jarayonini ham baholash maqsadga muvofiq. Buning uchun diagnostik muammoni to‘g‘ri aniqlash, zarur ma’lumotlarni ajratish, diagnostik metodlarni asosli tanlash, tekshiruv ketma-ketligini belgilash, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va pedagogik xulosani dalillash kabi mezonlardan foydalanish mumkin. Bu yondashuv talabaning diagnostik faoliyatidagi qaysi ko‘nikmalar yetarlicha shakllanganini va qaysilarini rivojlantirish zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Bo‘lajak logopedlarning diagnostik ko‘nikmalarini rivojlantirishda vaziyatli topshiriqlarning mazmunini turli yoshdagi bolalar va turli nutqiy holatlar asosida boyitib borish ham muhimdir. Tovush talaffuzidagi buzilishlar, fonetik-fonematik rivojlanishdagi qiyinchiliklar, lug‘at va grammatik tuzilmaning shakllanishidagi muammolar, bog‘langan nutqdagi kamchiliklar, nutq sur’ati va ravonligidagi buzilishlar kabi holatlarga oid vaziyatlarning qo‘llanilishi talabaning turli diagnostik holatlar bilan ishlash tajribasini kengaytiradi.

Shu bilan birga, vaziyatli topshiriqlarda bolaning faqat nutqiy belgilarini emas, balki uning umumiy rivojlanish xususiyatlari, kommunikativ xulqi, topshiriqlarga munosabati va oila tomonidan berilgan ma’lumotlarni ham aks ettirish zarur. Bu bo‘lajak logopedning bolani faqat alohida nutq buzilishi nuqtai nazaridan emas, balki yaxlit rivojlanayotgan shaxs sifatida o‘rganishiga yordam beradi. Diagnostika jarayonida bunday kompleks yondashuv korreksion-pedagogik ishning keyingi yo‘nalishlarini aniqroq belgilash uchun muhimdir.

Raqamli texnologiyalar ham vaziyatli topshiriqlarning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi. Talabalarga bolaning nutq namunasi aks etgan audio yoki videomaterial, artikulyatsion apparat holatiga oid tasvirlar, diagnostik karta fragmentlari yoki nutqiy topshiriqlar natijalari taqdim etilishi mumkin. Bunday materiallar asosida vaziyatni tahlil qilish talabani real kasbiy faoliyatga yanada yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, maxfiylik, bolaning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va materiallardan pedagogik maqsadda foydalanishning etik talablariga qat’iy rioya qilish zarur.

Vaziyatli topshiriqlarni muntazam qo‘llash natijasida talaba “nutq buzilishining nomini aytish” darajasidan diagnostik jarayonni rejalashtirish, zarur ma’lumotlarni yig‘ish, ularni tahlil qilish va asoslangan pedagogik qarorga kelish darajasiga ko‘tariladi. Bunda nazariy bilim va amaliy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkamlanadi. Talaba diagnostik metodni mexanik ravishda qo‘llash emas, balki

uning maqsadi, imkoniyatlari va muayyan vaziyatdagi ahamiyatini tushunishga o‘rganadi.

Bo‘lajak logopedlarda diagnostik faoliyat ko‘nikmalarining shakllanganligi keyingi korreksion-pedagogik ishlarning sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki diagnostika natijalari asosida korreksion ishning maqsad va vazifalari belgilanadi, mashqlar va metodlar tanlanadi, individual mashg‘ulot mazmuni rejalashtiriladi. Diagnostik ma’lumotlarning noto‘g‘ri talqin qilinishi esa korreksion ish yo‘nalishining noto‘g‘ri belgilanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli diagnostik ko‘nikmalarni talabalik davridan boshlab tizimli rivojlantirish zarur.

Bo‘lajak logopedlarning diagnostik faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda vaziyatli topshiriqlardan foydalanish nazariy bilimlarni kasbiy-amaliy faoliyat bilan bog‘lashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar talabalarni muammoni aniqlash, zarur diagnostik ma’lumotlarni ajratish, tekshirish usullarini tanlash, natijalarni tahlil qilish va asoslangan pedagogik xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Vaziyatli topshiriqlarning sodda holatlardan murakkab diagnostik vaziyatlarga tomon bosqichma-bosqich tashkil etilishi esa talabalarda diagnostik tafakkur va mustaqil kasbiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan oliy ta’limda bo‘lajak logopedlarni tayyorlash jarayonida vaziyatli topshiriqlarni nazariy, amaliy va pedagogik amaliyot mashg‘ulotlari mazmuniga tizimli integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 560 b.
2. Волкова Л.С. и др. Логопедия: учебник для студентов дефектологических факультетов педагогических высших учебных заведений / под ред. Л.С. Волковой. – 5-е изд., перераб. и доп. – Москва: ВЛАДОС, 2008. – 703 с.
3. Филичева Т.Б., Чевелева Н.А., Чиркина Г.В. Основы логопедии: учебное пособие для студентов педагогических институтов. – Москва: Просвещение, 1989. – 223 с.
4. Селиверстов В.И. Практикум по дошкольной логопедии. – Москва: Просвещение, 1988.
5. Лалаева Р.И. Методика психолингвистического исследования нарушений речи. – Санкт-Петербург: Наука-Питер, 2006.
6. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. – Москва: Просвещение, 1968.

SUYUQLIKLARDA YORUG‘LIKNING KOMBINATSION SOCHILISHINI O‘LCHASHNING TEXNIKASI VA METODIKASI

Ortiqova Maftuna Jasurbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22847255

Annotatsiya. Ushbu ishda suyuqliklarda yorug‘likning kombinatsion sochilishini o‘lchash texnikasi va metodikasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda yorug‘likning suyuqlik molekulalari bilan o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan kombinatsion sochilish hodisasining fizik mohiyati, asosiy qonuniyatlari va uni qayd etish usullari tahlil qilinadi. Tajribalarni tashkil etishda yorug‘lik manbai, optik tizim, namuna va nurlanishni qayd etuvchi qurilmalarning o‘zaro joylashuvi hamda o‘lchash shartlarining aniqlikka ta’siri yoritiladi. Sochilgan nurlanishning chastotasi va intensivligini aniqlash orqali suyuqliklarning molekulyar tuzilishi hamda optik xususiyatlari haqida ma’lumot olish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Аннотация. В работе рассматриваются техника и методика измерения комбинационного рассеяния света в жидкостях. Анализируются физическая природа и основные закономерности комбинационного рассеяния, возникающего вследствие взаимодействия светового излучения с молекулами жидкости, а также методы его регистрации. Рассматриваются особенности экспериментальной установки, включая источник света, оптическую систему, исследуемый образец и регистрирующее устройство, а также влияние условий измерения на точность получаемых результатов. По частоте и интенсивности рассеянного излучения оцениваются возможности получения информации о молекулярной структуре и оптических свойствах жидкостей..

Abstract. This study considers the technique and methodology for measuring Raman scattering of light in liquids. The physical nature and main characteristics of Raman scattering resulting from the interaction of light with liquid molecules are analyzed, along with methods for detecting the scattered radiation. Particular attention is given to the experimental setup, including the light source, optical system, investigated sample, and radiation detection device, as well as the influence of measurement conditions on experimental accuracy. The frequency and intensity of the scattered radiation are used to demonstrate the possibility of obtaining information about the molecular structure and optical properties of liquids.

Kalit so‘zlar: kombinatsion sochilish, elastik sochilish, yorug‘likning molekulalar bilan o‘zaro ta’siri, zichlik fluktuatsiyasi, sochilgan yorug‘lik, optik xususiyatlar, Raman sochilishi

Ключевые слова: комбинационное рассеяние, упругое рассеяние, взаимодействие света с молекулами, флуктуации плотности, рассеянное излучение, оптические свойства, комбинационное рассеяние Рамана

Keywords: , Raman scattering, elastic scattering, light–molecule interaction, density fluctuations, scattered radiation, optical properties, Raman effect

Yorug‘likning kombinatsion sochilishini o‘rganishda spektral qurilmaga maxsus talablar qo‘yiladi.

a) yaxshi yorug‘lik va piksellar sonini ~ 10,

b) qurilmada sochilgan yorug`likning yo‘qligi, bu ayniqsa sochuvchi konturning uzoq qanotlarini o‘lchashda muhimdir.

Shuning uchun bizning tajribamiz suyuqlikdagi kombinatsion sochilish spektrlari uchun konfokal mikroskopli STR250 lazerli Raman spektrometrida o‘tkazilgan (2.1.5-rasm). Konfokal mikroskopli STR250 lazerli Raman spektrometri juda ixcham va moslashuvchan tizim bo‘lib, turli materiallardan zaif Raman sochilishni o‘lchash uchun yuqori sezgirlikka ega. Tizim fokus uzunligi 250 mm bo‘lgan spektrometrdan (07), 50-7000 sm^{-1} spektral sohada bo‘lgan Qora-Tonerli skanerlash mexanizmidan iborat bo‘lib, uchta turli diffraktsion panjaralarini avtomatik ravishda almashtiradi (1 mm da chiziq soni 600; 1200; 1800), ruxsati 1 sm^{-1} , antistatik effektli va CCD (08) kamera -60 ^{0}C haroratda sovutiladi. To‘plam fazoviy ruxsati <1 mm bo‘lgan kichik namuna uchun optik mikroskopni (03) va ko‘rinadigan soha uchun qo‘zg‘atuvchi lazer (01) (532 nm) o‘z ichiga oladi. Tizim Windows platformasi asosidagi foydalanuvchilarga qulay boshqaruv va ma’lumotlarni qayta ishlash dasturini o‘z ichiga oladi. Raman spektrlari 180° geometriyada o‘lchangan, ya’ni nurlanish tushayotgan nurga nisbatan 180° burchak ostida qayd etilgan.

Tajriba quyidagicha o‘rnatilgan: benzol va uning hosilalarini o‘rganish uchun kvarts kyuveta ishlatilgan. Mikroskop stolchasiga suyuqlik bilan kvarts kyuveta qo‘yildi va unga lazer nuri yo‘naltiriladi. Sochilgan yorug‘lik linza tomonidan to‘plangan. Misol tariqasida 1-rasmda bo‘sh kyuveta va 2-rasmda atsetonning spektrlari ko‘rsatilgan.



1-rasm. Kombinatsion sochilish spektrlarini eksperimental qayd qilish qurilmasining o‘rnatilish sxemasi

01 – qo‘zg’aluvchi lazer; 02, 06 - tarmoqli kengligi 90% gacha bo'lgan optik tolali aloqa; 03 - sozlangan ob'ektiv; 04 - mikroskop stolchasi; 05 - filtrlar to'plami; 07 – STR250 spektrometri; 08 - piezoelektrik detektor; 09 - oq yorug'lik; 10 - fokuslash vinti



2.-rasm. Atseton suyuqligidagi yorug'likning kombinatsion sochilishining umumiy ko'rinishi.

2.1.2.-rasm. Bo'sh kyuveta spektrining umumiy ko'rinishi

Konfokal mikroskopli STR250 lazerli Raman spektrometrida 2.1.4.-rasmda ko‘rsatilgan kvars kyuvetadan foydalangan.



3.-rasm. Yorug‘likning kombinatsion sochilishini qayd qilish uchun kyuvetaning umumiy ko‘rinishi.

Tadqiqot ob’ektlarini tanlash, asosan, bir tomondan, ularning tuzilishining o‘xshashligi (asosi - benzol halqasi) bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, molekulalarning shakli va almashinish tabiatining farqi bilan bog‘liq.



4.-rasm. Tadqiqot obyektlarining strukturaviy formulalari

Bundan tashqari, o‘rganiladigan moddalar quyidagi talablarga javob berishi kerak:- yorug‘likning ko‘rinadigan hududida shaffoflik ;

- keng harorat intervalida suyuqlik holatida bo‘lgan moddaning mavjudligi ;
- suyuqlikning yorug‘lik va harorat ta’siriga kimyoviy jihatdan barqarorligi;
- katta anizotropiya (CLRda molekulalarning orientatsion relaksatsiyasi-ning aniq spektroskopik namoyon bo‘lishining mavjudligi);
- dipol bo‘lmagan yoki past dipolli, bu qo‘shimcha oriyentatsiyalanishga sabab bo‘ladigan o‘zaro ta’sirlarini istisno qiladi.Barcha o‘rganilgan moddalarning strukturaviy formulalari 4.-rasmda ko‘rsatilgan.

Benzol halqasiga metil va galoid guruhlari qo‘shilishining har xil tabiati ularni suyuq fazadagi molekulalarning relaksatsiya jarayonlarining tabiatiga o‘rinbosarning

ta’sirini o‘rganishda qiziqarli obyektlarga aylantiradi. Mono va para-almashtirilgan benzol molekulalarining shakli va qutblanishining anizotropiyasi ma’lum bir shaklda o‘zgaradi. Shunday qilib qayd qilingan sochilgan yorug‘lik xususiyatlari ko‘plab parametrlarning nazariy va eksperimental qiymatlarini batafsilroq taqqoslash imkonini beradi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Nikomanis F., Samios D., Dorfmliller T. *Intramolecular and external rotation in liquids: Raman and Rayleigh light scattering experiments on phenyl andpyridyl-compounds* II J. Mol. Liq. 1989. V.43. N.l-2. P. 271-291.
2. Бахшиев Н.Г. *Спектроскопия межмолекулярных взаимодействий.* Ленинград. Наука. 1972. 265 стр. С.4-22.
3. Кирилов С.А. *Колебательная спектроскопия в исследовании динамики ионных расплавов. Динамические свойства молекул и конденсированных сред*. Ленинград. Наука. 1988. 302 стр. С.190-277.
4. Пиментал Дж., Мак - Кленан О. *Водородная связь*. Москва. Мир. 1964. 462 стр.
5. Nafie L.A., Peticolas W.L. *Reorientation and Vibrational Relaxation as Line Broadening Factors in Vibrational Spectroscopy* II J. Chem. Phys. 1972. V. 57. T. 8. P. 3145-3155.
6. Гордиец Б.Ф., Осипов А.М., Ступоченко Е.В,, Шелепин Л.А. *Колебательная релаксация в газах и молекулярные лазеры* // УФН. 1972. Т. 108. № 4. С. 655-699.
7. Осипов А.И., Уваров А.В. *Кинетические и газодинамические процессы в неравновесной молекулярной физике* //УФН. 1992. Т. 162. № 11.С. 1 -42.
8. Ormonde S. *Vibrational relaxation theories and measurements* I/ Rev. Mod. Phys. 1975. V. 47. N. l.P. 193-258.
9. Diestler D.J., Wilson R.S. *Quantum dynamics of vibrational relaxation in condensed media* II J. Chem. Phys. 1975. V. 62. P. 1572-1579.
10. Riehl J. P., Diestler D. J. *A molecular dynamics study of vibrational relaxation in a diatomic molecular liquid* II J. Chem. Phys. 1976. V. 64. P. 2593-2604.
11. Погорелов В.Е., Лизенгевич А.М., Кондиленко И.И., Буян Г.П. *Колебательная релаксация в конденсированных средах* II УФН. 1979. Т. 127. № 4. С.683-704.
12. Knapp E. W. *Vibrational line shapes in liquids. The role of resonant intermolec-ular coupling* II J. Chem. Phys. 1984. V. 81. P. 643-653.

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Nurova Malika Abduzairovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22834485

Annotatsiya. Maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetensiyalarini differensial yondashuv asosida shakllantirish yo'llari yoritiladi. Talabalarning tayyorgarlik darajasi, o'qish sur'ati va kasbiy qiziqishlarini aniqlash, ularga mos topshiriqlar berish, pedagogik amaliyot hamda muntazam qayta aloqa o'rtasidagi bog'liqlik ochib beriladi. Barcha talabalar uchun umumiy kasbiy talablarni saqlagan holda, ularga erishish yo'llarini moslashtirish taklif etiladi.

Kalit so'zlar. Differensial yondashuv, kasbiy kompetensiya, pedagogik ta'lim, individual ta'lim yo'li, pedagogik amaliyot, qayta aloqa, baholash.

Kirish. Pedagogika oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchini tayyorlash faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Talaba darsni rejalashtirish, o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash, o'qitish usullarini tanlash, natijani baholash va o'z faoliyatini tahlil qilishni ham o'rganishi kerak. Biroq bir guruhdagi talabalar bu vazifalarga turlicha tayyorgarlik bilan kirishadi: ayrimlari fan mazmunini yaxshi biladi, boshqalari muloqotda faolroq yoki amaliy mashg'ulotlarda tezroq o'sadi. Barchaga bir xil topshiriq va bir xil yordam berish bunday farqlarni yetarli hisobga olmaydi. Shu sababli differensial yondashuv kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishda muhim o'rin tutadi. U talabalarga alohida maqsad belgilash degani emas; asosiy kasbiy natijalar umumiy bo'lib qoladi, ularga erishish uchun beriladigan mashq, ko'mak va mustaqillik darajasi esa ehtiyojga qarab o'zgaradi. O'zbekiston pedagogika oliygohlari uchun bu yondashuv ayniqsa ahamiyatli, chunki bitiruvchi turli sharoitdagi maktablarda ishlashga va o'quvchilarning o'zaro farqlarini inobatga olishga tayyor bo'lishi zarur.

Asosiy qism. Kasbiy kompetensiya pedagogik vaziyatda bilim, ko'nikma va munosabatni birgalikda qo'llay olishda namoyon bo'ladi. Masalan, bo'lajak o'qituvchi mavzuni bilishi bilan birga, uni o'quvchiga tushunarli qilib izohlashi, qiyinchilik sababini payqashi va keyingi darsni shu kuzatuv asosida o'zgartira olishi kerak. Muslimov, Raximov va Hamidovning kasb ta'limi metodikasiga oid ishlari kasbiy tayyorgarlikni amaliy faoliyat bilan bog'lash uchun nazariy asos beradi. Differensial yondashuv esa ushbu tayyorgarlik jarayonida har bir talabaning ayni paytdagi imkoniyatini hisobga olishga xizmat qiladi.

Mexanizmning boshlang'ich bosqichi diagnostikadir. Semestr boshida qisqa fan testi, dars ishlanmasi namunasi, mikrodars va talabaning o'zini baholash varaqasi orqali dastlabki holatni aniqlash mumkin. Bunda talabaga o'zgarmas «kuchli» yoki «sust» yorlig'ini qo'yish maqsadga muvofiq emas. Natija aniq ko'nikma bo'yicha qayd etiladi: masalan, o'quv maqsadini ifodalash shakllangan, baholash mezonini tuzish esa qo'shimcha mashq talab qiladi. Keyingi kuzatuvlar dastlabki bahoni yangilab boradi. Shunday qilib, diagnostika saralash vositasi emas, ta'limni rejalashtirish uchun ma'lumot manbaiga aylanadi.

Aniqlangan ehtiyojlar asosida umumiy o‘quv natijasi uchun turli murakkablikdagi vazifalar tayyorlanadi. Dars rejasini tuzishni endi o‘rganayotgan talaba tayanch namuna va yo‘naltiruvchi savollardan foydalanishi mumkin. Shu ko‘nikmani egallagan talaba esa bir mavzu uchun turli tayyorgarlikdagi o‘quvchilarga mos faoliyatni mustaqil loyihalaydi. Har ikkisi yakunda dars maqsadi, faoliyat va baholashning o‘zaro mosligini ko‘rsatishi lozim. Tomlinson ta’riflagan differensial ta’lim tamoyillariga ko‘ra, o‘quv mazmuni bilan ishlash usuli, o‘quv faoliyati va natijani namoyish etish shakli talabalar ehtiyojiga qarab moslashtirilishi mumkin. Bunday moslashtirish kasbiy talabni pasaytirmasdan, unga erishish uchun zarur yordamni ta’minlaydi.

Mashg‘ulotlarda moslashuvchan guruhlar samarali ishlaydi. Bir vazifada talabalar o‘xshash qiyinchiliklari bo‘yicha birlashib, o‘qituvchidan maqsadli ko‘mak oladi; boshqa vazifada esa tajribasi turlicha talabalar birgalikda yechim ishlab chiqadi. Guruh tarkibi doimiy bo‘lmasligi kerak, chunki talabaning rivojlanishi har bir ko‘nikma bo‘yicha har xil kechadi. Tolipov va Usmonboyevaning pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga oid qarashlari mashg‘ulotni oldindan loyihalash va natijani tekshirish zarurligini ko‘rsatadi. Ishmuhamedov, Abduqodirov va Pardayev tavsiya etgan faol metodlar esa talabaning qarorini tushuntirishi, boshqalarning fikrini tinglashi va bir nechta pedagogik yechimni taqqoslashi uchun imkon yaratadi.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda pedagogik amaliyot alohida o‘rin egallaydi. Talaba avval kuzatgan darsida o‘quvchilar qanday javob berganini qayd etadi, so‘ng kichik dars bo‘lagini o‘zi o‘tkazadi va nihoyat to‘liq mashg‘ulotni rejalashtiradi. Murabbiy o‘qituvchi hamda oliygoh rahbari unga umumiy taassurot emas, aniq dalilga tayangan qayta aloqa beradi: qaysi savol o‘quvchilarni fikrlashga undadi, qaysi ko‘rsatma tushunarsiz bo‘ldi, qaysi baholash usuli o‘zlashtirishni ko‘rsatdi. Azizxo‘jayevaning pedagogik mahorat haqidagi qarashlari nuqtayi nazaridan bunday tahlil talabaning o‘z faoliyatiga ongli munosabatini rivojlantiradi.

Baholash mexanizmi ham differensial yondashuvga mos bo‘lishi zarur. Barcha talabalar uchun dars maqsadining aniqligi, metod tanlovining asosliligi, o‘quvchi bilan muloqot va refleksiya kabi mezonlar bir xil belgilanadi. Talaba esa ayrim natijalarni dars ishlanmasi, mikrodars yozuvi yoki amaliyot portfoliosi orqali ko‘rsatishi mumkin. Oraliq baholashda uning avvalgi ishiga nisbatan o‘sishi qayd etiladi, yakuniy baholashda esa umumiy kasbiy mezonlarga erishgani tekshiriladi. Shu yo‘l bilan individual rivojlanish ham, bitiruvchiga qo‘yiladigan yagona talab ham e’tiborda bo‘ladi. O‘qituvchi uchun bu jarayonni boshqarishning qulay usuli — har bir talaba bo‘yicha qisqa kuzatuv qaydlari yuritish va keyingi mashg‘ulotda aynan qaysi ko‘nikma ustida ishlanishini belgilashdir.

Xulosa. Differensial yondashuv pedagogika oliygohida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni izchil jarayonga aylantiradi. Uning samarasi talabalarga shunchaki turli topshiriqlar tarqatishda emas, balki dastlabki holatni aniqlash, umumiy kasbiy mezonlarni belgilash, mos yordam ko‘rsatish va natijaga qarab ta’limni qayta rejalashtirishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa mikrodars, pedagogik amaliyot va portfolio bir tizimda qo‘llanganda talaba o‘zidagi o‘sishni aniq dalillar orqali ko‘ra oladi. Bu esa uning mustaqil qaror qabul qilishiga va darsdagi xatolarni rivojlanish manbai sifatida tahlil etishiga yordam beradi. Yondashuvni amaliyotga joriy qilish uchun professor-o‘qituvchilar tushunarli baholash mezonlari, turli darajadagi mashqlar va muntazam

qayta aloqa usullarini oldindan tayyorlashi lozim. Natijada bo‘lajak pedagog nafaqat o‘z kasbiy faoliyatiga puxta tayyorlanadi, balki kelajakdagi o‘quvchilarining individual ehtiyojlariga ham e’tiborli bo‘lishni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N. A., Raximov Z. T., Hamidov J. A. Kasb ta’limi metodikasi. Darslik. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.
2. Tomlinson C. A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. 3rd edition. Alexandria: ASCD, 2017.
3. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste’dod, 2008.
5. Tolipov O‘. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006.

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINI KLASTER METODI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Sattorbekov Ravshanjon Solijonovich
Namangan davlat pedagogika universiteti, "Jismoniy madaniyat" fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida bolajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini tayorlashda klaster texnologiyalarni qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi. Klaster-modul usulini jismoniy tayyorgarligi turlicha bo'lgan talabalar guruhlarida qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, klaster tahlili, klaster, klaster-modul usuli, turli darajalar, jismoniy madaniyat, jismoniy holat, tanlab olish, ta'lim jarayoni.

Ta'lim jarayonida, xususan, jismoniy tarbiya jarayonida klasterlashning o'zini nafaqat klaster shakllanishi ketma-ketligini, balki klasterlashning o'zi mantiqiyligi, dinamikasi va ko'lamini tavsiflovchi jarayon sifatida talqin qilish. Bu juda murakkab, chunki biz jismoniy tayyorgarlik, salomatlik ko'rsatkichlari sifatida shaxsning jismoniy holatining amaldagi mezonlari va standartlari xususiyatlari bilan birgalikda ta'lim jarayonining segmentlari haqida bormoqda, bu turli xil guruhlarni birlashtirgan sotsiologning fantaziyalari haqida emas. ixtiyoriy asoslar bo'yicha ma'lumotlar.

Hozirgi vaqtda jismoniy madaniyat o'qituvchilari klaster tahlilini juda yaxshi bilishmaydi, chunki u ko'proq sotsiologiya va iqtisodiy fanlarda qo'llaniladi va hali ham jismoniy tarbiya tuzilishiga yomon moslashtiriladi, ammo umumiy va tanlab olingan sog'lomlashtirish yo'nalishlarining oqilona kombinatsiyasi. Jismoniy madaniyat ontogenezning (Ontogenez jarayonida ota-onadan olingan genetik ma'lumotni amalga oshirish jarayoni sodir bo'ladi) turli yosh davrlarida va hayotning turli sharoitlarida, ayniqsa talaba yoshlarning salomatligi va jismoniy tayyorgarligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan jismoniy faoliyatni rag'batlantirishning zamonaviy usullari va shartlarini ta'minlaydi. Umuman olganda, o'qitish nazariyasi va metodologiyasiga umumiy didaktik va profilli tushuncha va yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, kompyuterlashtirish va o'qitishning texnik vositalaridan keng foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bo'limlarni nisbatan qisqa vaqt ichida o'zlashtirishini ta'minlaydi va o'qituvchi guruhning tezkor tekshiruvi va etarli darajada o'zlashtirilmagan materialni aniqlash va shu bilan uni odatdagi ishidan ozod qilish bilan bog'liq.

Umuman olganda, o'qitish nazariyasi va metodologiyasiga umumiy didaktik va profilli tushuncha va yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, kompyuterlashtirish va o'qitishning texnik vositalaridan keng foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bo'limlarni nisbatan qisqa vaqt ichida o'zlashtirishini ta'minlaydi va o'qituvchi guruhning tezkor tekshiruvi va etarli darajada o'zlashtirilmagan materialni aniqlash va shu bilan uni odatdagi ishidan ozod qilish bilan bog'liq.

Bularning barchasi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bilimlarni o‘qitish va nazorat qilishda samarali didaktik yondashuvdan dalolat beradi. Kompyuter ta’limning axborot texnologiyalariga bevosita integratsiyalashgan va ta’lim tizimining shunday kerakli elementiga aylanadiki, u yo‘q bo‘lganda talaba uchun ham, o‘qituvchi uchun ham ma’lum bir noqulaylik paydo bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati rasmiylashtirish qiyin bo‘lgan biologik ob'ektlarni boshqarishni tashkil etishdir. Shu nuqtai nazardan o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ob’ektiv-subektiv munosabatlar masalalari ularning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi. Shunday qilib, jismoniy tarbiyada amaliy foydalanish uchun biz o‘lchash va baholash mumkin bo‘lgan jismoniy holatning mavjud va informatsion ko‘rsatkichlarini tanlashimiz mumkin. Bular: somatometrik, somatoskopik va fiziometrik ko‘rsatkichlar, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy faollik, kasallanish bo‘lishi mumkin. Jismoniy holatning o‘lchanadigan belgilarini tanlashda ularni o‘lchashning soddaligini, baholash usullarini va jalb qilinganlarning motivatsiyasini hisobga olish kerak. Klaster tahlili - har biri ma’lum bir o‘zgaruvchilar to‘plami bilan tavsiflangan ko‘p o‘lchovli kuzatishlarni tasniflash imkonini beruvchi usullar to‘plami. Klaster tahlilining maqsadi odatda klasterlar deb ataladigan bir-biriga o‘xshash ob'ektlar guruhlarini shakllantirishdir [2].

Sog‘liqni saqlashning individual dasturlarini ishlab chiqishda klaster-modul usulidan foydalanish, funksional va jismoniy holatni to‘g‘ri baholash katta ahamiyatga ega, chunki u nafaqat jismoniy mashqlarning tanaga ta’sirini o‘rganishga imkon beradi, balki ba’zan yashirin kasallik tashxisini qo‘yish, jismoniy faoliyatga moslashish qobiliyatini o‘rnatish, uni optimalligini aniqlash va hokazo.Modulni o‘quv elementi sifatida standartlashtirilgan buklet shaklida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- ✓ aniq tuzilgan o‘quv maqsadi;
- ✓ zarur jihozlar ro‘yxati;
- ✓ tegishli ta’lim elementlari ro‘yxati;
- ✓ batafsil illyustratsiyalar bilan birga qisqacha aniq matn ko‘rinishidagi dolzarb o‘quv materiali;
- ✓ vosita ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashqlar;

Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya bo‘yicha yangi o‘qitish texnologiyalarini tizimlashtirish va tahlil qilish uchun ilmiy asoslarni ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib, ular turli xil vazifalarni hal qila oladi: bilimlarni etkazish, ularni o‘zlashtirish jarayonini kuzatish, tasviriy materiallarni namoyish qilish va jismoniy rivojlanishni rivojlantirish. fitnes. Solovieva E. B. (1996) jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning eng muhim muammosi - bu o‘quv faoliyati jarayonida o‘quvchilar tomonidan olingan yuklarni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish imkonini beradigan o‘quv tizimini izlash deb hisoblaydi. shaxsning jismoniy rivojlanishini individuallashtirish imkonini beradi. [4].

O‘z tanangizni bilish uchun uning harakatlarini rag‘batlantirishni o‘rganing, asab-mushak tarangligini va psixo-emotsional charchoqni engillashtiring. Bu turli xil tadqiqotlarda tasdiqlangan, bu erda talabalar o‘rtasida kasallanishning kamayishi, reabilitatsiya va tiklash choralari tizimidan maqsadli foydalanganlar (barcha 4-5 yil

davomida) jismoniy va intellektual qobiliyatlarning oshishi statistik jihatdan isbotlangan.

Modellashtirish "bizni qiziqtirgan ob'ekt to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganilmaydigan, balki yordamchi sun'iy yoki tabiiy tizim ("kvazi-ob'ekt") qo‘llaniladigan ob'ektning vositachilik bilan amaliy yoki nazariy ishlashi usuli bo‘lib xizmat qiladi. bilishning ma’lum bosqichlarida uni almashtirishga va uni o‘rganishda, pirovardida, modellashtirilgan ob'ektning o‘zi haqida ma’lumot berishga qodir bo‘lgan ma’lum ob'ektiv muvofiqlik.

O‘qituvchi faoliyati nafaqat har bir talaba jismoniy tarbiyaning turli bo‘limlari bilimlaridan foydalanish sohasidagi konseptual va uslubiy mazmun, faoliyat usullari to‘g‘risida tuzilgan, maqsadli va asosli ma’lumot berish, balki jismoniy tarbiyaning bevosita va bilvosita nazorati sifatida ham ko‘rib chiqilishi kerak. ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarning jismoniy faolligi o‘qituvchisi.qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga muvofiq.

Tibbiyot va jismoniy tarbiyada kompyuterlardan foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi. Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, jismoniy tarbiya darslarini individuallashtirish jismoniy tarbiya va o‘quvchilar salomatligini dinamik kuzatish (monitoring) tizimlarini ishlab chiqishni anglatadi. Buni zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida, sog‘lig‘i yomon o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasida amalda qo‘llanilmaydigan klaster-modulli o‘qitish usuli yordamida amalga oshirish mumkin, yuqorida aytilganlarning barchasi sifatni baholashning yangi shakllarini topish zarurligini ko‘rsatadi. jiddiy sog‘lig‘i buzilishi bo‘lgan talabalar uchun bilim va ko‘nikmalar.

Biroq, zamonaviy axborot texnologiyalarining yuqori salohiyatiga qaramay, ular hali ham oliy jismoniy tarbiya tizimida keng qo‘llanilishini topmagan. Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, jismoniy tayyorgarligi turlicha bo‘lgan o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi bo‘yicha o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda juda dolzarb ko‘rinadi.

Klaster-modul usuli - bu turli darajadagi talabalarning muvofiqlashtirish qobiliyatlari, chidamliligi va boshqa jismoniy va psixomotor qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasida, ularning rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'sir qilishning umumiy muammosida mutlaqo yangi zamonaviy tendentsiya.

Adabiyotlar:

1. Oldenderfer M. S., Bleshfild R. K. Klasternыy analiz. / — V kn.: Faktornыy, diskriminantnыy i klasternыy analiz. — M.: Finansы i stati-tika, 1989.—S.215.

2. Klassifikatsiya i klaster / Pod red. Dj. Ven Rayzina // Per. s angl. P. P. Kolsova; Pod red. Yu. I. Juravleva.-- M.: Mir, 1980.— S.388.

3. Jambyu M., Ierarxicheskiy klaster-analiz i sootvetstviya // Per. s frans. B. G. Mirkina,- M.: Finansы i statistika, 1988.-- S 300.

4. Proxorova M. V., Sidorov A. A., Sinyuxin B. D., Semyonov A. G. Pedagogika fizicheskoy kulturы: Uchebnik M.: Iz-vo «Put»: TID «Alyans», 2006. — S. 129.Udk 796 (075.8) BBK 75.1 P 84

MUNDARIJA			
1.	**Карпенко Василий Анатольевич**	МОДЕЛЬ ТРУДОУСТРОЙСТВА МОЛОДОГО СПЕЦИАЛИСТА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ	**4**
2.	**Imamova Umida Ismoil qizi**	JAMIYATDA AXBOROTNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI	**14**
3.	**Abdullayeva M.M.**	G. HIRSUTUM L. TURIGA MANSUB NAVLAR, TIZMALAR VA DURAGAYLARINING VERTICILLIUM DAHLIAE KLEB BILAN TABIIY ZARARLANGAN SHAROITDA INFEKSION KASSALANISHI	**19**
4.	**O‘rinboyev Muxammadzoxir Iqboljon o‘g‘li**	FIZIKA FANINI O'QITISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNI QO'LLASHNING TA'LIMIY NATIJALARI	**24**
5.	**Норматова Замира Аминжоновна**	СПЕЦИФИКА И МЕТОДИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ В ОБРАЗОВАНИИ	**26**
6.	**Suleymanova Sevara Abdumalikovna**	ADABIYOTSHUNOSLIKDA QISSA POETIKASI	**32**
7.	**G’aybullayeva Zilola Xushnud qizi Ho’sinova Saodatjon Umirbek qizi**	PSIXOLOGIYADA EMPATIYA TUSHUNCHASI	**35**
8.	**Iriqulova Zuhra Ibodullayeva Elmira Burteshova A.B.**	O‘SMIRLIK DAVRIDA EMPATIYANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	**38**
9.	**Akbarova D. R. Abdurakmonov Sh. Y. Yoldoshev A.A.**	JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING HAYOTIDA TIBBIY BILIMLARNING O’RNI	**41**
10.	**Raupova Mohinur Haydar qizi**	QUANTUM SIMULATIONS OF DYNAMIC SYSTEMS: A PYTHON-BASED APPROACH	**45**
11.	**Oripova Sarvinoz Narzulloyevna**	YANGI DAVR HIKOYACHILIGIDA G‘ARB ADABIY-ESTETIKASI TA’SIRI	**47**
12.	**Maftuna Shermatovna Omonova**	INGLIZ ROMANTIK ADABIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	**53**
13.	**Davlatova Munisa Aminovna**	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O‘QITISHDA AUDIO MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI	**55**
14.	**Xoshimova Dilnoza Rixsiboyevna**	AMALIY INGLIZ TILI O‘QUV MASHG‘ULOTLARIDA KONNOTATIV MOHIYATLI O‘QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH USULLARI	**59**
15.	**Umarova Shohida Absalomovna**	MIGRANT OILALARDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY QADRIYATLAR UYG‘UNLASHUVINING PSIXOLOGIK JIHATLARI	**62**
16.	**Юлдашева Т.А.**	РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	**65**

		НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ	
17.	**Karimov Ravshanbek Rizomatovich**	IJTIMOIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIK MUAMMOSINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI	**69**
18.	**Юсупова Феруза Махкамовна**	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ	**76**
19.	**Rustamova Zuhro Sanjar qizi**	BOKS MASHG‘ULOTLARIDA TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI	**80**
20.	**Sodiqova Nurgul Tursunboyevna**	UY TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.	**84**
21.	**Bozorboyev Javlon**	OLIY TA'LIMDA GAMIFIKATSIYANI JORIY ETISHNING TEXNIKPEDAGOGIK MEXANIZMLARI	**87**
22.	**J.B.Sotvoldiyev**	BELBOG‘LI KURASHCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISHI VA SPORT NATIJALARIGA TA’SIRI	**92**
23.	**Matyaqubov Kamaladin Kuronboyevich**	EMPATIYA VA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR	**98**
24.	**Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi**	ALALIYA VA AFAZIYADA FONOLOGORITMIK MASHQLARNI ADAPTATSIYALASH OMILLARI	**102**
25.	**Sodiqov Muhammadali Abdullaxat O‘g‘l**	KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MODELI	**105**
26.	**Temirbekova A.O.**	ONA TILINI O‘QITISHDA NEYROPEDAGOGIK VA LINGVODIDAKTIK JIHATLARNING O‘RNI HAMDA AHAMIYATI	**108**
27.	**Usarov Jabbor Eshbekovich**	ELEKTRON PORTFOLIO ASOSIDA TALABALARNING KASBIYREFLEKSIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH	**112**
28.	**Anvarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li**	VAQT MA’NOSINI BILDIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR ORASIDAGI SINONIMIK MUNOSABATLAR (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALIDA)	**116**
29.	**Ermetov Dilmurod Nazarmatovich**	YOSH FUTBOLCHILARDA “XAVFSIZ UZATISH” FENOMENI: XATODAN QO‘RQISH VA MOTIVATSION IQLIMNING O‘YIN QARORLARIGA TA’SIRI	**121**

30.	**Eshnayev N.J.**	INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA TALABALAR KASBIY MOSLASHUVINING RESURS MEXANIZMLARI: INDIVIDUAL VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK RESURSLARNING O‘ZARO TA’SIRI	**124**
31.	**Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi**	TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	**128**
32.	**Xudaybergenova Adolat Usmanovna**	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MEHNATSEVARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI VA YOSH XUSUSIYATLARI	**131**
33.	**Razov Baxramamattdin Muxammetdinovich**	MUHAMMAD ALAYHISSALOM HADISLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI TUTGAN O‘RNI	**136**
34.	**Umirova Nurjamal Jarkurganovna**	PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH — KASBIYPEDAGOGIK ZARURAT	**139**
35.	**Bekchanova Sabohat Matrasulovna**	O‘QUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNING O‘RNI	**144**
36.	**Axmadjonova Dilnoza Murod qizi**	5–7-SINF O‘QUVCHILARIDA BASKETBOL KO‘NIKMALARINI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH USULLARI	**148**
37.	**Mirxamidova Xilola Mirjamol qizi**	BO‘LAJAK LOGOPEDLARNING KASBIY REFLEKSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING IMKONIYATLARI	**152**
38.	**Mirxamidova Xilola Mirjamol qizi**	BO‘LAJAK LOGOPEDLARNING DIAGNOSTIK FAOLIYAT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA VAZIYATLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH	**157**
39.	**Ortiqova Maftuna Jasurbek qizi**	SUYUQLIKLARDA YORUG‘LIKNING KOMBINATSION SOCHILISHINI O‘LCHASHNING TEXNIKASI VA METODIKASI	**162**
40.	**Nurova Malika Abduzairovna**	DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI	**168**
41.	**Sattorbekov Ravshanjon Solijonovich**	PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI BO’LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARINI KLASTER METODI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH	**171**